

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

Zooinjeneriya “Baliqchilik”

yo‘nalishi

**“BALIQCHILIKDA ZAMONAVIY
AKVAKULTURA TEXNOLOGIYALARI”
moduli bo‘yicha**

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA



Toshkent 2022

**Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta mahsus ta’lim vazirligining
2021 yil 25 dekabrdagi 538-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va
dastur asosida tayyorlangan**

Tuzuvchilar:

Yuldashev M.A – Baliqchilik kafedrasи professori b.f.d.

Kamilov B.G. – Baliqchilik kafedrasи professori, b.f.d.

Toshova N.R. – Baliqchilik kafedrasи assistenti

Taqrizchi:

Mirzayev U.T. – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Zoologiya institutining Ilmiy ishlar va innovatsiya bo‘yicha direktor o‘rinbosari, biologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

**O‘quv-uslubiy majmua ToshDAU Kengashining
2022 yil 11-yanvardagi 6-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.**

MUNDARIJA

I.	ISHCHI DASTUR	5
II.	MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	13
III.	NAZARIY MATERIALLAR.....	56
IV.	AMALIY MASHG'ULOTLAR MATERIALLARI.....	159
V.	KEYSLAR BANKI.....	203
VI.	GLOSSARIY.....	204
VII.	ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	209
VIII.	TAQRIZLAR.....	

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlaksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797 sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarining mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Mazkur majmuada akvakulturaning zamonaviy texnologiyalari shuningdek, suv havzasidagi boshqa gidrobiontlarni yetishtirish texnologiyalari haqida baliqchilikning yangi yo‘nalishlari, akvakultura baliqlarni oziqlantirish, akvakultura intensiv tizimidagi baliq kasalliklari ularning oldini olish chora tadbirlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Modulning maqsadi va vazifalari

Baliqchilikda zamonaviy akvakultura texnologiyalari fanining o‘qitishdan

maqsad talabalarga baliqchilikda yangi ob'yeqtlni yetishtirish yo'llarini o'zlashtirish shuningdek, suv havzalarida ozuqa bazalarining biologiyasi, ekologiyasi, etologiyasi, filogenezi, sistematikasi va zoogeografiyasi bo'yicha bilim berish. Akvakultura asoslari fani hayvonot dunyosini o'rganishda nazariy va amaliy masalalarni hal etib biologyaning ayrim yo'nalishlarini rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Suv havzalarida yangi foydali mahsulotlarni yetishtirish xalq xo'jaligi amaliyotda baliqchilik xo'jaliklari texnologiyalari yutuqlaridan foydalanish yoritib beriladi.

Talabalar "Akvakultura" fanini o'rganish asosida baliqchilik havzalarining tuzilishi, baliq yetishtirish texnologiyasi, ko'payish usullari, o'sish, rivojlanishni turli tumanligi, ularni morfologik, anatomik, fiziologik va ekologik aspektlarini yoritishda ushbu fanni ahamiyati naqadar katta ekanligiga ishonch hosil qiladilar.

Talabalar akvakultura fanini chuqur o'zlashtirishi uchun nazariy va amaliy mashg'ulotlarda beriladigan materiallar o'zaro uyg'unlashgan bo'lishi kerak. Buni samarali amalga oshirishda hozirgi zamon o'quv qurollari, laboratoriya anjomlari va yordamchi texnik vositalardan keng foydalanish talab qilinadi.

Keyingi yillarda naslchilik ishlari, introduksiya va yangi tur baliqlar, suv o'tlari va boshqa suv jonzotlarini shakllantirish ishlari oqsab qolganligi sababli O'zbekiston sharoitida yashay oladigan va yuqori baliq mahsuloti beradigan baliqlarni va boshqa suv jonzotlarini olib kelish va iqlimlashtirish ishlarini akvakultura asoslari fani amalga oshiradi.

"Baliqchilikda zamonaviy akvakultura texnologiyalari" modulining vazifalari:

-Baliqchilikda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda yangi zamonaviy texnologiyalarni tadbiq etish;

-ilmiy-tadqiqotlarni uslubiy jihatdan to'g'ri va sifatli olib borishni ta'minlash;

-ilmiy-tadqiqot ishlarini ma'lumotlarni uslubiy jihatdan to'g'ri matematik tahlil qilish va ishonchlilagini oshirish;

-ilmiy-tadqiqot ishlarida rivojlangan xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik qilish va eng so'ngi fan yutuqlaridan foydalanish;

-ilmiy-tadqiqot ishlarida barcha turdag'i tadqiqot usullaridan: dala tajribasi, lizimetrik, vegetatsion va laboratoriya tajribalarini birgalikda tadbiq etish;

-ilmiy-tadqiqotlarida o'rganilayotgan sifat va miqdor belgilar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlikni aniqlashga katta e'tibor berish, ilmiy ishningi sifatini oshirish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:

“Akvakulturada baliqlarni parvarishlashning zamonaviy texnologiyalari” kursini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Fan bo'yicha talabaning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi.

Tinglovchi:

-Akvakulturaning rivojlanish tarixini, zamonaviy tizimlarini ularning xalq xo'jaligida tutgan o'rni, ahamiyati;

-Akvakultura ob'yeqtalarining biologik xususiyatlari;

-Akvakulturaning turli yo'nalishlarini, har xil gidrobiontlarni yetishtirish texnologiyasi;

-Akvakulturada baliqlarni oziqlantirish, ishlatiladigan yem turlari ularni tarqatish qurilmalari;

-Suvning sifat ko'rsatkichlari va ularning akvakulturadagi o'rni;

-Akvakultura tizimlarida kelib chiqadigan baliq kasalliklari va ularning oldini olish chora-tadbirlari haqidagi *tassavurga ega bo'lishi*;

-Akvakultura ob'yeqtalarining biologik xususiyatlarini;

-Akvakulturaning intensiv tizimlarini;

-Akvakulturaning yangi yo'nalishlarini;

-Baliqlarni sun'iy ko'paytirish usullari va ishlatiladigan asbob-uskunalarini;

-Akvakultura tizimlarinig suv sifat ko'rsatkichlariga bo'lgan talabini;

-O'zbekistonda akvakulturani rivojlantirish uchun istiqbolli yo'nalishlarini *bilishi va ularni foydalana olishi*;

-introduksiya qilingan suv o'simliklari va hayvonlarning turli ekologik sharoitlarda rivojlanishiga baho berish;

-sun'iy ko'paytirish uchun ota-onalari baliqlar to'dasini shakllantirish, ularni parvarishlash;

-akovakulturaning intensiv tizimlari (qafas moslamalari, basseyn, YOSTQ) va ularda baliq yetishtirish;

-qisqichbaqasimonlar, suv o'tlari va boshqa gidrobiontlarni yetishtirish bilan shug'ullanish;

-intensiv tizimda ishlataladigan yemlar turlari va ularning sifat ko'rsatkichlariga baho berish **malakalariga ega bo'lishi kerak.**

Tinglovchi:

-jahon miqiyosida yangi baliq mahsulotlarini olishning zamonaviy usullari;

-baliq va baliq mahsulotlarini hozirgi zamon talabiga asosan ko'proq ishlab chiqarishning yangi usullari;

-baliq mahsulotlarining ilg'or usullari haqida **bilimlarga ega bo'lishi.**

-baliqlarga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida oziqa me'yori va ratsionlarini tuzish;

-baliq va baliq chavoqlarini ularning mahsuldorlik ko'rsatkichlariga qarab oziqlantirishni tashkil etish;

-baliq va baliq mahsulotlarini tayyorlash va ularni yetishtirishda jahon tajribasi darajasida **ko'nikma va malakalarini egallashi.**

-baliqchilikda zamonaviy oziqlantirish texnologiyalarini qo'llash.

-baliqchilikda zamonaviy mahsulotlar yetishtirish texnologiyalarini qo'llash **kompetensiyalarini egallashi lozim.**

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan o'zaro bog'liqligi va uzviyligi.

"Akvakultura" fani asosiy umumkasbiy fani hisoblanib, semestrlarda o'qitiladi. O'quv rejasida rejalshtirilgan matematik va tabiiy (oliy matematika, informatika va axborot texnologiyalari, biometriya, fizika, anorganik va analitik kimyo, organik kimyo, fizik va kolloid kimyo), umumkasbiy (zoobiologiya, umumiy

gidrobiologiya, tsitologiya, gistologiya, genetika, individual rivojlanish biologiyasi, biokimyo, mikrobiologiya va virusologiya, o'simliklar fiziologiyasi, odam va hayvonlar fiziologiyasi, evolyutsion ta'limot) va ixtisoslik fanlarini o'zlashtirishda akvakultura asoslari fanidan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar "Akvakulturada baliqlarni parvarishlashning zamonaviy texnologiyalari"ni o'rganish asosida amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat			
		Auditoriya o'quv yuklamasi		jumladan	Nazariy Amaliy mashgulot
		Jami			
1	Akvakulturada baliqlarni parvarishlashning zamonaviy tizimlari	2	2		
2	Akvakultura ob'yektlarining biologik xususiyatlari	2	2		
3	Akvakulturaning boshqa yo'nalishlari. Gidrobiontlarni yetishtirish texnologiyalari	2	2		
4	Akvakulturada baliqlarni oziqlantirish asoslari	2	2		
5	Bir yilda muayyan miqdordagi tovar balig'ini yetishtirish uchun oqar suv basseynlari sonia va o'lchamiga bo'lgan talabni hisoblab chiqish.	2		2	
6	Har xil jadallikkagi texnologiyalar uchun yemlarning tavsifi.	2		2	
7	Oqar suv basseynlarida kamalak gulbaliq o'sish modelini harorat rejimi, o'stirish tig'izligi oziqa miqdoriga bog'liq holda tuzib chiqish	2		2	
8	Suvning sifat ko'rsatkichlarini tezkor aniqlash usullari	2		2	
9	Chuchuk suv akvakulturasida baliqlar, qisqichbaqasimonlar va boshqa suv hayvonlarni yetishtirish ko'lamini baholash.	2		2	
10	Akvakulturada baliqlarni tashish va saqlashni tashkil qilish.	2		2	
11	Toshkent davlat agrar universiteti Baliqchilik kafedrasiga tashrif. Baliqlar kolleksiyasidagi baliq turlari bilan tanishish	2			2
12	Toshkent davlat agrar universiteti qoshidagi baliqchilik ilmiy markaziga tashrif. Yopiq suv taminoti qurilmalari tuzilishi va ishlashi bilan tanishish.	2			2
	Jami:	24	8	12	4

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-Mavzu: Akvakulturada baliqlarni parvarishlashning zamonaviy tizimlari

Baliqning oziq sifatidagi qiymati. Akvakultura ayrim hududlarda va jahonda asosiy baliq yetishtiruvchi sifatida. Texnologiyalarni rivojlantirish akvakulturani rivojlantirish asoslari sifatida. O‘zbekistonda akvakulturaning rivojlanishi. Zamonaviy baliqchilik tadqiqotlarida akvakulturaning dolzarb masalalari. Respublikada akvakulturani rivojlantirish uchun suvdan kompleks foydalanish talablari.

2-Mavzu: Akvakultura ob’yektlarining biologik xususiyatlari

Chuchuk suv va qisman sho‘rlangan suv akvakulturasi, marikultura. Sovuq suv, iliq suv, tropik akvakultura. To‘liq tizimli va to‘liq bo‘lmagan tizimli baliqchilik xo‘jaliklari. Baliq yetishtirishning ochiq va yopiq tizimlari. Ekstensiv, yarim intensiv va intensiv akvakultura. Akvakultura ob’yektlarining sistematik tahlili. Osetrsimon, losossimon, sigsimon, karpsimon, laqqasimon, olabug‘asimon baliqlar. Akvakultura ob’yektlarini tanlash tamoyillari.

3-Mavzu: Akvakulturaning boshqa yo‘nalishlari. Gidrobiontlarni yetishtirish texnologiyalari

Akvakulturada mollyuskalarining biologik xususiyatlari. Mollyuskalarini yetishtirish. Ikki pallali molyuskalarini yetishtirish xususiyatlari. Suv o‘tlarini yetishtirish

4-Mavzu: Akvakulturada baliqlarni oziqlantirish asoslari

Baliqlar va akvakulturaning boshqa ob’yektlarining ozuqa elementlariga talabi. Yetishtirilayotgan turli ob’yektlarning oziqlanish xususiyatlari.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-Mavzu: Bir yilda muayyan miqdordagi tovar balig‘ini yetishtirish uchun oqar suv basseynlari sonia va o‘lchamiga bo‘lgan talabni hisoblab chiqish.

Ko‘l va tabiiy suv havzalari gidrologik va hidrobiologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularga o‘tkaziladigan tovar baliqni o‘stirish tig‘izligini hisoblab chiqish o‘rgatiladi.

2-Mavzu: Har xil jadallikdagi texnologiyalar uchun yemlarning tavsifi.

Qafas moslamalarining turlari, ularni suv havzasiga o‘rnatish, qafas moslamalarida o‘stiriladigan baliq turlari to‘g‘risida, o‘stirish tig‘izligi, oziqlantirish ratsioni to‘g‘risida tushunchalar beriladi.

3-Mavzu: Oqar suv basseynlarida kamalak gulbaliq o‘sish modelini harorat rejimi, o‘stirish tig‘izligi oziqa miqdoriga bog‘liq holda tuzib chiqish

Gidrobiontlar va baliqlar uchun suv havzasasi sharoitini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar va suv havzasidan baliq tutishni yaxshilashga qaratilgan chor- tadbirlar bilan tanishtiriladi

4-Mavzu: Suvning sifat ko‘rsatkichlarini tezkor aniqlash usullari

Suv havzasi suvining sifat ko‘rsatkichlarini baliqchilik talabi nuqtai nazaridan tahlil qilish o‘rgatiladi. Suv sifat ko‘rsatkichlarini saqlab turish yo‘llari o‘rgatiladi.

5-Mavzu: Chuchuk suv akvakulturasida baliqlar, qisqichbaqasimonlar va boshqa suv hayvonlarni yetishtirish ko‘lамини baholash.

Baliqlarning morfologik tuzilishi, nafas olish, qon aylanish, ovqat hazm qilish, ayirish va jinsiy tizimi tuzilishi o‘rgatiladi.

6-Mavzu: Akvakulturada baliqlarni tashish va saqlashni tashkil qilish.

Iliq suv sharoitida o‘sadigan baliq turlari to‘g‘risida va ularni parvarishlash usullari to‘g‘risida tushuncha beriladi.

KO‘CHMA MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1. Baliqlar kolleksiyasidagi baliq turlari bilan tanishish

2. Yopiq suv taminoti qurilmalari tuzilishi va ishlashi bilan tanishish.

1. Karp balig‘i. Orol dengizida, Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo suv havzalarida ko‘p tarqalgan, Zog‘ora (сазан) balig‘idan tanlash yo‘li bilan keltirib chiqarilgan hovuzlarda o‘sirishga seleksiya qilingan baliq turidir. Tez o‘sishi bilan farqlanib turadi. U 2 ni ko‘rganida (17 oy) 1 kg vaznga ega bo‘ladi. U go‘shtining mazaliligi va yog‘liligi bilai mashhur.

O‘zbekiston sharoitida urchitilib ko‘paytirilayotgan issiqsevar yirtqich baliq turlariga quyidagi baliqlar kiradi: Laqqa (сом), Cho‘rtan baliq(шуга), Oq sla (Судак), Ilon bosh (змееголов)

Ilonbosh balig‘i. U yirtqich bo‘lib, baliq, qurbaqa, yirik umurtqasiz hayvonlar bilan oziqlanadi. Uning rangi sariq-yashil, katta yoshlarida qo‘ng‘ir dog‘lar ham bo‘ladi. Ko‘zining orqa qismidan uzun qora chuqur chiziq o‘tgan, tanasi uzunchoq, dumaloq shaklida, tanasini orqa qismi bir oz yapolоq, kallasi yapasqi va ilon boshini eslatadi.



Beluga. Osyotrsimonlar oilasiga kiruvchi eng katta baliq hisoblanib, erkak baliqlarining kattalari 1 tonnagacha bo‘lishi mumkin. Erkak baliqlarda jinsiy voyaga yetilishi 16-18 yoshda, urg‘ochi baliqlarda 20-21 yoshda bo‘ladi.

Beluga asosan basseynlarda hamda qafaslarda yetishtirilganda m^2 maydondan 30-40 kg.gacha baliq olish mumkin. Urug‘dan lichinkalarni chiqishi 2-3 kun davom etib, suv harorati qancha past bo‘lsa, urug‘dan embrion rivojlanishi shuncha kech bo‘ladi.

Beluga asosan Sobiq Ittifoqning Shimoliy muz okeaniga quyiladigan daryolar Ob, Lena, Yenisey, Irtish daryolarida uchraydi. Urug‘ qo‘yishi 3,9 mingdan 137,6 ming donagacha kuzatiladi. Urug‘ qo‘yishi aprel oyining oxiridan iyun oyigacha davom etadi. Suv harorati 7-100°C dan 200°C gacha bo‘lishi kerak. Asosan, baliqchilik xo‘jaliklarida basseynlarda ko‘paytiriladi. Hozirgi kunda O‘zbekiston sharoitida Yangiyo‘l tumanida joylashgan “Baliqchilik ilmiy-tadqiqot instituti”da Sibir va Lena osyotrlari mahalliy iqlim sharoitlariga moslashtirish uchun tajriba sifatida basseylarda o‘stirilmoqda.

Rus osyotri. Azov, Qora dengiz, Kaspiy dengizlarida tabiiy holda yashaydi. Soni bo‘yicha Kaspiy dengizida yashovchi boshqa osyotrsimonlardan ustunlik qiladi, xo‘jaliklarda moslashtirish uchun qulay hisoblangan osyotrsimon baliq turlaridan biri. Gavda uzunligi 2,35 m.gacha yetishi mumkin. Erkak baliqlarining uzunligi 1 dan 2 m.gacha farq qilishi mumkin. Og‘irligi 6 dan 15 kg. gacha, urg‘ochi baliqlarining og‘irligi 4 dan 28 kg.gacha yetishi mumkin. Bu sun’iy yetishtirishdagi (baliq xo‘jaliklaridagi) ko‘rsatkichlar bo‘lib, tabiiy muhitda ularning uzunligi 2 m.dan uzun bo‘lishi, og‘irligi 80 kg.dan 120 kg.gacha yetishi mumkinligi aniqlangan [Анисимова И.М., В.В. Лавровский, 1983].



Hovuz baliqchilik xo‘jalik turlari

Hozirgi zamon hovuz baliqchilik xo‘jaliklari shartli ravishda issiq va sovuq hovuz xo‘jaliklariga bo‘lish mumkin. Bu ikkala xo‘jaliklar bir-birlaridan baliq yetishtirish va ko‘paytirish texnologiyasi bilan farq qiladi. Bu farq

ko‘paytiriladigan baliqlarning biologik xususiyati, tashqi muhit sharoitiga bo‘lgan munosabatga asoslangan, asosan suv harorati va suv havzasining gidrokimyoviy rejimiga bog‘liq. Issiq suv sharoitiga asoslab tashkil qilingan xo‘jaliklarda issiqsevar balik turlari, o‘sish va rivojlanishi uchun optimal harorat 20°C dan yuqori bo‘ladi, bunday xo‘jaliklarda asosan karp, oq amur, oq do’ngpeshona, chipor do’ngpeshona yetishtiriladi. Hovuz sharoitini hisobga olib, ya’ni ozuqa bazasiga qarab buffalo, kanal laqqasi va oddiy laqqa boqilsa ham bo’ladi.

Sovuq suvgaga asoslab tashkil qilingan xo‘jaliklarda suv harorati 12-15°C bo‘lgan optimal haroratga asoslangan. Bunday xo‘jaliklarda forel, losos (osyotri) yetishtiriladi. Bu xo‘jaliklar quyidagi xususiyatlar bilan (hovuz hajmi, suv oqimi, suvning kislorodga boy bo‘lishi 8-12 ml/l) suvning sovuqligi bilan farq qiladi. Asosan Farg‘ona vodiysida, Toshkent viloyatida tashkil qilinadi. O‘zbekistonda asosan issiq suv hovuz xo‘jaligi rivojlanganligi sababli, tavsiya etiladigan qo‘llanmada shu xo‘jalik turining texnologiyasi asos qilib olingan.

Sibir osyotri 1979 yili rus osyotri va Lena osyotrini chatishtirish yo‘li bilan olingan duragay hisoblanadi. Sibir osyotrining urg‘ochisi ikki yilda bir marotaba urug‘ beradi. Bir xil sharoitda (harorat, suvning gidrokiyoviy ko‘rsatkichlari, ozuqa) o‘stirilgan duragayning birinchi avlodi lichinka va chavoqlari va ona turi (rus osyotri) hajm jihatdan solishtirilganda duragayning o‘rtacha og‘irligi rus osyotrining o‘rtacha og‘irligiga nisbatan 1,1-1,22 marotaba og‘irroq bo‘lgan (RO×LO).



Beluga. Azov, Kaspiv va Qora dengiz basseynlarida tarqalgan. Chuchuk suvlarda yashovchi eng yirik baliq hisoblanadi. 15 yoshida uzunligi 4,2 m., og‘irligi 1,5-2 tonnani tashkil etib, 9 m. uzunlikkacha yetishi mumkin. Ovlangan belugalarni o‘rtacha og‘irligi Volga daryosida 70-80 kg., Azov dengizida 60-80 kg., Dunay daryosi hamda Qora dengizda 50-60 kg. ni tashkil etgan.



Forel balig‘i sovuq suvda yashovchi baliq bo‘lib, 0-250°C oraliqdagi haroratga dosh bera oladi. Urug‘ining rivojlanishi uchun maqbul harorat – 6-12°C, uvildirig‘ va mayda baliqlarni parvarish qilish uchun – 14-16°C, forel uchun – 14-18°C. Harorat 20-220°C dan ortiq bo‘lganda forel balig‘i oziqlanishni to‘xtatadi, harorat optimal darajadan pasayganda esa forelining oziqlanish ratsioni ham kamayib boradi. Forelining tabiiy suv havzalardagi chuchuk suvlarda qishlashi normal o‘tadi, u nolga (muzlashga) yaqin haroratga dosh beradi. Tuzli suvda forel suvning minusli haroratlarida ham yashay oladi. Forel balig‘i – oksifil baliq, ya’ni unga kislородга yaxshi to‘yingan suv kerak. Forel balig‘i suv kislород bilan 90-100% ga to‘yinganda, ya’ni uning tarkibi 7-8 mg/l bo‘lganda o‘zini yaxshi his qiladi. Aralashgan kislород konsentratsiyasi 3,5-6 mg/l bo‘lganda forel balig‘i o‘zini yomon his etadi, 1,5 mg/l bo‘lganda daryo foreli nobud bo‘ladi. Forel balig‘ining ikki turi mavjud:

1. Kamalaksimon forel (радужный форель);
2. Soy foreli (ручевая

форель).



Oq amur (Белый амур) – karpsimonlar oilasining bir turi. Tabiiy tarqalgan joylari Amur daryosi, uning irmoqlari va Xitoyning chuchuk suvli daryolaridir.

Oq amur 1960-1961 yillarda Xitoydan keltirilib, Amudaryoning suv havzalarida iqlimlashtirilgan. Keyinchalik Amudaryodan Amu-Buxoro kanali orqali To'dako'l suv omboriga o'tgan. Xorazm ko'llarida ko'plab uchraydi. Hozirgi paytda Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon va Qashqadaryoning suv havzalarida keng tarqalgan bo'lishiga qaramasdan soni unchalik ko'p emas. Amudaryo va Sirdaryonnng ayrim qismlarida tabiiy ko'payish hollari uchraydi. Tallimaron suv omborida o'lchamlari katta, uzunligi 67-87,3 sm, og'irligi 6-10 kg keladigan Oq amurlarni ko'plab uchratish mumkin. Oq amur tez o'suvchi baliq bo'lib, Sirdaryo suv havzalarida og'irligi 45 kg gacha boradi.

Oq amur vatanida 7-10 yoshda jinsiy voyaga yetsa, bizning sharoitda iqlimlashgan baliqlardagi, bu ko'rsatkich asosan 4-5 yoshni tashkil qilmoqda. Absolyut serpushtliligi 100 mingdan 900 minggacha uvildiriqni tashkil qiladi.



Oq amur

Ctenofaringodon idella – O'rta Osiyo Markaziy va G'arbiy Sibirga va Kamchatkaga introduksiya qilingan. 35 yilgacha yashaydi. 7-8 yoshida vegetativ o'sishdan to'xtaydi, keyingi yillar faqat generativ o'sish kuzatiladi. Tabiatda 20 kg va undan katta bo'lgan individlari uchraydi. Tabiiy areali Ponto Kaspiy Orol basseynidan tortib Xitoy janubdan Birmagacha cho'zilgan.



Labeo roxita — labeo roxita karpsimonlar tana tuzilishiga xos kumushrang baliq. Voyaga yetgan individlari 45 kg va 2 m uzunligi metrgacha yetishi mumkin, o'rtacha uzunligi 50 sm. Sharqiy va Markaziy Hindiston, Pokiston,

Bangladesh, Nepal, Myanm, daryolarida uchraydi.



Labeo roxita.

Catla catla – Xind yoki Bangladesh karpi 1 chi yilda 45 sm va 1120 gram, 3-chi yilda 112 sm va 6700 gr. o’sadi 2-chi yili voyaga yetadi. Sharqiy va Markaziy Xindiston, Birma, daryolarida uchraydi.



Oreochromis niloticus – Nil tilyapiyasi Afrika va yaqin sharq davlatlari tropik va subtropik iqlimli regionlarida uchraydi. 9 yilgacha yashaydi 5 kg individlari uchraydi. Ozuqasi 95% o’simliklardan makrofitlardan iborat. 5-6 oyda voyaga yetadi. Xitoy, Misr, Tayland, Filippin va Indoneziyada yetishtiriladi.



Chanos chanos – Xanos yoki sut baliq Tinch va Xind okeani qirg‘oqlarida daryo o‘zanlarida sho‘rxoksuvlarda uchraydi. 15 yilgacha yashaydi 14 kg individlari uchraydi. Ozuqasi planktonlardan iborat. 4-5 yilda voyaga yetadi. Suv sathiga yaqin joyda suzganda dum suzgichini suvdan chiqib turishini ko‘rgan sayyoohlар akula bilan chalkashtiradilar. Dunyo bo‘yicha 1 mln. tonna yetishtiriladi.



Lates calcarifer – barramundi yoki sibas Xitoy, Tayvan, Yangi Papua Gvineya, Yaponiya janubi va Avstraliya shimalida uchraydi. 1,8 m. gacha boradi, 60 kg individlari uchraydi. Evrigalin lekin stenoterm 26-30°C haroratda yashaydi. Ozuqasi qisqichbaqasimonlar, molyuska va mayda baliqlardan iborat. Bu baliq o‘z jinsini o‘zgartirish qobiliyatiga ega bo‘lib katta yoshdagi baliqlar aksariyati urg‘ochidir, ikradan deyarli erkak baliqlar chiqadi va birinchi nerestdan keyin

jinsini o‘zgartiradi.



Clarias gariepinus – Afrika laqqasi butun Afrika va Janubiy va Janubiy Sharqi Osiyo davlatlarida suv havzalarida uchraydi. 9 yilgacha yashaydi 60 kg individlari uchraydi. Yirqich, lekin, boshqa turdag'i ozuqani ham iste'mol qiladi. Havodan nafas olish uchun jabra usti organi o'pkasi rivojlangan. 1,5 yilda voyaga yetadi.



Pangasius hypophthalmus – Pangasius, akula laqqasi V'etnam, Laos, Kambodja, Tayland suv havzalarida uchraydi va keng yetishtiriladi. Tabiiy sharoitda 150 sm uzunlik, 50 kg individlari uchraydi. Yirqich lekin boshqa turdag'i ozuqani ham iste'mol qiladi. Chavoqlik davrida ikki yon tomonida qora chiziqqa ega bo'lib keyinchalik yo'qolib ketadi. Bu baliq hammaxo'r plankton yuqori suv o'tlari qisqichbaqasimonlar va baliqlar bilan oziqlanadi.



Ictalurus punctatus – kanal laqqasi yoki amerika laqqasi Shimoliy Amerikada suv havzalarida uchraydi va keng yetishtiriladi. Tabiiy sharoitda 8 yil yashaydi, Uzunligi 132 sm, og‘irligi 26 kg individlari uchraydi. Yirqich lekin boshqa turdag'i ozuqani ham iste'mol qiladi. Yevropada akklimatatsiya qilingan.



2. Yuqori oqsilli granulalangan yemlar yuqori qiymatga ega. Bunday yemlardan samarali foydalanish va yetarli darajadagi iqtisodiy jozibadorlikni hosil qilish uchun yarim intensiv baliqchilikka nisbatan o‘tqaziladigan baliqlar zichligini bir necha barobar ko‘paytirish zarur. Bu narsa kichik baliqchilik suv havzalarida baliq yetishtirishda o‘ziga jalb qiladi, ya’ni ularda kompleks tarzdagi muhandislik ishlarini amalga oshirish hisobiga qulay sharoit yaratiladi va bunda baliq

mahsuldorligini har bir metr kub hisobiga bir necha o‘n va hatto yuz kilogrammga yetkazish mumkin bo‘ladi.


Yuqori zichlikda baliq o‘tqazilganda suv havzasidagi tabiiy ozuqa bazasining rivojlanish tezligi baliqlarni ozuqa bilan hech qanday ta’minlay olmaydi, ya’ni baliqlarning holati biror-bir tabiiy ozuqa bazasini talab qilmaydi. Baliqlar o‘sishi uchun faqat sun’iy yuqori oqsilli yem ishlatiladi. Bunda yem to‘yintirilgan bo‘lishi kerak va unda baliqlar o‘sishi, hayoti uchun zarur bo‘lgan barcha ozuqa elementlari bo‘lishi kerak. Bunday yondashuv baliqchilikda *intensiv akvakultura* deb nomlana boshladi. Rus tilidagi mahsus adabiyotlarda *sanoatlashgan baliqchilik* degan boshqa atama mavjud. Aslida u yana ham to‘g‘iroqdir: suv, yetishtirilayotgan obyekt va ma’lum ko‘rsatkichlarga ega yem mavjud, baliqni yaxshi boshqariladigan va deyarli oldindan hisob-kitob qilingan rejaga asosan, ya’ni haqiqatda boshqarilmaydigan omillarning kuchli ta’siri bo‘lmaydigan sanoatlashgan sharoitda yetishtiriladi.

Katta miqdordagi baliqlarni yetishtirish suv havzasiga jiddiy talablarni qo‘yadi, ularning maqsadi esa, suv sifatini ta’minlashdir. Ushbu talablarni yetarlicha baholamaslik natijasida ko‘p miqdordagi baliqlar suvning sifatini tez buzilishiga olib keladi (erigan kislorod butunlay sarflanadi, ko‘p miqdorda ammiak va nitritlar ajraladi, suv o‘zida juda ko‘p aralashmalarni saqlaydi). Suv havzasida baliqlar yashashi uchun sharoit butunlay imkonsizga aylanadi. Hovuzlarda ekstensiv va yarim intensiv usullarda baliq yetishtirilganda suvning sifati tabiiy ekologik jarayonlar, ya’ni hovuz imkoniyatini belgilovchi gidroekosistema singari o‘z-o‘zini tozalash hisobiga saqlab turiladi. Ammo kichik suv havzalarida bunday imkoniyat yo‘q darajada kichik bo‘ladi. Bundan kelib chiqadiki, suv sifatini sun’iy usullar bilan saqlash zarur. Intensiv usulda baliqlarni saqlash tizimini rivojlantirish suv havzasida suvning sifatini saqlashga qaratilgan muhandislik ishlarining natijasidir. Bunda ushbu ishlar yetarli darajada oddiy, oson ommalashadigan, turli tipdagi suv havzalariga hamda suv manbalariga bog‘liq bo‘lishi kerak. Hozirgi vaqtga kelib intensiv baliqchilikning bir qancha usullari ishlab chiqilgan bo‘lib, ulardan ikkitasi keng ommalashdi: oqar basseynlar va qafas baliqchiligi (44-rasm).


Intensiv akvakulturaning zamонавиј технологијаси балиқ yetkazib berishning

mavsumiyligidan ozod bo‘lishiga yordam berdi. Hattoki, mo‘tadil iqlimli mavsumiylik aniq ifodalangan sharoitda ham bozorga tovar baliqni yil davomida yetkazish mumkin. Zamonaviy akvakultura turli geografik sharoitlar va turli tipdagi suv havzalari uchun ishlab chiqilgan kompleks texnologiyalarni taqdim etadi. Nazariy jihatdan olganda, hattoki, shimoliy kenglik sharoitida ham baliqlarni sanoatlashgan usulda yetishtirish mumkin, faqat buning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi cheklov bo‘lishi mumkin. Qurg‘oqchil hududlarda intensiv akvakulturaning taklif qilgan mahsus imt yozi turli tipdagi suv havzalaridan qo‘shimcha foydalanish imkoniyati bo‘lib, bu suv zahiralaridan samarali foydalanishni ancha oshiradi.

Взесу



В бассейнах идет постоянная замена "отработанной" воды на свежую



В садках газы свободно диффундируют через сетку, взвеси падают вниз

Basseynlar va qafaslarda suvning sifatini saqlash tamoyili.

Oqar basseynlar

Basseynlar bular – yerda yoki yer ichidagi suv havzalaridir. Basseynlarning hovuzlardan farqi suv sarfini kamaytirish uchun yaxshi gidroizolyatsiya qilinganidir (basseynlar betondan, metalldan, yog‘ochdan yoki sun’iy toladan qilingan bo‘lishi mumkin). Lekin ularning asosiy farqi – suv oqimining yuqori tezligidir. Basseynlarda suv almashinushi bir soatda sodir bo‘ladi (maksimum 2 soatda), lekin yanada tez bo‘lsa, bundan ham yaxshi. Ya’ni basseynlar – oqar suv havzalari bo‘lib, ularda suvning tez almashinishi hisobiga suvning sifati saqlanib turadi (Stikni, 1986; Suladze, 1990, Mamontov va boshqalar, 2008; Stickney, 2000).

Basseynlar bir qator imtiyozlarga ega. Ularni har qanday daryo, kanal va quduqning atrofiga qurish mumkin. Yer sathining tabiiy qiyaligi qulaylik tug‘diradi, ya’ni bu yerda suv manbadan chiqib basseyn orqali gravitatsiya hisobiga yana chiqib ketishi kerak. Basseyndan suvni yuzadagi oqimga olib ketuvchi zovur tizimiga ega bo‘lish muhimdir. Baliqlarni basseynlarda yetishtirish suv resurslaridan qo‘sishma foydalanish funksiyasiga kiradi, chunki suv basseyn orqali oqib o‘tib, yuza orqali yana manbaga qaytadi va oqim tartibini buzmaydi hamda suvdan boshqa foydalanuvchilarning zarar ko‘rmasligi uchun uni basseynda ushlab turmaydi. Basseynlarda yetishtirilayotgan baliqlar ustidan vizual nazorat o‘tkazish qulay bo‘ladi.

Balanslangan yuqori oqsilli yem ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgandan so‘ng basseyn akvakulturasi hovuz baliqchiligiga haqiqiy muqobil bo‘ldi. Bunday yemlar bilan yuqori mahsuldorlikka erishish mumkin ($40-200 \text{ kg/m}^3$ va hatto undan ham yuqori), ya’ni kichik hajmdagi suvda katta miqdordagi baliqlarni yetishtirish imkonini paydo qildi. Basseynlarni har qanday suv manbayi atrofida kichik hududda qurish oson va ular bug‘lanish yoki filtrlanishga ko‘p suv yo‘qotmaydi, suvni o‘z manbayiga tez qaytaradi.

Suv manbayi. Baliqchilik basseynlari uchun manba sifatida quduq, buloq, soy, kanal, daryo, ko‘l, hovuz bo‘lishi mumkin. Eng muhimi manbada yil davomida suvning mavjudligidir. Bundan tashqari manbada ifloslovchi moddalarning (pestitsidlar, sanoat chiqindilari va boshqalar) bo‘lmasligidir, ya’ni suv sifatlari

bo‘lishi zarur. Eng mahsuldor suv neytral yoki kuchsiz ishqoriy suvdir. Suvning tiniq bo‘lishi muhim, lekin ozgina loyqa bo‘lsa, ham yaroqli hisoblanadi. Ko‘pincha suv zovurlardan keladi (agar u yerda pestitsidlar, xlor, iflosliklar va boshqa zaharli moddalar bo‘lmasa). Suvning ph, harorat kabi ko‘rsatkichlarining mavsumlar bo‘yicha mos kelishi zarur, yetishtiriladigan baliqlar talabiga erigan kislород va karbonat angidrid miqdori mos kelishi kerak. Suvning kislород bilan to‘yinish darajasi 50% dan yuqori bo‘lishi kerak (Proskurenko, 2000; Harris, 1982). Suv manbayida ko‘pchilik baliqlar uchun erigan kislороднинг yetarli miqdori 5 mg/l bo‘ladi (To‘plam..., 1986; Alabaster,Lloyd, 1982), erigan ammiakning miqdori 1 mg/l dan, pH – 5-9 dan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

Kerakli suvning miqdori baliq turiga va uni o‘tqazish zichligiga bog‘liq. Suv erigan kislород miqdorini, ammoniyning minimal darajasini saqlab turish, bug‘lanish va qumga so‘rilish o‘rnini to‘ldirish uchun kerak. Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarida basseynlarda 0,8-3,2 l/sek./m³ suv sarflanadi, uning manbadagi minimal miqdori 1,6 l/sek/m³ qilib belgilangan (Harris, 1982). Basseynlarga bo‘lgan asosiy talablardan biri bu – suv unda o‘rtacha 15-60 daqiqa ichida to‘la almashinishi kerak (Proskurenko, 2000). Shuning uchun basseyn xo‘jaligini loyihalashda yil davomida manbadagi suv zahirasining o‘zgarishini aniq bilish kerak.

Basseyn xo‘jaligini qurish uchun maydoncha topografiyasi. Eng yaxshi maydon tekis yoki 0,5-1% li qiyalik bo‘lishi kerak, lekin 2,5% gacha bo‘lgan qiyaliklarda ham basseynlarni osongina qurish mumkin. Issiq suv baliqlari uchun basseynlarning dengiz sathidan 800 m balandlikda bo‘lishi juda yaxshi hisoblanadi, chunki bunday balandlikda baliqlarning ishtahasi yaxshi bo‘ladi, undan teparoqda esa suv harorati past bo‘ladi va baliq ishtahasi ham pasayadi. Suv manbadan chiqib basseyn orqali gravitatsiya hisobiga yana undan chiqib ketishi juda muhimdir (Heper, Pruginin, 1981).

Betonli basseyn qurish uchun yer maydonining tuprog‘i turg‘un bo‘lsa, ayniqsa, loyli bo‘lsa, yana ham yaxshi. Toshli, tosh-qumli yerlar unchalik yaxshi emas. Ayniqsa, toshli yerkarni qazish qiyin va ular katta harajatni talab qiladi. Yangi basseynlarni qurishda barcha basseynlarga suv uzatishni boshqaruvchi

taqsimlash bog‘lamiga yaxshi e’tibor berish kerak. Ko‘pincha suv taqsimoti va uning sathi taqsimlagich hisobiga saqlab turiladi. Basseynga axlat kirishini oldini olish maqsadida unga ekran, ya’ni filtr (panjara, to‘r) o‘rnatgan yaxshi. Suv olib kiradigan kanalning o‘lchami kerakli suv miqdoriga va mablag‘ga bog‘liq. Basseynga suv kirish va chiqish yo‘llari bir-biriga bog‘liq bo‘lmagani yaxshi (45-rasm).




Kamalakrang forel uchun oqar basseynlar, Toshkent, 2015

Agar manba boqiladigan baliq uchun juda ham loyqa suvga ega bo‘lsa, unda biror-bir mexanik filtr o‘rnatish kerak. Buning uchun suv basseynga kirishdan oldin gravitatsion filtr (tindirgich) hosil qilish samarali hisoblanadi. Suvning tiniqligi Sekki diskni orqali aniqlanadi. Suvning loyqalik darajasini yaroqliligi har xil turlar uchun turlichadir. Masalan, forelga suvning tiniqligi 1 m dan ko‘proq bo‘lishi kerak, karp esa 30-40 sm tiniqlikda ham yashay oladi.

Basseyн shakli ko‘pincha undagi suv almashinuvining samaraliligi bilan aniqlanadi, ya’ni to‘xtab qolgan suvning mavjudligi, berilayotgan suvning to‘liq ishlatilishi, basseynning turli joylarida chiqindilarning cho‘kib qolishi hamda suvning ushbu cho‘kmalarni u yerdan olib chiqib ketish xususiyati unga bog‘liq. Baliqchilik basseynlarini xilma-xilligiga ko‘ra quyidagi tiplarga bo‘linadi: tubi tekis to‘g‘ri burchakli, tubi qiya va axlat olib chiqib ketuvchi tarnovga ega to‘g‘ri

burchakli, dumaloq yoki burchaklari silliq va tubi yassi, tubi konussimon aylana (46-rasm). (Proskurenko, 2000). Basseyн shaklini tanlash undagi cho'kkан chiqindilardan o'z-o'zini tozalash muammosini yechish bilan bog'liq, bunday aralashmalarining ko'payishi va ularning keyinchalik chirishi esa, basseyн ichidagi suvni ifloslantiradi. Tubi tekis to'g'ri burchakli basseynlar o'z-o'zini juda yomon tozalaydi, bularni tozalanishi uchun tubi tekis va suvning oqimi yetarli darajada tez bo'lishi kerak (0,8 m/s dan yuqori). Basseynlarning o'z-o'zini tozalashi baliqlarni yuqori zichlikda yetishtirish imkonini beradi, chunki baliqlarning, ayniqsa, yirik o'lchamdagilarining faol ko'chib yurishi hisobiga hosil bo'ladigan girdobsimon oqim turli chiqindilarning cho'kishini oldini oladi. Lichinka va baliqchalarni yetishtirishda basseynlarning o'z-o'zini tozalash jarayoni sust bo'ladi.

Форма бассейнов



- (а) - Прямоугольные с плоским дном
- (б) - Прямоугольные с наклонным дном и лотком для смыва грязи
- (в) - Круглые практически с плоским дном
- (г) - Круглые с конусным дном

46-rasm. Turli shakldagi baliqchilik basseynlari.

Basseyndan suvning chiqarilishi taqsimlash bog'laming eng javobgar qismi hisoblanadi. Basseyndan baliqlarni chiqib ketishini oldini olish maqsadida suv chiqadigan joyga zanglamaydigan to'rli filtr qo'yiladi. To'rli filtr katakchalari qanchalik kichik bo'lsa, suv chiqadigan joyning tiqilib qolish imkonii shunchalik yuqori bo'ladi (biologik chiqindilar, axlat, o'lgan organizmlar va boshqalar). Kichik basseynlarda to'r qo'lda tozalanadi, kattalarida esa, mexanik tarzda yoki

svuning yuqori bosimi ostidagi oqimi bilan tozalanadi.

Suv aylana tarzda oquvchi basseynlarni odatda 1,8-5 m radiusda quriladi, ammo bundan ham kattaroq qilib qurish mumkin, masalan, 15 m radiusda. Basseynlar chuqurligi 1,2-1,5 m. Afzalliklari: (a) markazdan qochma kuch ta'sirida basseynning o'rtasida to'planadigan turli aralashmalarni chiqarib tashlash oson, (b) svuning yaxshi aralashishi, demak, svuning kislorodga to'yinishi yengil ko'chadi, (v) baliqlar basseyn devoriga o'zini urmaydi (ya'ni hattoki beton baliq tanasi sirtini jarohatlashga olib kelmaydi). Kamchiliklari: yerdan samarasiz foydalanish. To'g'ri burchakli basseynlarda «uzunlik, kenglik» tarzidagi nisbat 5-8:1 bo'lgani ma'qul, chunki bunda svuning to'xtab qoladigan joyi bo'lmaydi. To'g'ri burchakli basseynlarning afzalliklari bu maydondan juda yaxshi foydalanilishidir. Ko'pincha svu bir basseyndan ikkinchisiga oqib o'tadi. Suvni yaxshi aeratsiyasini ta'minlash maqsadida u purkaladi yoki tepadan tushadi. Basseyndagi svu bir soat ichida to'liq almashinishi kerak.

Jahon tajribasida basseynlar 1-150 m³ hajmda quriladi. Tekis tubli basseynlarni qurish oson, lekin unda svu sifati muammosi mavjud. Uning burchaklarida svu to'xtab qoladi va cho'kindilar cho'kib svuni sifatini buzadi hamda basseynning turli qismlarida svuning oqimi turlicha bo'lgani uchun aralashmalarining chiqarilishi samarasiz bo'ladi. Bunday basseynlarda svuning kirish va chiqish dizayniga e'tibor berish zarur. To'g'ri burchakli basseynlarning tubini svuni kirishidan chiqishiga tomon ozgina qiya, ya'ni 2° qilib qurgan yaxshi va bu turli aralashmalarni chiqib ketishini osonlashtiradi.

To'g'ri burchakli basseynlar tubini konus shaklida ham qurish mumkin, bunda devorlar o'rtasidagi burchak pastda 55-60° va markaziy qismi filtr bilan to'silgan bo'ladi. Aralashmalar pastga cho'kib devor bo'ylab svuning tubiga oqib boradi va svu bilan chiqib ketadi. Kichik basseynlardagi baliqlar oson ovlanadi, agar katta basseynlardagi baliqlarning bir qismi ovlansa, svuda qolgan boshqalari uchun bu stress bo'lishi mumkin va ular bir necha kun oziqlanishdan to'xtaydi.

Basseyn chuqurligi muhim masala sanaladi. Odatda basseyn eni va chuqurligining nisbati 2-4:1 bo'ladi. Mana shunda basseyndagi svuning oqimi yuqori tezlikda bo'ladi. Agar basseynda baliq zichligi yuqori bo'lsa, turli

chiqindilar va yeyilmay qolgan yem qoldiqlarining cho'kma shaklida suv tubiga cho'kishiga xalaqit beradi (baliqlarning suv tubida doimiy harakati tufayli) va ularning suv oqimi bilan chiqib ketishi osonlashadi. Lekin suvning kirish qismidan chiqish qismiga qarab sifati yomonlashadi, xususan, erigan kislorod miqdori kamayadi.

Cho'ziq shakldagi ovalsimon basseynlar o'tkir burchakka ega emas. Ularda yer maydonidan foydalanish samarasi kamroq, lekin basseynning burchaklarida suv to'xtab qolmaydi va bu suvning sifatini oshiradi. Bunda suvdan ratsional foydalaniladi, chunki suv kirishdan boshlab chiqishgacha bo'lgan masofani to'liq bosib o'tadi. Basseynning o'lchami maydonning o'lchami va kiradigan suvning kuchiga bog'liq. Odatda 10-100 m² maydonli basseynlar quriladi, uning uzunligi 5-10 m, eni – 2-5 m, ya'ni uzunligining eniga nisbati 2:1 nisbatda bo'ladi. Chuqurligi 1-2 m bo'lib, suv kirishdan chiqishga qarab qiya bo'lishi kerak. Basseyn binosi suvni tutib tura oladigan mustahkam bo'lishi kerak. Uning ichki yuzasi suvga zaharli moddalarni ajratmasligi va baliqni jarohatlamaslik uchun tekis bo'lishi kerak. Basseyn ekspluatatsiya vaqtida o'z-o'zini tozalashi va kasallik keltiruvchi bakteriyalarni kirishiga imkoniyat bermasligi kerak. U yana tozalash va sterillash ishlari olib borilishi uchun qulay bo'lishi kerak. Basseyn binosini qurish uchun yuqorida sharoitlarni bajaruvchi turli qurilish materiallaridan foydalaniladi.

Beton –suv bilan yaxshi chiqishadi, uning mustahkamligi suvda ortadi. Betonli basseynlarning o'lchami deyarli cheklanmagan. Betonli basseynlarni tayyorlashda bir necha talablar mavjud:

1. gidroqurilmalar uchun ishlab chiqilgan sementdan foydalanish;
2. basseynning yuzasi tekis bo'lishiga va devori suv o'tkazmasligiga kafolat beruvchi, betonni o'rash va tayyorlash texnologiyasidan foydalanish;
3. agar beton suv o'tkazmasligiga kafolat bo'lmasa, unda basseyn ichki yuzasi suv o'tkazmaydigan material bilan qoplanishi (epoksid bo'yoqlar, polimerlarni to'ldirish) yoki suv o'tkazmaydigan qoplag'ich bilan yopish kerak (sintetik suv o'tkazmaydigan qoplama).

Metall materialini yopishtirib, undan keng foydalaniladi. Zanglamaydigan po'latlar yaxshi; chekllov – zanglamaydigan po'latning qora metallardan

qimmatligi. Qora metallarni tozalash, gruntlash va doimo suv yuqtirmaydigan bo‘yoqlar bilan yaxshilab bo‘yash talab etiladi. Epoksid bo‘yoqlar va oziq-ovqat sanoatida qo‘llaniladigan bo‘yoqlar yaroqli sanaladi. Metalldan yasalgan basseynlarning o‘lchami nazariy jihatdan cheklanmagan.

Shisha plastiklar so‘nggi paytlarda keng tarqalmoqda. 5 m^3 hajmdagi unchalik katta bo‘lmagan basseynlar matritsasi shisha to‘qimali va epoksid smolali qavat surtish orqali tayyorlanadi. Uning ichki yuzasi turli rangdagi epoksid bo‘yoqlar bilan bo‘yalmoqda. Basseyn tuzilmasi uning tanasiga yopishtiriladi yoki alohida tayyorlanadi. Yirikroq basseynlar ($5-10\text{ m}^3$) kattaroq qismlardan yig‘iladi va bunda yumshoq rezinali to‘sama orqali tamba bilan biriktiriladi. Basseynni yig‘ishda ishlatiladigan qismlar yetarli darajada qattiq bo‘lmasa, unda bunday basseynning ishonarliligi yuqori bo‘lmaydi va uning hajmi 10 m^3 bilan cheklanadi. Yuqori qattiqlikka ega qismlardan foydalanish orqali basseynlarning ishonarliligi va hajmi oshiriladi.

Egiluvchan plenkalar. Zamonaviy texnologiyalar yorilishga yuqori darajada chidamli egiluvchan plenkalar tayyorlash imkonini bermoqda, ular yordamida esa qattiq qurilmalar qoplanmoqda.

Basseynlarni joylashtirish. Basseyn qurilmasi va materialidan kelib chiqib ularni o‘rnatish usuli tanlanadi. Monolit basseynlar tayanchi yer bo‘lib, uning ustiga tubi bilan bazan devori bilan suyanadi. Yirik betonli va metalli basseynlar asosga ega tayanchga o‘rnatiladi. Uncha katta bo‘lmagan plastikli va metall basseynlar mahsus asosga ega bo‘lmagan joyga, o‘z tayanchiga yoki mahsus tayyorlangan taglikka o‘rnatiladi. Uncha katta bo‘lmagan shisha plastikli basseynlarni yumshoq yerga ko‘mish ham mumkin va bu tuzilmaga sarflanadigan harajatlarni qisqartiradi.

Oqar basseynlarning aeratsiyasi. Agar suv almashinuvi yaxshi bo‘lsa (soatiga 1-4 marta) va mahsuldorlikni $40-50\text{ kg/m}^3$ gacha rejalashtirayotgan bo‘lsa, unda ko‘pchilik baliq turlari uchun suvni qo‘sishimcha aeratsiya qilish kerak emas. Unda erigan kislород kirayotgan suvdagi miqdori bilan belgilanadi. Agar kislород yetishmovchiligi yuz bersa, turli aeratorlardan foydalaniladi. O‘tqaziladigan baliq zichligi $40-50\text{ kg/m}^3$ dan ortiq bo‘lsa, agarki yangi suv jadal tarzda basseynga kirib

turgan bo'lsa ham, kislorod yetishmovchiligi yuz beradi. Bunday holatlarda basseynga suvni aeratsiya qiluvchi moslama o'rnatiladi. Aeratsiya tufayli baliq mahsuldorligini 70-80 kg/m³ gacha ko'tarish mumkin.

Yopiq suv ta'minotli qurilma

Oqar basseynlarda suvning harorati (demak baliq o'sishi ham) geografik joylashuvga, xususan, iqlim sharoitiga bog'liq va bu bog'liqlik mo'tadil mintaqada yil davomida kuchli tarzda o'zgarib turadi. O'zbekiston daryo va kanallarida issiq suv baliqlarining o'sishi uchun iyul va avgust oylaridan tashqari sharoit umuman bo'lmasligi mumkin. Ushbu oylarda esa, suvning harorati 20-22°S dan ortadi va bu hovuz baliqchiligini yuritishni keskin cheklab qo'yadi. Agar suv optimal haroratda bo'lsa, baliq lichinkalarini 7-8 oy davomida tovar holatigacha yetkazish mumkin. Mo'tadil mintaqada bu faqat suvning haroratini sun'iy boshqarish (isitish) orqali amalga oshiriladi. Buni yopiq sharoitda qilgan yaxshi, lekin suvni doimiy tarzda isitib turish to'g'ri emas (basseyndan chiqayotgan suv hali issiq bo'ladi, ya'ni suvni isitish uchun sarflangan energiyaning katta qismi to'liq ishlatilmaydi). Muhandislik ishlari boshqa narsani taklif qildi. Basseyndan chiqayotgan suvni chiqindilardan tozalab yana uni qaytadan basseynga qaytarish, ya'ni suvni majburiy tarzda qayta aylanishini ta'minlash. Xalqaro tajribada bunday tizimlar akvakulturaning resirkulyatsion tizimi sifatida ma'lum (RAS-recirculating aquaculture system), rus tilidagi adabiyotlarda YoSTQ qisqartmasi ishlatiladi (yopiq suv ta'minotli qurilma). Biz ham aynan ana shu iborani ishlatamiz (aslida inglizcha variant, bizning fikrimizcha qulayroq sanaladi).

YOSTQ basseyni oqar basseynga o'xshash, faqat bunda baliq turi qulay sharoitli suvga ega bo'ladi. Ushbu tizimda ham suvning basseyndagi to'liq almashinuvi bir soatda 1-4 marta sodir bo'ladi.

YOSTQ ning cheklovlari. YOSTQ uchun doimiy energiya manbai kerak, xususan, favqulodda holatlar (dizel – generator) uchun ham. YOSTQ ni tashkil qilish uchun katta miqdordagi dastlabki mablag' talab qilinadi. Har bir YOSTQ – bu mustaqil loyihadir, uni tiklash, hisoblash, yaratish va tatbiq etish kerak hamda YOSTQ ni ko'paytirish oson emas. Agar yopiq binoda 100 tonna baliq uchun

YOSTQ qurilsa, keyingi 100 tonna uchun yangi YOSTQ tiklash va yangi bino qurish kerak. YOSTQ bu – yuqori texnologik tizim bo‘lib, murakkab muhandislik va biologik kompleksni o‘zida namoyon qiladi hamda u mahsus tayyorgarlik ko‘rgan mutaxassislar va mahsus ishlab chiqilgan texnologiyalarni talab qiladi.

YOSTQ ning ustunliklari. YOSTQ uchun yer maydoni va suv minimal miqdorda talab qilinadi. YOSTQ nafaqat ob-havoga, balki ma’lum darajada yuzadagi oqimga ham bog‘liq emas va bu uni Orol dengizi havzasi uchun ko‘proq jalg qiladi. YOSTQ daryo yoki irrigatsion tizimlar bilan bog‘lanmagan bo‘ladi. Butun tizimni suv bilan to‘ldirish yetarli bo‘ladi, keyinchalik esa, bug‘lanish va sachrash natijasida yo‘qolgan suvning o‘rni qoplanadi, xolos. YOSTQ uchun devorli yer osti quduq suvidan foydalanish mumkin. Ya’ni ushbu qurilmani infrastruktura yaxshi rivojlangan qulay joylarga, masalan, maishiy bozorga, baliqchini uyiga yoki yo‘lga yaqin joylarga qurgan yaxshi. YOSTQ da ko‘pincha yetishtiriladigan obyektni tanlashda uning qaysi geografik mintaqadanligiga e’tibor berilmaydi. Agar uskunalar ijozat bersa butunlay boshqa iqlim mintaqasiga tegishli obyektlarni, masalan, tropik baliqlarni ham yetishtirish mumkin. Shuni qayd etish kerakki, chuchuk suv va dengiz baliqlari uchun, issiq suvli va sovuq suvli baliqlar uchun YOSTQ ning muhandislik ishlari bo‘yicha farqlari mavjud. Agar qurilayotgan uskunalar ijozat bersa va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lsa, ichki suv havzalarida ham dengiz baliqlarini yetishtirsa bo‘ladi. YOSTQ ishlab chiqarishning eng tez (mavsumiy iqlimli sharoitda) sikli bo‘lib, ko‘p obyektlarning ikki yilda bitta avlodini emas, balki bir yilda ikkita avlodini yetishtirish mumkin.

YOSTQ ga umumiyl talablar

YOSTQ da baliqlar faqat intensiv usulda yetishtirilib, mahsuldorlik 40-1000 kg/m³ atrofida bo‘ladi. Hozirgi paytda kislород yetishmovchiligidagi chidamli bo‘lgan afrika laqqasi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlarga erishildi. YOSTQ da suvning sifati sun’iy tarzda saqlab turiladi va qurilmaning ishlashi uchun doimiy ravishda yetarli miqdordagi elektr energiyasi zarur bo‘ladi. Baliqlarning hayotiy jarayonlari ta’sirida basseyndagi suv ifloslanadi va u suv so‘rg‘ichlar yordamida filtr tizimiga tozalash uchun yuboriladi. Bunda bug‘lanish, sachrash va qurilma tizimining ishlashi tufayli suvning miqdori ma’lum darajada kamayib turadi. Uning

o‘rni esa, kam miqdordagi yangi suv qo‘shish bilan qoplanib turadi.

YOSTQ ning ko‘rinishi turlicha bo‘lishi mumkin va uni loyihalash kompleks sabablar asosida ya’ni moliyalash hajmi, baliq turi, kutilayotgan daromad va boshqalar asosida amalga oshiriladi. Biror-bir YOSTQ modulini qo‘lga kiritish mumkin yoki o‘z YOSTQ sini yaratish mumkin. Suvning sifatiga qo‘yiladigan talab sharoitga bog‘liq va bu sharoit baliqlar uchun ham, biofiltr ishini belgilab beruvchi bakteriyalar faoliyati uchun ham zarur. Suvning sifatini ko‘rsatuvchi kattaliklarga suvning harorati, erigan kislorod miqdori, karbonat angidrid, ammoniy ioni, nitritlar, chiqindi miqdori va boshqalar kiradi.

YOSTQ da suvni chiqindilardan tozalash

YOSTQ – yopiq tizim bo‘lib, unga yuza oqimdan chiqindilarning kelib tushishi mumkin emas va u yerdagi chiqindining manbayi baliqlarga beriladigan yem qoldig‘i va baliqlar hayot faoliyatida hosil bo‘lgan mahsulotlar sanaladi. Chiqindilar suvning sifatiga bevosita ta’sir qiladi. Bakteriyalar parchalash uchun kislorod sarflaydi va ammoniyli azot hosil bo‘ladi, u o‘z navbatida nitritlarga aylanadi. Bu ikkala mahsulot baliqlar uchun zaharli hisoblanadi. Agar yem qoldig‘i va baliqlar chiqindisi suvda qoldirilsa, unda suvning sifati pasayadi va bu dastlab baliqlar o‘sishini sekinlashtiradi, keyin esa ularning sog‘ligi yomonlashadi va o‘limga olib keladi. Yuqorida ko‘rib o‘tilganlar shuni ko‘rsatadiki YOSTQ da sifatli yemlarning ishlatilishi muhimdir. Yemning sifati qanchalik yuqori bo‘lsa, suv shuncha kam ifloslanadi. Hovuz baliqchiligidagi ishlatilayotgan an’anaviy omixta yemlarning ozuqa koeffitsienti zo‘r bo‘lganda 4-5 ga teng bo‘ladi. Ya’ni hovuzga 4-5 kg yem kiritilsa, baliqlar 1 kg ga o‘sadi. Tana vazniga qo‘shilgan ozuqadan qolgani suvni ifoslantiruvchi chiqindiga aylanadi. Zamonaviy to‘yintirilgan yemlarning ozuqa koeffitsienti deyarli 1 ga teng, ya’ni hovuzga kiritilgan 1 kg yem hisobiga baliqlar og‘irligi 1 kg ga ortadi.

YOSTQ ning asosiy ustunligi baliqlantirish zichligini orttirish va ularni o‘sishini tezlashtirish. Baliqlar biomassasini oshirish mos ravishda hosil bo‘ladigan chiqindilarning ortishiga olib keladi. Shundan kelib chiqib YOSTQ ga bo‘ladigan talab: chiqindilar basseyndan iloji boricha tezroq chiqarib tashlanishi kerak. Ular tizimda qancha ko‘p turib qolsa, ularning o‘lchami shuncha kichik bo‘ladi, chunki

yirik bo‘laklar suv so‘rg‘ichlar, filtrlar va quvurlarning qayrilishida maydalanadi. Kichikroq bo‘laklarni chiqarib tashlash esa, ancha mushkul. YOSTQ da qolgan chiqindilar chirishi natijasida kislorod sarflanadi, ammoniy va karbonat angidrid hosil bo‘ladi, ya’ni butun tizimga salbiy ta’sir ko‘rsatish davom etadi. Bunda chiqindilarning parchalanish jarayoni birgalikda ta’sir etish xususiyatiga egadir. YOSTQ dagi chiqindilar parchalanib baliqlar va atrof-muhitga xavf solish darajasiga yetguncha ularni chiqarib tashlash kerak.

Ifloslanish tizimi. Ifloslanishni uchta turga bo‘linadi: (a) cho‘kindilar, (b) muallaq chiqindilar, (v) eritma ko‘rinishida. Ushbu turli iflosliklar YOSTQ ning turli bo‘g‘imlarida tozalanadi. Umumiy tarzda cho‘kindilar mexanik filtr yordamida, muallaq chiqindilar kimyoviy usulda, eritma ko‘rinishidagilar biologik yo‘l bilan tozalanadi (chuchuk suvli YOSTQ da odatda kimyoviy filtrlar qo‘llanilmaydi, ularning funksiyasini biofiltrlar bajaradi).

Mexanik filtrlar. Cho‘kindi ko‘rinishidagi chiqindilar va muallaq chiqindilar o‘lchami bo‘yicha eng yirik bo‘lib, suvda cho‘kishi yoki muallaq holatda bo‘lishi mumkin. YOSTQ da suv muallaq chiqindilardan mexanik filtrlarning biri yordamida tozalanadi: ya’ni (a) gravitatsion, (b) ekranli va unga yaqin bo‘lgan (v) substratli filtr yordamida.

Gravitatsion filtrlar (tindirgich) suv va chiqindilarning zichligi o‘rtasidagi farqqa asoslangan. Chiqindining zichligi qanchalik katta bo‘lsa, uning cho‘kishi shuncha tez sodir bo‘ladi. Cho‘kayotgan chiqindilarning og‘irlik kuchi 1,19 atrofida bo‘ladi. Bunda solishtirma og‘irlikning suv bilan farqi 0,19 bo‘lganda cho‘kish sodir bo‘ladi. Oqmas yoki sekin oquvchi suvda chiqindilar suv tubiga cho‘kadi. Tizimda mahsus suv havzasi (tindirgich) tashkil qilish mumkin va unda suv 15-60 daqiqa tursa kifoya, natijada chiqindilar suv tubiga cho‘kadi (loyihalashda 15-20 daqiqani hisobga olinadi, ya’ni tindirgichda 100 mikrondan yirik chiqindilar cho‘kmaga tushishi uchun). Tindirgichlarni qurish oson, chunki u yerda harakatlanadigan obyekt bo‘lmaydi, lekin u yerni cho‘kindilardan doimiy ravishda tozalab turish kerak. Agar tindirgich tashqi bo‘lsa, ya’ni u baliq boqiladigan basseyndan alohida mahsus havza bo‘lsa, uni tozalash, ayniqsa, mahsus qurilma yordamida oson bo‘ladi. Tindirgichlarda nisbatan yirik o‘lchamlar,


bundan tashqari chiqindilar suv tubiga cho‘kadi, lekin ular baribir tizimda qoladi va suvning sifatini buzadi. Shuning uchun cho‘kkan chiqindilarni suv tubidan olib tashlash imkoniyatini ko‘rib chiqish kerak. Buning uchun tindirgichda V-simon tub hosil qilish mumkin. O‘shanda chiqindilar markazga yig‘iladi va u yerdan cho‘kindilarni suv oqimi, suv so‘rg‘ich yoki sifon bilan chiqarib tashlash mumkin. YOSTQ ning samarali ishlashi uchun tizimning va tindirgichning o‘lchamlari hamda cho‘kindini chiqaruvchi suv so‘rg‘ichining kuchi mos bo‘lishi zarur. Tindirgich hajmi YOSTQ dagi umumiyligi suv hajmining eng kamida 15% ini tashkil etishi kerak va o‘shanda u orqali o‘tgan suvda chiqindilar cho‘kishga ulguradi va suv yaroqlilik holatiga yetguncha tiniqlashadi.

Ecranli filtrlar ifloslangan suvning mayda teshikli material orqali o‘tkazishga asoslangan va u filtrlovchi ekran bo‘lib xizmat qiladi. Suv teshiklar orqali o‘tadi, teshik diametridan o‘lchami yirik chiqindi bo‘laklari esa o‘tmaydi. Ekran teshik diametriga mos chiqindilarni ushlab qoladi. Ekran doimiy ravishda tutilib qolingga chiqindi bo‘laklaridan tozalanib turilishi kerak. Turli tizimlarda bu har xil usullar yordamida amalga oshiriladi. Har bir filtrning o‘z ustunligi va kamchiliklari mavjud.


Eng oddiy qurilma – bu statsionar ekranli filtr bo‘lib, unda ekran romga yopishtirilib, suv o‘tadigan joyning ko‘ndalang kesimiga o‘rnataladi, masalan, tindirgichning chiqishiga. Ammo bunday filtr tez ifloslanadi (chiqindilar teshiklarga tiqilib qoladi). Ekran samarali ishlashi uchun uni tez-tez tozalab turish kerak va bu ishchi kuchini ortiqcha sarflanishiga olib keladi. Shuning uchun bunday bir romli statsionar filtrlar YOSTQ larda ishlatilmaydi. Ecranli filtrlarni takomillashtirish maqsadida tozalanayotgan suv bilan to‘qnashuvchi ekran maydonini kattalashtirish va ifloslangan ekranni tozalab turish ustida ish olib borilmoqda.

Ecranli filtrlarning gravitatsion filtrlardan ustunligi: kichik o‘lchamlilik va nisbatan kam suv sarfi (faqat suvning teskari oqimi vaqtida yuvish uchun). Asosiy kamchiligi: ishlab chiqarish filtrlari ayniqsa kichik o‘lchamlilari yetarli darajada qimmat narxda bo‘ladi. Ecranlar yana barabanlarga, disklarga yopishtiriladi va qiya kamar ko‘rinishida joylanadi, shundan kelib chiqib disksimon, barabanli,


kamarli filtrlar farq qilinadi (47-rasm). Ekranlarning o‘zi chiqindilardan mexanik usulda tozalanadi yoki suvning teskari oqimi bilan yuviladi. Hozirgi paytda ushbu maqsad uchun mahsus suvyutgichlari ishlab chiqilmoqda.



Барабанный фильтр (вид сбоку)



Дисковый фильтр (вид сверху)



Ременный фильтр (вид сбоку)

- 1 - загрязненная вода из системы;
- 2 - очищенная вода в систему;
- 3 - вода обратного тока для очистки фильтра;
- 4 - отвод воды с взвесями после промывки фильтра;
- 5 - двигатель.

47-rasm. Ekranli mexanik filtrlar chizmasi.

Granulalangan substratli filtrlar. Ifloslangan suv mayda granulali substrat qatlami bo‘ylab o‘tkaziladi (qum, shag‘al, plastmassali granulalar va hokazo). Chiqindilar yoki substratga yopishib qoladi yoki granulalar oralig‘ida ushlanib qoladi. Filtr ifloslanib (tiqilib) borgan sari yoki almashtiriladi yoki yuvib tashlanadi. Yuvib tashlash uchun substrat qatlamingin hajmi kattalashtiriladi va granulalar siljtiladi. Yuvish filtr tashqarisida yoki suvning teskari oqimi bilan filtrning ishi to‘xtatilmagan holda amalga oshiriladi. Dastlabki paytlarda substrat sifatida qum ishlatilgan, lekin doimiy ishlab turuvchi YOSTQ uchun bunday substrat tejamsiz ekanligi oydinlashdi. Keyinchalik 3-5 mm o‘lchamli plastmassali granulalar ishlatila boshlandi.

Biologik filtrlar. Tiriklikning barcha shakllari tarkibiga kiruvchi azot hamma oqsil birikmalarida uchraydi, masalan, baliq yemida ham. Oqsil molekulasi

organizmda hazm bo‘lganda ham yoki suvda qolgan yemdagи oqsilning chirishi natijasida ham ammoniy hosil bo‘ladi. Ya’ni ammoniy baliq basseynlariga ikki xil yo‘l bilan kelib tushadi. Baliqlarning jabrasi va fekaliysidan yuvilib tushadi yoki saprofit-bakteriyalarning ortib qolgan yemni parchalashidan hosil bo‘ladi.

Ammoniy suvda bir-biriga aylanib turuvchi ikki xil shaklda bo‘lishi mumkin: ionlashgan va ionlashmagan. Ionlashgan shakli – ammoniy ioni (NH_4^+) bo‘lib, baliqlar uchun zaharli emas, ionlashmagan shakli – ammiak (NH_3) zaharli hisoblanadi. Umumiy ammoniyli azot tarkibidagi ammiakning miqdori pH ga, suvning haroratiga bog‘liq. Akvakulturada «ammoniyli azotning umumiy miqdori» (TAN – the Total Ammonia Nitrogen) atamasi ishlatiladi, ya’ni ionlashgan va ionlashmagan shakllarning yig‘indisi. Baliqlarga berilayotgan yem miqdoridan kelib chiqib ajraladigan ammoniy hajmi haqida xulosa qilinadi, ya’ni ammoniy miqdori kiritiladigan umumiy yem miqdorining 3% ga teng bo‘ladi.

Nitritlar. Ammoniy azot siklida nitritlargacha oksidlanadi. Me’yorda suv havzalarida nitritlar katta miqdorda uchramaydi, chunki u yerdagi nitrifikatsiyalovchi *Nitrosomonas* bakteriyalari ammoniyni o‘zlarining moddalar almashinuvida nitritgacha oksidlaydi. Nitritlar ham baliqlar uchun zaharli hisoblanadi.

Nitratlar. O‘z navbatida *Nitrobacter* bakteriyalari suv havzalarida nitritlarni energiya manbai sifatida parchalab nitratlarga aylantiradi. Nitratlar esa akvakultura uchun muammo tug‘dirmaydi, ya’ni ular baliqlar uchun zaharli emas. Tadqiqotlardan ma’lumki, suv organizmlari nitratlarning katta miqdoriga ham (200 mg/l dan ham yuqori) chidamlidir. Aerob bakteriyalar esa, suv havzalaridagi nitratlarni o‘z metabolizmida azotgacha aylantiradi va u atmosferaga chiqib ketadi.

YOSTQ da shunday sharoit hosil qilinadiki, suvdagi *Nitrosomonas* va *Nitrobacter* bakteriyalari ammoniy va nitritlarni nitrat hamda azotgacha parchalaydi. Bunday yondashuv biologik filtrlash nomini olgan. YOSTQ da nitritlar konsentratsiyasi uzoq vaqt mobaynida 0,1 mg/l dan ortiq bo‘lmasligi, juda bo‘lmaganda 0,2 mg/l dan kam bo‘lishi kerak. Nitrifikatsiyalovchi bakteriyalar uchun qulay sharoitni yaratish maqsadida bakteriyalar yashay oladigan va koloniya hosil qiladigan substrat hosil qilish kerak. Ammoniy va nitritlarni utilizatsiya

tezligi ularning suvdagi miqdoriga, erigan kislorod darajasiga, suvning haroratiga va koloniya hosil qilish uchun sustrat maydoniga, substrat orqali o‘tadigan suvning oqim tezligiga bog‘liq. Basseynda qancha baliq ko‘p bo‘lsa, shuncha ko‘p yem beriladi va shuncha ko‘p ammoniy hosil bo‘ladi, suvni tozalash uchun esa, shuncha ko‘p bakteriya kerak bo‘ladi. Buning uchun esa, nitrifikatsiyalovchi bakteriya koloniyasini hosil qilish maqsadida katta maydondagi substrat bilan ta’minlash kerak bo‘ladi. YOSTQ ni dizayni va chizmasida kerakli substrat maydonini ajratishga e’tibor berish kerak bo‘ladi. Buni yaxshisi ekspertlarga topshirgan ma’qul. Nitrifikatsiyalovchi bakteriya koloniyasini hosil qilishga kerak bo‘ladigan substrat maydoni uning sifatiga va u esa, plastmassadan yasalgan turli buyumlarga bog‘liq. Substrat sifatining muhim ko‘rsatkichi bu koloniya hosil qilinadigan maydonning (m^2) substratning egallagan hajm birligiga (m^3) nisbati bilan hisoblanadi. Biofiltr substrati $\langle m^2/m^3 \rangle$ orqali o‘lchanadigan kattalik bilan tavsiflanadi. Agar substrat kattaligi $200\ m^2/m^3$ qilib ko‘rsatilsa, bu shuni bildiradiki, substrat egallagan bir metr kubda bakteriya koloniyasi hosil qilish uchun $200\ m^2$ yuza kerak bo‘ladi degani. Substratning yana bir ko‘rsatkichi uning nitrifikatsiyalash xususiyati, ya’ni ushbu substratning $1\ m^3$ da yashaydigan bakteriya koloniyasi tomonidan bir kunda utilizatsiya qilinadigan ($g/m^3/kun$) azot miqdori (grammlarda) hisoblanadi.

Bakteriyalar koloniya bo‘lib yashaydi va bioplenka ko‘rinishiga ega bo‘ladi. Bioplenkaning optimal qalinlikda bo‘lishi uchun sharoit zarur, ya’ni bir tomondan suvning oqimi qalin bioplenkaning bir qismini yulib olishi va koloniya o‘lchamini kamaytirishi mumkin, ikkinchi tomondan esa bakteriyalar tez o‘sib ularning koloniyasi substratga tiqilib qolishi mumkin va bu suvning oqimini to‘xtatib qo‘yishiga hamda biofiltrning nitrifikatsiyalash xususiyatini pasayishiga olib kelishi mumkin.

Turli tipdagи biofiltrlar ishlab chiqilgan va bu jarayon yana davom etmoqda. Dunyo amaliyotidagi biofiltrlar xilma-xilligini bir necha tiplarga ajratgan holda tizimlashtirish mumkin. Har bir tipning o‘z ustunligi va cheklovleri mavjud.

Kengayuvchi substratli filtrlar (Expandable media filters) – ikkita ekran o‘rtasidagi reaktorda granulali qavat suzib yuradi va u orqali ifloslangan suv o‘tadi.

Granula yuzasi bioplenka uchun substrat bo‘ladi. Bunday filtdagi plastikli shariklar $1150-1475 \text{ m}^2 / \text{m}^3$ gacha ko‘rsatkichga ega bo‘ladi. Nitrifikatsiyalash qobiliyati $300-330 \text{ g/m}^3/\text{kunga teng}$. Ya’ni bunday substrat bir kunda m^3 substratga 13 kg yem kiritilganda suvni tozalash xususiyatiga ega (eslatib o‘tamiz: umumiy kiritilgan yem massasidan 3% ammoniy ajraladi). Bu juda samarali biofiltr bo‘lib, kam joyni egallaydi, lekin qimmat turadi (48-rasm).


Aylanuvchi biologik filtrlar (Rotating biological contactors) – substrat o‘q atrofida aylanuvchi barabanga joylashtiriladi, o‘q esa, suv yuzasida joylashgan, ya’ni barabanning (va substratning) bir qismi suvga botgan (40% atrofida), bir qismi esa, havoda joylashgan. Baraban doimo aylanadi va substrat ham u bilan birga aylanadi, ya’ni bir suvga botadi bir havoga chiqadi. Buning oqibatida havoda baliqlar va bakteriyalar tomonidan hosil qilingan karbonat angidrid gazi kislorod bilan almashinadi, bu esa, bakteriyalar ishi uchun zarur. Zamonaviy biofiltrlarning substrat ko‘rsatkichi $150-200 \text{ m}^2/\text{m}^3$, nitrifikatsiyalash tezligi umumiy azotning $60-80 \text{ g/m}^3 / \text{kunga teng}$.

Soxta yondiruvchi (oquvchi, qavatli) filtr (Fluidizedbed filters) – cho‘ktirilgan, qisman mayda granulalangan substrat bilan to‘ldirilgan silindr yoki bak (bunday tipdagi biofiltrda qum ishlatiladi). Ushbu biofiltrning ishi ikkita fazadan iborat. Substrat filtratsiyasi va yuvilishi. Filtrlash paytida suv oqimi shunday boshqariladiki, bunda substratning kengayishi 50% dan ortib ketmasligi kerak. Suv qum qavati bo‘ylab shunday o‘tkaziladiki, bunda uning tezligi va miqdori ushbu qavatni ko‘tarish va kengaytirish uchun yetarli bo‘lishi kerak (qumning o‘ziga xos oquvchanligi paydo bo‘ladi), ya’ni qum parchalari erkin harakat qila olishligi, aniqrog‘i bir-biriga tegmasligi kerak. O‘tkazilayotgan suv oqimi filtr korpusidan qumni ko‘tarib chiqarib yubormasligi uchun o‘ta darajada kuchli bo‘lmasligi kerak. Qachonki, bioplenka filtrni tiqiltirib qo‘yishni boshlasa, ikkinchi faza, ya’ni yuvib tashlash boshlanadi, ya’ni suv oqimi kuchaytiriladi va qum zarrachalari reaktordan chiqarib tashlanadi. Qum yuvib tozalanadi yoki almashtiriladi. Biofiltr $12000-20000 \text{ m}^2/\text{m}^3$ ko‘rsatkichga ega, nitrifikatsiyalash imkoniyati $600-1200 \text{ g/m}^3$ bo‘lishi mumkin. Ammo, bunday filtr uchun katta miqdordagi energiya zarur bo‘ladi. Qumli filtr, aylanuvchi filtrlardan farqli

ravishda, havodagi kislorod bilan to‘yinmaydi, shuning uchun bunga kislorod miqdori ko‘p bo‘lgan suv zarur bo‘ladi. Buning uchun esa, aeratsiya yoki oksigenatsiyadan foydalanish mumkin.

Aralashtiruvchi filtrlar (Mixedbed reactors) – chizmasi soxta yondiruvchi filtrnikiga o‘xshash, faqat substrat sifatida doimiy tarzda aralashib turuvchi plastikli granulalar ishlataladi. Plastikli granulalar diametri qumchalardan ancha yirik bo‘ladi, shuning uchun substrat maydoni ancha kichik ($800\text{-}1150 \text{ m}^2/\text{m}^3$) bo‘ladi. Shariklar odatda neytral suzuvchanlikka ega yoki suvdan ozgina og‘irroq bo‘ladi. Ular mexanik yoki gidravlik moslashish hisobiga aralashadi. Chunki granulalar doimiy tarzda harakat qiladi, natijada filtr tinqilib qolmaydi. Ularning nitrifikatsiyalash imkoniyati $16\text{-}23 \text{ kg yem/kun/m}^3$ substrat darajasida belgilanadi.

Cho‘ktirilgan biofiltrlar (Submerged filters) – substrat bilan to‘ldirilgan reaktor orqali suv o‘tkaziladi, ya’ni substrat butunlay suvgaga cho‘ktirilgan bo‘ladi. Zamonaviy cho‘ktirilgan filtrlar samarali bo‘lib, suv kam yo‘qotiladi, konstruksiyasi oson va ishlatalishi qulay. Bu suv bilan to‘ldirilgan basseyn bo‘lib, u orqali suv tozalash uchun o‘tkaziladi. Substrat filtri bo‘ylab o‘tadigan yo‘l uzoqroq bo‘lishi kerak, shuning uchun uzun to‘g‘ri burchakli basseyn qurgan ma’qul. Bakteriyalar rivojlanishi, suv aylanishi va uning butun reaktor bo‘ylab aylanishini boshqarish uchun aeratsiyadan foydalangan ma’qul. Aeratsiya suvning butun substrat bo‘ylab faol aralashishi uchun, filtr tanasining butun hajmi suvning harakatiga yo‘liishi uchun turbulentlikni hosil qilishga yetarli bo‘lishi kerak. Ushbu biofiltr ko‘rsatkichlari quyida ko‘riladigan tomchili filtr tipining ko‘rsatkichlariga yaqin.



1 - загрязненная вода из бассейна, 2 - очищенная вода в систему, 3 - субстрат

48-rasm. Turli tipdagi biofiltrlar.

Tomchili (sug'oriladigan) filtrlar (Trickling filters). Yuqori reaktorli (adabiyotlarda minorali), substrat bilan to'ldirilgan keng teshik-bo'shliqli. Suv biofiltr tepasidan reaktorning butun kesimi bo'ylab puxtalik bilan sepiladi va bo'shliqlar bo'ylab substrat orqali pastga oqib tushadi. Substrat harakatsiz bo'lib, bakteriyalar bo'shliqlardagi nam zonalarda o'sadi. Substrat nisbatan kam yuzaga ega. Uning ko'rsatkichi $300 \text{ m}^2/\text{m}^3$ dan kam, ko'pincha $120-150 \text{ m}^2/\text{m}^3$ bo'ladi. Tomchili filtrda odatda nitrifikatsiyalash tezligi yuqori emas va $90 \text{ g TAN}/\text{m}^3/\text{kunga}$ teng. Substrat ko'rsatkichi: $3,6-4 \text{ kg yem/kun}/\text{m}^3$ substrat. Bunday biofiltr oddiy, amaliyotda qo'llash qulay. Tomchili biofiltr oson ko'paytiriladi (o'lchamlari o'sib boradi), uni $15 \text{ litr/daqiqadan}$ o'nlab tonna/daqiqagacha hajmda tayyorlash mumkin. U suvning turli darajadagi ifloslanishlarida samarali ishlaydi, chiqindilarni yaxshi ushlab qoladi. Lekin bunday filtr nisbatan katta o'lchamli bo'ladi, substrati nisbatan qimmat, sifatli suv tortgichni talab qiladi (suvni yuqoriga tortib berish uchun).

Kimyoviy filtrlash. Mexanik va biologik filtrlar tizimdagi cho'kadigan (o'lchami bo'yicha yirik) chiqindilarni, moddalar almashinuvidan hosil bo'lgan

erigan mahsulotlarni va ortib qolgan yemning chirigan qoldiqlarini (ammoniy va nitritlar) chiqarib tashlash uchun mo‘ljallangan. Bulardan tashqari baliqchilik basseynlarida o‘lchami 30 mikrometr dan kichik bo‘lgan muallaq va yarim muallaq chiqindilar ham bo‘ladi. Bunday chiqindilarning bo‘lishi ba’zi chuchuk suv baliq turlarining (laqqa, tilyapiya, karp va boshqalar) o‘sishi va rivojlanishi uchun xalaqit qilmaydi: ushbu chiqindilar oxir-oqibat ammoniygacha parchalanadi va biofiltr ta’siri doirasiga tushadi. Bunday holatlarda dizaynerlar kichik va erigan chiqindilarga beparvo bo‘lishadi. Lekin bir qator turlar uchun, ayniqsa, dengiz baliqlari uchun, suvni ana shunday chiqindilardan ham tozalash kerak. Eri gan moddalar yoki juda kichik aralashmalarni ajratish uchun kimyoviy filtrlardan foydalaniadi.

YOSTQ da suv sifatini ta’minlashning o‘ziga xos xususiyatlari

YOSTQ da aeratsiya qilish oqar basseynlarga qaraganda o‘ziga xos xususiyatlarga ega: kislorod nafaqat baliqlar nafas olishi uchun balki biofiltr bakteriyalar uchun ham kerak. YOSTQ da erigan kislorod bilan ta’minalash uning dizaynidagi muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Ko‘pincha ko‘pchilik baliqlar va bakteriyalar uchun kislorodning yetarli (me’yordagi) konsentratsiyasi 5 mg/l bo‘ladi. Suvni aeratsiyasi uchun intensiv aeratorlar kerak. Ko‘pincha diffuziyali aeratorlar ishlatiladi, bunda basseyning tubida joylashgan havo so‘rg‘ich yordamida havoning past bosimi hosil qilinadi, natijada ko‘plab mayda havo pufakchalari hosil bo‘ladi va ular suv qatlami bo‘ylab ko‘tariladi hamda uni havo bilan boyitadi. Ommalashgan aeratorlarning boshqa tipi bu – gazzislantirilgan ustunlar bo‘lib, ular oddiy va samaralidir. Kislorodi kam suv ustunning (minoraning) yuqorisidan sepiladi, u esa, katta bo‘shliqli plastikli muhit bilan to‘ldirilgan bo‘ladi. Ustunning o‘zi suvga cho‘ktirilmagan, shuning uchun bunday minorada havo almashinishi mavjud bo‘ladi. Ishlash prinsipi bo‘yicha ustunning ishi tomchili biofiltr ishiga mos keladi (YOSTQ da ishlatiladigan tomchili biofiltr qo‘sishma shunday ustunning funksiyasini ham bajaradi). Agar ustun karbonat angidridni chiqarib tashlash uchun ishlatilsa, yaxshisi suvni ko‘p miqdordagi havo bilan ta’minalash uchun ventilyator o‘rnatgan yaxshi. YOSTQ da biofiltrlarni boshqa turdagilari (tomchili bilan emas) bilan birga o‘rnatish mumkin, lekin

ularning o‘lchami tomchili filtrnikidan ancha kichik bo‘lib, balanligi 1-1,5 m dan yuqori bo‘lmaydi. Ba’zi YOSTQ lar havo so‘rg‘ichlarini – erliftlarni ishlatishadi va ular ikki xil funksiya bajaradi: suvni kislorodga boyitadi va tizimda suv aylanishini ta’minlaydi.

YOSTQ larda aeratorlarni o‘rnatish joyi. Baliqchilik basseynlarining o‘zida ham aeratsiyani amalga oshirish mumkin. Lekin bu eng yaxshi joy emas! Ma’lumki, aeratordan kislorodning suvga kirib kelish samarasi suvning kislorodga to‘yinish darajasiga yaqinlashganda pasayadi. Suvning kislorod bilan to‘yinishi basseynda baliq bo‘lgan paytda sodir bo‘lishi ma’qul ekan, unda aeratorlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri basseynlarda ishlashi kam samara beradi. Kislorodga to‘yingan suvni baliqli basseynga kiritgan ma’qul! YOSTQ da aeratsiya va gzsizlantirish uchun eng yaxshi joy qaytgan suvni yana basseynga kiritishdan oldin sanaladi. Shu joyda kislorod miqdori eng kam bo‘ladi (chunki kislorod baliqlar va biofiltrlovchi bakteriyalar tomonidan ishlatib bo‘lingan), karbonat angidrid esa, eng ko‘p bo‘ladi (uni baliqlar va bakteriyalar hosil qiladi). Aynan shu joyda suvdagi erigan gazlar tarkibini to‘g‘rilash kerak bo‘ladi va baliq basseyniga kerakli gazlarga to‘yintirilgan toza suv beriladi, keyin biofiltrga jo‘natiladi. Ba’zi tizimlarda kislorod taqsimlab beriladi, ya’ni bakteriyalarning faol ishlashi uchun suv biofiltrga kirishdan oldin to‘yintiriladi va baliqlar nafas olishi uchun basseynga kirishdan oldin to‘yintiriladi. Mana shu variant aeratorni bir joyga o‘rnatganga nisbatan eng yaxshi sanaladi.

Karbonat angidrid (SO_2), baliqlar va bakteriyalarning nafas olishidan hosil bo‘lgan mahsulot bo‘lib, YOSTQ dagi suvda to‘planib qolishi mumkin. Agar suv yetarli miqdordagi erigan kislorodga ega bo‘lsa, baliqlar uchun karbonat angidridning katta miqdori ham zaharli hisoblanmaydi. Suv ko‘p miqdordagi karbonat angidridni o‘zida eritishi mumkin. YOSTQ larda ularning miqdorini minimal darajada saqlashni ta’minalashga qaratilgan dizayn bo‘ladi. Karbonat angidridni atmosferaga diffuziyasini ta’minlovchi mexanizmni yaratish zarur. Bunday vazifani yuqorida ko‘rib o‘tilgan gzsizlantirilgan ustun yaxshi bajaradi.

Gzsizlantirish. Ba’zi holatlarda suvning biror gaz bilan o‘ta to‘yinishi natijasida muammo kelib chiqadi, ya’ni gazlar ayni harorat va bosimda ruxsat

etilgan maksimal miqdordan ham ko‘proq erishi mumkin. Me’yordan ortiq gaz moddalar pufakcha ko‘rinishida ajralib chiqishi mumkin (baliqlar nafas olishida ham), xuddi gazlangan shisha idishdagi suvni ochganda ajraladigan gaz kabi. Mana shunday suvning gaz bilan o‘ta to‘yinishi gaz pufakchali kasallikni keltirib chiqarishi mumkin (gaz pufakchalar jabralarda, suzgichlarda, tana yuzasida, qon tomirlarda hosil bo‘lishi mumkin, qon tomirlarda bunday pufakchalar tiqilib qolishi mumkin) va bu baliqlarni, hattoki, ko‘p miqdorda o‘limigacha olib borishi mumkin. Bunday ta’sirga, ayniqsa, baliq lichinkalari, chavoqlari va mayda baliqchalar ko‘proq uchraydi (pufakchalar ularning qon tomirlariga juda ham kattalik qiladi). Bunday holat quduqdan suv chiqarilayotganda sodir bo‘ladi, bu, asosan, basseynlar va pitomniklarda qilinadi. Gazlarning tarkibida azot, karbonat angidrid, inert gaz, kislorod bo‘lishi mumkin. Mana shu holat ozonator ishlatilganda ham sodir bo‘lishi mumkin. Ushbu holatning profilaktikasi shundayki, suvni basseynga berishdan oldin uni gazzislantirish kerak (masalan, ozonatordan chiqqandan so‘ng). Eng oddiy usul bu – suvni gazzislantiruvchi ustundan o‘tkazishdir. Suv substrat bo‘ylab tomchi ko‘rinishida yoki tizillab oqsa, uning yuzasi kattalashishi natijasida ortiqcha gazdan xalos bo‘ladi. Agar YOSTQ tizimida tomchili biofiltr yoki aerator-ustun bo‘lsa, unda qo‘sishimcha ustunni qilmasa ham bo‘ladi.

Suvning harorati. Baliqlar poykiloterm hayvon bo‘lib, YOSTQ da suvning harorati baliqlarning butun hayotiy jarayonlarini belgilab beradi. YOSTQ da har bir baliq turining haroratga bo‘lgan talabini e’tiborga olish kerak bo‘ladi, ya’ni haroratni shunday oraliqda ushlash kerakki, bunda baliqlar shunchaki o‘sishi emas, balki u optimal holatda bo‘lishi kerak. Masalan, karp, laqqa uchun suvning haroratini 18-30°C oraliqda emas, 24-30°C orasida saqlash kerak. Suvning harorati YOSTQ larda nafaqat baliqlarga balki biofiltr mikroorganizmlariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Nitrifikatsiyalovchi bakteriyalar harorat 20-30°C bo‘lganda eng yaxshi rivojlanadi. Lekin suv harorati ortishi bilan kislorodning eruvchanligi kamayadi, bu o‘z navbatida bir qator oqibatlarga, xususan, suvning tozalanish (nitrifikatsiya) samaradorligini o‘zgarishiga olib keladi. Buni YOSTQ loyihalanayotganda e’tiborga olish kerak bo‘ladi. Suv qanchalik sovuq bo‘lsa, biofiltr hajmi shunchalik

katta bo‘lishi kerak. Bu tushunarli holat, agar bakteriyalardagi moddalar almashinuvini atrof-muhit haroratiga bog‘liqligini e’tiborga oladigan bo‘lsak, sovuq muhitda, masalan, YOSTQ da forel uchun (bunday past haroratda bakteriya hujayralarida ham) moddalar almashinuvi sekin kechadi. Demak, ammoniyli azotni zararsizlantirish uchun ko‘proq bakteriyalar kerak bo‘ladi.

Kasalliklar profilaktikasi. Zich muhitda yashovchi baliqlarning kasallanish ehtimoli yuqori bo‘ladi va bu qisqa vaqt ichida juda katta miqdordagi baliqlarga yuqishi mumkin. Ko‘pincha sodda hayvonlar va bakteriyalar tomonidan kasalliklar qo‘zg‘atilish ehtimoli ko‘proq bo‘ladi. YOSTQ da baliqlarni davolashning o‘ziga xos tomonlari mavjud: antibiotikli dorilar nafaqat baliqlarga, balki bioplenkaga ham ta’sir qilishi mumkin (bakteriyalarni o‘ldirishi va YOSTQ ni ishdan chiqarishi mumkin). Formalin (hattoki kichik miqdori), mis kuporosi, antibiotiklar asosiy dori vositalari bo‘lib, ochiq tipdagи baliqchilikda biofiltr bakteriyalarini o‘ldiradi. Hattoki, suvning tuzliligini keskin o‘zgarishi ham uning bakterioflorasini ishdan chiqarishi mumkin. YOSTQ texnologiyasining rivojlanishi suvni doimiy ravishda mahsus tayyorlash hisobiga, ya’ni dezinfeksiya maqsadida, baliq kasalliklariga qarshi profilaktika qilish yo‘lidan bordi. Buning uchun suvni ultrabinafshali nurlantirish yoki uni ozonga boyitish jihozlari va usullari ishlab chiqildi.

Ozonga boyitish. Ozon (O_3) – kuchli oksidlovchi bo‘lib, bir hujayralilarni o‘ldiradi, oqibatda uni ichimlik suvni sterillashda ham ishlatish mumkin. Ammo ozon boshqa tirik jonzotlarga, xususan, baliqlarga (odamlarga) ham zaharlidir. Suvda ozon tezda kislородга (O_2) aylanadi, ya’ni suvni ozonga boyitish samarali oksigenatsiya sanaladi. Lekin ozonga boyitish toza va tiniq suvni qayta ishlashda samarali, YOSTQ da esa, turli aralashmalarni, xususan, organik chiqindilarning miqdori yuqori hisoblanadi. Shuning uchun ozon bilan dezinfeksiya qilishning samarasini haqida mutaxassislar ko‘p bahslashishadi. Uning samarasini ozon pufakchalarining bakteriyalar bilan aloqa muddatiga va uning miqdoriga bog‘liq. Ozon manbai baliq boqiladigan basseyndan tashqarida bo‘lishi kerak va ozon doimiy ravishda ishlab chiqilishi kerak, chunki u turg‘un emas, ya’ni 10-20 daqiqada parchalanadi.

Ko‘pincha ozon mahsus basseynlarda mayda pufakchalar ko‘rinishida

sachratib beriladi. Suv ushbu basseynda ishning samarasini kuchaytirish maqsadida uzoq turishi kerak. Agar basseynga tushayotgan suvda ozon qolsa, unda u zaharli modda sifatida baliqlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ozon gaz ko'rinishida havoga o'tsa, odamlar uchun uning kichik miqdori ham zaharlidir. Shuning uchun suvni ozonga boyitishda juda ham ehtiyyot bo'lish kerak, ozonatorni faqat tajribali mutaxassislargina o'rnatishi mumkin.

Ultrabinafshali nurlantirish. Ultrabinafshali nurlantirish bu – yorug'likning 100-300 nm dan past ko'rinish chegarasidagi diapazonda suvga ta'sir ko'rsatishdir. Ultrabinafsha nur – bu qisqa to'lqinli nur bo'lib, uzun zanjirli oqsil molekulasiga ta'sir ko'rsatadi. Ultrabinafsha nurni to'g'ri qo'lanilsa, suvdagi mikroorganizmlar (patogenlari ham) o'lib ketadi. Mikroorganizmlarga samarali ta'sir ettirish uchun ular UF-nurlanish manbasiga yaqin (0,05 sm gacha) joylashtirilishi kerak. Ultrabinafshali nurlantirishning eng keng tarqalgan turi bu cho'ktirilgan nurlanish manbaidir. Buning uchun suv cho'ziq UF lampa bo'ylab o'tishi kerak. Lampaning ichida kvarsli oyna bo'lib, u suv o'tkazmaydigan qobiqlidir, ya'ni lampaning o'zi suv bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqada bo'lmaydi. UF lampa va kvarsli nay quvurning ichida bo'ladi va suv u orqali zararsizlantirilish maqsadida o'tkaziladi. Suv tiniqligi pasayganda samaradorlik kamayadi, shuning uchun UF lampani mexanik filtrdan keyin o'rnatish kerak. Agar YOSTQ tizimida suvni UF lampa o'rnatilgan quvur orqali bir necha marta o'tkazilsa, unda kasallik qo'zg'atuvchilarning katta qismi o'lib ketadi. Lampa bilan quvur devori o'rtasidagi masofa kichik bo'lsa, suv qatlami ham yupqa bo'ladi va natijada mikroblarga uning ta'sir samarasini yuqori bo'ladi . UF tizimini ishlab chiquvchilarda doimo qayta ishlanadigan suvning oqimi yoki hajmiga nisbatan ko'rsatkichlari bo'ladi. UF lampalar ushbu ko'rsatkichlar asosida o'rnatiladi va har bir YOSTQ uchun alohida hisob-kitob qilinadi. Uning samarasini suvning oqim tezligini pasaytirish orqali ham oshirish mumkin. Ko'pincha, UF lampa batareyalari o'rnatiladi.

UF tizimdan foydalanishning asosiy kamchiligi kam miqdordagi aralashmalarga ega toza suvni qayta ishlash zaruriyatidir. Yana bir kichik kamchilik bu UF lampalarni tez-tez almashtirib turishdir va u yetarli darajada qimmat sanaladi. Eng asosiy ustunligi esa uning baliqlar uchun xavfsizligi va

foydalanishning osonligidir.

3. Toshkent davlat agrar universiteti Baliqchilik kafedrasiga va universitet qoshidagi Baliqchilik ilmiy markaziga tashrif.

Toshkent davlat agrar universiteti Baliqchilik kafedrasiga tashrif davomida kafedra kolleksiyasida mavjud bo‘lgan baliqlarni tur darajasigacha aniqlash bilan, baliqlarni aniqlash usullari bilan, kafedra o‘quv xonalarida mavjud bo‘lgan ko‘rgazma materiallar bilan tanishtriladi. Ixtiologik tadqiqotlar davomida qo‘llaniladigan usullar bilan tinglovchilar bevosita o‘zлari jarayonni bajarish orqali tanishadilar.

Toshkent davlat agrar universitet qoshidagi Baliqchilik ilmiy markaziga tashrif davomida akvakulturaning intensiv tizimi bilan xususan yopiq suv ta’minoti qurilmasida baliq yetishtirish jarayonlari bilan, shuningdek, hovuzlarda iliq suv va sovuq suv baliqchiligi ob’yektlarini yetishtirish jarayonlari bilan tanishtiriladi. Baliqlar yemi tayyorlash, yem retsepti va baliqlarni oziqlantirish ratsioni haqida tushunchalar beriladi.

O‘QITISH SHAKLLARI

1. Baliqlar kolleksiyasidagi baliq turlari bilan tanishish

2. Yopiq suv taminoti qurilmalari tuzilishi va ishlashi bilan tanishish.

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

-ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

-davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish, qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

-bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.

Xulosalash (Rezyume, Veyer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilaming mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlami mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiyligi muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o’tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlr bilan to’ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

Namuna:

To‘la qiymatli turli biometallar bilan boyitilgan ozuqalar bilan oziqlantirish					
Temir bilan boyitilgan ozuqalar		Yod bilan boyitilgan ozuqalar		Mis bilan boyitilgan ozuqalar	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

“SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mayjud nazariy bilimlar va amaliy tajribali tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llairini topishga, bilimlari mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)

- кучли томонлари

W – (weakness)

- зайд, кучсиз томонлари

O – (opportunity)

- имкониятлари

T – (threat)

- тўсиқлар

«FSMU» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi: qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi; har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi:



Ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Namuna.

Fikr:“Baliq va baliq mahsulotlari tarkibidagi “I₂” yod mikroelementini boyitish”

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“ASSESSMENT” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlami aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida tinglovchilarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘srimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

“Insert” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod talabalarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilmlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod o‘quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

➤ o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;

- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini mahsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi mahsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“-”bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalami o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday

holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;

-belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;

-har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

“Brifing” metodi

“Brifing” – (ing. briyefing-qisqa) biror-bir masala yoki savolning muhokamasiga bag'ishlangan qisqa press-konferensiya.

O'tkazish bosqichlari:

1. Taqdimot qismi.
2. Muhokama jarayoni (savol-javoblar asosida).

Brifinglardan trening yakunlarini tahlil qilishda foydalanish mumkin. Shuningdek, amaliy o'yinlar bir shakli sifatida qatnashchilar bilan birga dolzARB mavzu yoki muammo muhokamasiga bag'ishlangan brifinglar tashkil etish mumkin bo'ladi. Talabalar yoki tinglovchilar tomonidan yaratilgan mobil ilovalaming taqdimotini o'tkazishda ham foydalanish mumkin.

Oliy ta'lim tizimida yuksak malakali, ijodkorlik va tashabbuskorlik qobiliyatiga ega, kelajakda kasbiy va hayotiy muammolarni mustaqil hal qila oladigan, yangi texnika va texnologiyalarga tez moslanishga layoqatli kadrlarni tayyorlashda ta'lim jarayonini zamonaviy o'quv-metodik majmular bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-Mavzu: Akvakulturada baliqlarni parvarishlashning zamonaviy tizimlari

Reja:

- 1.1. Akvakulturaning intensivligi.**
- 1.2. Baliq yetishtirish sikllari.**
- 1.3. Akvakultura texnologiyasining xilma-xilligi**

Baliqchilik xo‘jaligini ratsional yuritish baliq ovlashda ma’lum darajada gidroekosistema ustidan nazorat qilishda foydalanadi, akvakulturada esa bu yanada kuchliroq namoyon bo‘ladi, farq faqat nazorat darajasida ko‘rinadi. Baliq ovlash deyilganda baliqlarning yovvoyi to‘dalarini ovlash tushuniladi. Ovchilikning rivojlanishi tufayli ichki suv havzalarida ovni boshqarish, melioratsiya, tanlab baliqlantirish va boshqa usullardan foydalanilmoqda. Akvakulturada esa kuchli nazorat olib boriladi. Baliqchi amalda yetishtiriladigan baliq turlari uchun qulay sun’iy sharoit yaratadi, suv havzasidagi begona ob’yektlar bilan baliqlar o‘rtasidagi raqobatni yo‘qotadi hamda boqiladigan baliqlar avlodlarining nobud bo‘lish sabablarini aniqlab uni bartaraf etadi. Buning uchun baliqchi kerakli ko‘rsatkichlarga ega suv havzasini o‘zi quradi va bu yerda tabiiy suvliklarga qaraganda ming marotaba yuqori tig‘izlikda baliq boqish imkoniyati paydo bo‘ladi. Turli tipdaggi akvakultura tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, ular ko‘rsatkichlarni nazorat qilish darjasini va oqibatda baliq mahsulorligi bo‘yicha farq qiladi.

An’anaviy tarzda akvakultura *chuchuk suv* akvakulturasi (ichki kontinental hududlardagi chuchuk suv havzalarida gidrobiontlarni yetishtirish) va dengiz akvakulturasi – *marikulturaga* (gidrobiontlarni dengiz suvida ya’ni sho‘r suvda yetishtirish) bo‘linadi.

1.1. Akvakulturaning intensivligi.

Hozirgi paytda qo‘llanilayotgan akvakultura ob’yektlarini saqlash tizimining jadalligi bo‘yicha quyidagilarga bo‘lish mumkin:

- Ekstensiv tizim* – baliqlar suv havzasining tabiiy ozuqa organizmlari hisobiga oziqlanadi (yaylov akvakulturasi), bunda baliqchi ozuqa organizmlarni

rivojlanishini tezlashtirish uchun o‘g‘itlardan foydalanishi mumkin (hovuz xo‘jaligida baliq yetishtirish, bu holatda mo‘‘tadil iqlim janubida masalan, O‘zbekistonda mahsuldorlik 10 ts/ga gacha yetishi mumkin).

•***Yarim intensiv tizim*** – baliqlar bir paytda tabiiy ozuqa organizmlari va sun’iy kiritilgan ozuqa bilan oziqlanadi (ko‘pincha omuxta yem); bunda yer hovuzlarining baliq mahsuldorligi mo‘‘tadil iqlim sharoitida 20-30 ts/ga gacha bo‘lishi mumkin (O‘zbekiston baliqchilari hattoki 40-50 ts/ga mahsulot olishi ham mumkin, lekin bu jadal oziqlantirish hisobiga yuz bergani uchun iqtisodiy jihatdan o‘ziga jalg qilmaydi).

•***Intensiv tizim*** – baliqlar faqat kiritilgan sun’iy to‘yintirilgan omuxta yem hisobiga o‘sadi, tabiiy ozuqaning bo‘lishi talab qilinmaydi; mahsuldorlik, xususan mo‘‘tadil iqlim sharoitida ham – 40-200 kg/m³ ga yetadi.

Akvakultura ob’yektlarining sovuqqonli hayvon sifatida o‘ziga xos xususiyatlari. Baliqlar va boshqa suv hayvonlarining tana harorati (suv qushlari va suvda yashovchi sut emizuvchilardan tashqari) suvning haroratiga bog‘liq. Har xil baliq turlari suvning turlicha haroratida yashashi mumkin. Ana shundan kelib chiqib baliqlar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

•***sovuq suv baliqlari*** – sovuq suvda (0° dan $17-18^{\circ}\text{C}$ gacha) yashaydi; ular uchun suvning harorati $19-20^{\circ}$ dan ortishi hayot uchun xavfli;

•***issiq suv baliqlari*** – qishlay oladi, lekin suvning harorati $14^{\circ}-16^{\circ}\text{C}$ dan ortganda o‘sishni boshlaydi; $20^{\circ} -30^{\circ}\text{C}$ da yaxshi o‘sadi;


•***tropik baliqlar*** – bizning sharoitda qishlay olmaydi, suvning harorati $+14^{\circ}\text{C}$ dan pasaysa nobud bo‘ladi, $20^{\circ}-32^{\circ}\text{C}$ da yaxshi o‘sadi.

Qaysi baliq ob’yektini yetishtirishiga qarab baliqchilik *sovuq suvli*, *issiq suvli* va *tropik* turlarga bo‘linadi. Mo‘‘tadil iqlimning janubiy o‘lkalaridagi ochiq suvliklarda faqat sovuq suv baliqlarini (tog‘ va tog‘oldi rayonlarda) va issiq suv

baliqlarini (tekislik rayonlarda) boqish mumkin, yopiq tizimda esa barcha turdagilarni boqish mumkin.

Akvakulturada baliq yetishtirish tizimi. Dunyo akvakulturasida hozirgi vaqtida bir necha tipdagi baliq yetishtiruvchi suv havzalari yaratilgan va ulardan foydalanimoqda: bular hovuzlar, qafaslar, qo‘tonlar, oqar basseynlar, yopiq suv ta’minati qurilmasi (YOSTQ) basseynlari va yangi rivojlanayotgan akvaponika yo‘nalishi.


Baliqlarni an’anaviy tarzda hovuzlarda ya’ni yer qazilib, dambalanib hosil qilingan sun’iy suv havzasida boqilgan. Baliqchilik hovuzlari yaxshi rejalarshirilgan holda tubi, suv kirish va chiqish tizimiga ega qilib quriladi. Bahorda ular suv bilan to‘ldiriladi, tabiiy ozuqa bazasini rivojlantirish uchun o‘g‘itlanadi, baliqlantiriladi, vegetatsiya mavsumi davomida boqilib, kuzda yetilgan baliqlarni ovlash uchun hovuzlar butunlay quritiladi. Vegetatsiya mavsumi davomida filtrlanish va bug‘lanish hisobiga yo‘qotilgan suvning o‘rnini qoplash hamda suvning sifatini saqlab turish uchun suvning sekin almashinushi ta’milanadi. Hovuzdagi suv deyarli oqmaydi, u yerda quyosh energiyasi hisobiga suvni isitish orqali tabiiy ozuqa bazasini rivojlantirish uchun sharoit qulay paydo bo‘ladi. Hovuzlar o‘lchami kichik (0,1-1 ga) va yirik (100 ga va undan ham katta) bo‘lishi mumkin. Hovuzlarda suvning sifati asosan u yerdagi barcha ekologik guruhlarning tabiiy mahsulot hosil qilishda kechadigan jarayonlar hisobiga saqlab turiladi. Buning natijasida hovuzda maksimal yuklama (baliq mahsuldorligi) mavjud bo‘lib, u hovuz aholisining mahsulot ishlab chiqish imkoniyati bilan belgilanadi.



Пруды - обмен воды более чем 48 часов (2 суток), часто - более 10-15 дней.


Качество воды поддерживается за счет производственных процессов в пруду, ветров. Собственный обмен воды достаточно медленный.

Это ограничивает интенсивность пруда.



Бассейны - обмен воды за 0,4-2 часа.

Качество воды поддерживают за счет водообмена (загрязненную воду меняют на чистую постоянно)



Садки - отгороженная сетью часть воды в водоеме. Продукты обмена веществ и несъеденные остатки кормов падают вниз из садка. Газовый режим в садке поддерживается за счет диффузии газов через сеть.

Baliqlarni saqlash tizimlari: hovuzlar, oqar basseynlar, qafaslar.

Basseynlar – ushbu suv havzalari yerda yoki yer ustida joylashgan bo‘ladi. Basseynning farqi suv kamayishini oldini olish maqsadida yaxshi gidroizolyatsiya qilingan va shundan kelib chiqib basseynlar betonlangan, metaldan, yog‘ochdan va sun’iy toladan yasalgan bo‘ladi. Lekin asosiy farqi unda suvning yuqori tezlikdagi oqimidir, shuning uchun “oqar basseynlar” deb nomlanishi to‘g‘riroq bo‘ladi (flowthrough tank, raceway). Basseynlar oqar suv havzasi bo‘lib, yuqori oqim hisobiga suvning sifati saqlanib turadi (Stikni, 1986; Suladze, 1990, Mamontov va boshqalar., 2008; Stickney, 2000). Basseynda suvning almashinishiga bir soatdan kam vaqt ketadi (maksimum 2 soat). Shu narsani qayd etish kerakki suvning ifloslanishi degan tushuncha faqat baliqchilikka nisbatan ishlataladi, boshqa suvdan

foydanuvchi sohalarda (eng avvalo o'simlik yetishtirishda) basseyndan chiqqan suv ifloslangan deb atalmaydi.

Qafaslar – suv havzasining bir qismini yonidan va tubidan qalin to'r bilan to'suvchi qurilma (suvga cho'ktirilgan qafaslar ham mavjud bo'lib ular yuqori tomondan ham to'silgan bo'ladi). Baliqlar qafaslarning ichida saqlanadi. Yem qoldiqlari qafasdan pastga tushib ketadi, shuning uchun qafasning tubi suv tubidan kamida 1 m yuqori bo'lishi kerak. Yemning qoldig'i suv tubida chiriydi, shuning uchun yuqorida ko'rsatilgan masofa saqlansa, u qafasdagи suvning holatini yomonlashib ketishini oldini oladi. Qafasdagi suvning sifati unda hosil bo'lgan gaz va boshqa moddalarning qafasdan tashqariga tabiiy diffuziyasi hisobiga saqlanib turadi. Qalin to'r boqilayotgan baliqlarni qafasning ichida bo'lishini ta'minlab turadi (Привезенцев, 2000; Александров, 2005, Мамонтов ва бoshqalar., 2008; boshqalar).

Qo'tonlar – suv havzasining bir qismi bo'lib, butun chuqurligi bilan qalin to'r orqali ajratilgan (ya'ni devor faqat yon tomonda mavjud, havzaning tubi esa qo'tonning tubi bo'lib xizmat qiladi). Qo'tonlar tabiiy suv havzalaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Haqiqatdan ham respublikamiz miqyosida ko'llarda baliq mahsuldarligi baliq ovlash hisobiga 20-30 kg/ga gachani tashkil etadi xolos. Ushbu ko'llarda qurilgan qo'tonlarda karpsimon baliqlar polikulturasida mahsuldarlik 2000-3000 kg/ga ni tashkil etadi. Qo'tonlar o'zining baliqchilikdagi xususiyatiga ko'ra hovuzlarning analogi hisoblanadi, lekin qafaslarning emas (mahsuldarligi bo'yicha ham) (Coche, Muir, 1998; Woynarovich et al., 2010). O'zbekistonning irrigatsion tizimli suv havzalarida (suv omborlarida, zax suvlar to'plovchi ko'llarda) turg'un bo'limgan suv sathi sabab, ulardan uzoq muddatli qo'ton sifatida foydalanish tavakkalchilik hisoblanadi.

O'zbekistonda ekstensiv va yarim intensiv hovuz baliqchiligidan tashqari intensiv akvakulturaning texnologiyalari hozircha keng tarzda rivojlanmayapti. Aslida esa ushbu tizim asosiy istiqbolli yo'nalish sanaladi, chunki u har qanday tipdagи suv havzalaridan ularning suv tartibotini o'zgartirmagan holda foydalanish imkonini beradi. Basseynlar barcha daryolar, irrigatsion va zax suv kanallari atrofida, umuman gravitatsiya hisobiga suv oquvchi nishab yer uchastkalarida hosil

qilinishi mumkin. Bularga respublikaning tog‘ va tog‘oldi hududlari kiradi. Qafas va qo‘tonlarni barcha ko‘llarga, hovuzlarga va yirik daryolarga o‘rnatish mumkin. YOSTQ esa faqat elektr tarmog‘iga bog‘liq bo‘lgani uchun shaharlardagi savdo komplekslari atrofida o‘rnatish mumkin va ular yer yuzasidagi suv havzasiga bog‘lanib qolgan emas. YOSTQ ayniqsa tropik baliqlarni o‘zlashtirish uchun istiqbolli sanaladi, chunki u yerda qishlash va ko‘paytirish orqali yozda ularni ochiq tizimli sharoitda boqish mumkin.

Yetishtiriladigan baliqlarni ochiq va yopiq tizimda saqlash. Baliqlar haroratning ma’lum oralig‘ida yaxshi o‘sadi, ularning o‘sishi va ovqat ratsionida musbat bog‘liqlik mavjud; ratsion suvning harorati va baliq biomassasidan kelib chiqib tuziladi. Baliqlarni intensiv yetishtirishda va yuqori oqsilli yemdan foydalanishda harorat bo‘yicha kichik ustunlik ham baliqlar o‘sishida ijobiy tomonga o‘zgarishiga va’da beradi.

Hovuzlarda, oquvchi basseynlarda va qafaslarda baliqlar yuzada oquvchi suvning tabiiy haroratida saqlanadi va u bizning mo‘‘tadil iqlim sharoitida mavsumlar bo‘yicha jiddiy tarzda o‘zgaradi. Bunday tizim *ochiq tizimli* deb ataladi.

Optimalga yaqin haroratda baliqlar doimiy ravishda eng qulay o‘sish sharoitida yetishtiriladi. Bunda tovar baliqlar yetishtirish muddati bir necha barobar qisqaradi. Bizda kuz-qish-bahor paytlarida suvni isitish va tashqi muhitdan issiqlikni izolyatsiya qilish orqali bunday sharoitni hosil qilish mumkin. Bunday sharoit binolarda va boshqa inshootlarda hosil qilinishi mumkin, shuning uchun ular *yopiq tizimli* deb ataladi.


Yopiq suv ta’minotli qurilma (YOSTQ). Havzaga keluvchi suvni doimiy ravishda isitib turish mumkin, lekin bu iqtisodiy tomondan qimmat, norentabel hisoblanadi. Shuning uchun shunday tizim qo‘llanilyaptiki bunda baliq boqiladigan hovuzdan chiquvchi suv chiqindilardan tozalanib, so‘ng yana hovuzga qaytariladi. Xalqaro adabiyotlarda bunday tizim *akvakultura resirkulyatsion tizimi* (RAS—recirculating aquaculture system) deb ataladi, rus tilida bu («UZV» - *ustanovki zamknutogo vodoCnabjeniya*) YOSTQ – *yopiq suv ta’minotli qurilma* deb atalgan. Biz o‘z ishimizda ruscha atamadan foydalanamiz (aslida bizning fikrimizcha,

uning inglizcha atamasi tushunarliroq va to‘g‘riroq). Mo‘‘tadil iqlimli sharoitda va shimolroqda YOSTQ yopiq sharoitlarda joylashtirilgan (bino, issiqxona), ularda suv isitiladi, tozalanadi va bir necha marta ishlatiladi. Hozirgi paytda YOSTQ ning turli ko‘rinishlaridan foydalanilyapti, masalan akvaponikada biofiltrlik vazifasining bir qismini yetishtirilayotgan o‘simpliklar bajaradi. Akvaponikada yopiq suv ta’minotli qurilma bilan gidropnika usuli aralash tarzda olib boriladi.

Baliq yetishtirish sikllari

Baliqlar hayot siklining bosqichlari va davrlari. Baliqlar hayoti urug‘langan ikradan qarilikkacha so‘ng o‘limgacha davom etib, bu davrda organizmda doimiy ravishda o‘zgarishlar sodir bo‘lib turadi. Ammo bunday uzlucksiz o‘zgarishlarda davomiyligi bo‘yicha turli intervallar mavjud bo‘lib, bunda u yoki bu shakl hosil qiluvchi jarayonlar ustun turadi hamda organizmning muhit bilan aloqasini o‘ziga xos moslashishi kuzatiladi. Rivojlanishning eng yirik intervali – *davrlar* bo‘lib, u o‘z navbatida *bosqichlarga* bo‘linadi. Davrlar va bosqichlar qonuniy tarzda ma’lum tartibda keladi. Umumi shaklda baliqlar hayotini *embrional*, *lichinka*, *chavoq* (*malek*), *voyaga yetgan organizm* va keyin qarilik davrlariga bo‘lish mumkin (shu jumladan voyaga yetmagan va voyaga yetgan davrlar).

Har qanday organizm urug‘langan ikra hujayradan rivojlanadi. Jinsiy hujayralar baliq hayoti davomida gonadalarda: erkaklik hujayralar urug‘donda (1), urg‘ochilik – ikradonda (2) rivojlanadi. Ikra qo‘yishdan so‘ng ikra hujayralar suvda spermatozoidlar bilan urug‘lanadi (3) va lichinka (4,5, 6) hosil bo‘ladi, so‘ng chavoq (7), yosh voyaga yetmagan baliq (8, 9) va voyaga yetgan baliq (10) ko‘rinishigacha yetib, ularning jinsiy mahsulotlaridan yana yangi avlod rivojlanishi boshlanadi.



Baliqlar hayat sikli (karpa): 1- voyaga yetgan erkak, 2 – voyaga yetgan urg‘ochi, 3 – urug‘lanish (yangi organizmning tug‘ilishi), 4 – o‘simlikka yopishtirilgan urug‘langan ikraning embrional rivojlanishi, 5 – lichinkaoldi, 6 – suzishga turgan lichinka, 7 – chavoq (малек), 8 – bir yozgi baliq (сеголетка), 9 – jinsiy voyaga yetmagan baliq , 10 – jinsiy voyaga yetgan baliq.

Baliqlarni yetishtirish ishlab chiqarish sikllari bo‘yicha olib boriladi va qonuniy tarzda ular bir-biri bilan ma’lum ketma-ketlikda almashinib boradi. Ma’lumki baliq yetishtirish bosqichlari baliqlar hayat siklining davr va bosqichlariga asoslanadi. Bu baliqlar hayatidagi har bir bosqichning tashqi muhitga nisbatan o‘ziga xos talablarni mavjudligi bilan izohlanadi.

Yashash sharoitiga nisbatan eng yuqori talab baliqlar hayat siklidagi ikra davri hisoblanadi. Masalan, voyaga yetgan forel 8-10 dan 18°C gacha oraliqda yaxshi o‘sadi, lekin ular ikraining rivojlanishi uchun optimal harorat 10-12°C hisoblanadi. Ikra rivojlanayotgan davrda haroratning keskin o‘zgarishi sodir bo‘lmagani ma’qul. Bundan tashqari suv har qanday aralashmalsiz toza, kislород yuqori miqdorda bo‘lishi va ikra yeyuvchi organizmlarning bo‘lmasligi kerak. Analogik tarzda boshqa turdagи baliqlar, xususan karp, oq va chipor do‘ngpeshona, oq amur bilan ham shunday bo‘lishi kerak.

Akvakulturaning yuqori texnologiyali usullarida ikraning rivojlanishi inkubatsion apparatlarda olib boriladi va unga talab etiladigan sifatlarga ega toza suv kiritilib turiladi. Ya’ni baliq hayotining ayni davri uchun suvga bo‘lgan talablar maksimal darajada bajariladi va ayni ob’yekt ikraining rivojlanishini qo‘llash uchun sharoit yaratiladi. Olingan lichinkaoldi (erkin embrionlar) va

lichinkalar ham mahsus, qulay sharoitlarda ya’ni tog‘orada, basseynda va hovuzda boqiladi . Bu *o’stiruvchi* davr deyiladi va uning maqsadi minimal yo‘qotishga erishib, lichinkalarni 1 g og‘irlikdagi baliqchalar ko‘rinishigacha boqishdir. Baliq chavoqlarini boqish *o’tqazilgan baliqlarni yetishtirishning* muhim va boshlang‘ich qismi hisoblanadi. Masalan Orol dengizi havzasi sharoitida (uzoq muddatli ya’ni noyabr oyidan martgacha davom etadigan qish sharoitida) karpsimon baliqlarni hovuz polikulturasida *o’tqaziladigan baliqchalar* 20-25 g o‘lchamda bo‘lishi eng hayotchan hisoblanadi. Odatda hovuz xo‘jaligining an’anaviy usulida bunday o‘lchamga baliq hayotining birinchi yili kuzda ega bo‘ladi. Keyin, ya’ni qishda baliqlar o‘smanydi. Hayotining ikkinchi yili bahorda hovuz baliqlari *boquvga* qo‘yiladi (*tovar baliqlari yetishtirish*) va bu kuzgacha davom etadi. Ushbu ikki yoshli baliqlarning asosiy qismi tovar baliq sifatida sotuvga chiqariladi, bir qismi esa yana boquvga qo‘yilib undan *ta’mirlanuvchi – ona baliqlar* to‘dasi shakllantiriladi va keyinchalik ulardan yangi avlod olinadi.

Albatta har bir turning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib, baliqlarni saqlashning turli tizimlarida baliq boqish bosqichlari farq qilishi mumkin. Masalan bozor munosabatlari sharoitida O‘zbekiston baliqchilari do‘ngpeshona baliqlarini talab yuqori bo‘lgan yirik o‘lchamgacha va qimmatroq narxga sotish maqsadida uch yil boqishi mumkin. Kamalakrang forelni esa bor-yo‘g‘i 250-300 g gacha boqish kifoya qiladi, chunki ushbu qimmatbaho baliq uchun mana shunday o‘lcham tovar o‘lcham hisoblanadi, lekin uning bir qismini 1,5-2 kg gacha boqish mumkin. YOSTQ da baliqlar qishlamasdan tez o‘sadi va birinchi yil oxiriga kelib ular tovar o‘lchamiga yetadi. Lekin umumiy olganda ko‘rib chiqilgan baliq boqish bosqichlarining ketma-ketligi o‘zgarmasdan qoladi.

Nazorat savollari

1. Akvakultura ob’yektlarining sovuqqonli hayvon sifatida o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot bering?
2. Yopiq suv ta’minotli qurilma tuzilishi haqida ma’lumot?
3. Baliqlar hayot siklining bosqichlari va davrlarini yoritib bering?

2-Mavzu: Akvakultura ob'yektlarining biologik xususiyatlari

Reja:

- 2.1. Baliqlar haqida qisqacha sistematik ma'lumot**
- 2.2. Baliqlar tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari**
- 2.3. Baliqlar o'sishi**
- 2.4. Baliqlarning ko'payishi**
- 2.5. Baliqlarning oziqlanishi**

Baliqlar hayoti davrida (yirik umurtqali hayvon sifatida) juda ham tavakkalli holat sodir bo'ladi, ya'ni ko'pchilik baliq turlarining erkak va urg'ochilar yetilgan jinsiy mahsulotlarini tashqi muhitga – suvga chiqarib tashlaydi va u yerda urug'lanish sodir bo'lib, yangi avlodning rivojlanish jarayoni kechadi (ikra, lichinka oldi holat, lichinka, chavoq, voyaga yetgan baliq). Bu holat ular populyatsiyasining baliq ikrai bilan oziqlanuvchi gidrobiontlar, yirtqichlar va tashqi muhit omillariga juda ham katta bog'liqligini ko'rsatadi. Bunday tavakkal sharoitda baliq populyatsiyalarining ko'payishi qay tarzda ta'minlanadi? Bunday tavakkal sharoitga moslashishlardan biri bu baliqlarning o'ta yuqori mahsuldorlik bilan javob berishidir. Tabiiy sharoitda bir qator baliqlarning bir necha yuz mingdan million donagacha qo'ygan ikralaridan faqat bir nechta sigina yashab qoladi xolos. Inson baliqlarning bunday o'ziga xos biologiyasini bilgan holda, madaniylashtirilayotgan ob'yektlarning avlodlarini iloji boricha yuqori darajada yashovchanligini oshirish uchun himoyalovchi sharoitlarni yaratadi. Bunday himoyalovchi sharoitlarni dastlab urug'langan ikradan boshlaydi. Har bir inkubatsion apparatning konstruksiyasi ob'yektning ekologik talablariga (aynan optimal) yaqin bo'lgan sharoitni yaratib beradi. Bunday apparatda yetishtirilayotgan ob'yektdan boshqa hayvon turi bo'lmaydi, barcha ikralar optimal sharoitda rivojlanadi va demak ikralarning juda katta qismi tirik qoladi hamda ular me'yorida rivojlanadi. Mana shu urug'langan ikralarning yashab qolgan qismi tabiiy suvliklardagi turdoChlarining ikralarini yashab qolish darajasidan juda yuqori sanaladi. Ya'ni baliq pitomnigidagi inkubatsion sexda karp balig'inining bitta urg'ochisidan 500 ming dona ikra olinib, uning 250 mingtasi lichinka holatiga

qadar yetib boradi. Masalan daryodagi (ya’ni baliq pitomnigi bilan bir xil geografik sharoitdagi) zog‘ora baliqning bor yo‘g‘i bir necha o‘nta lichinkasi yashab qoladi xolos. Ya’ni farq ming baravarni tashkil etyapti! Baliq lichinkalarini saqlash uchun ularning kushandalari bo‘lmagan mahsus hovuzlar quriladi va u yerdagi sharoit optimalga yaqin bo‘ladi. Baliq chavoqlari, tovar baliqlar va ota-onalari uchun ham qulay sharoit yaratiladi. Baliqlar monokulturada yoki polikulturada boqiladi, lekin har ikkala holatda ham yoki raqobat qiluvchi turlar bo‘lmaydi yoki suv havzasida raqobatchilarining miqdorini nazorat qiluvchi sun’iy to‘siqlar mavjud bo‘ladi. Bundan tashqari baliqlar maqsadli ozuqa bilan oziqlantiriladi, kasalliklar profilaktikasi va ularni davolash ishlari o‘tkaziladi. Demak har bir ob’yekt uchun qulay yashash sharoiti yaratiladi. Ob’yektning biologiyasi va ekologiyasi haqida qancha ko‘p bilimga ega bo‘linsa, ular uchun qulay sharoit yaratish maqsadida muhandislik va boshqa ishlar qanchalik samarali hal qilinsa, yetishtirilayotgan ob’yekt avlodlarining yashovchanligi va tez sur’atlarda o‘sishi shuncha yuqori bo‘ladi.

Solishtirish uchun agrobiznesda bir siklda bitta individdan qancha avlod olish mumkin? Qoramollarda – 1-2 ta, cho‘chqada, quyonda – 15-20 tagacha olish mumkin. Uy parrandalarida bir yilda 100 tadan kam olinadi. Baliqlardachi? Kamalakrang forelda (bu baliq kam miqdorda ikra qo‘yadiganlar toifasiga kiradi) – 2-5 ming, karp va boshqa baliqchilik ob’yektlarida – ishchi mahsuldorlik 500 ming donaga yetadi, aynan O‘zbekiston sharoitida ko‘pchilik boqiladigan baliqlar 1 milliondan ortiq ikra beradi.

Какое потомство получим от одной самки в следующем поколении:




Agrobiznesda bir juft ota-onadan olinadigan avlodlar miqdori.

Dunyo agrobiznesida sut emizuvchi va qushlarning qanchasi madaniylashtiriladi? Sut emizuvchilarning o'nta atrofida (qoramol, qo'y, echki, cho'chqa, quyon, tuya, lama, va boshqalar). Qushlarda ham xuddi shunday holat. Boshqa hayvonlar esa sanoat miqyosida ishlab chiqarilmaydi yoki chorvachilik va parrandachilikdan ustun tura olmaydi. Baliq va boshqa suv hayvonlaridachi? Hozirgi paytda ularning 500 dan ortiq turi madaniylashtirilgan va bu miqdor ortib bormoqda. Baliqchi-tadqiqotchilar yuqori mahsuldor, tez o'suvchi, ozuqasi ma'lum va ekologiyasi yaxshi o'rganilgan, ozuqaliligi qimmatli baliqlarni saralab borishadi. Mana shu ob'yeqtlar uchun iloji boricha optimal sharoit yaratib berishadi. Afrika laqqasi tropik baliq bo'lib, go'yo uni mo'tadil iqlim mintaqasiga iqlimlashtirish mumkin emas va u qishlay olmaydiganday. Aslida esa zamonaviy texnologiya bir necha variantlarni taklif etadi: yosh baliqchalarni vegetatsiya davri boshlanishida olib kelish va ochiq maydonlarda yetishtirish; suv haroratini boshqarish orqali yoki har ikkala usulni qo'llagan holda (qishda boshqariladigan sharoitda, yozda – ochiq maydonda) sun'iy sharoitda yetishtirish.

Quruqlik va suvlikdagi ob'yeqtlni yetishtirishning yana bir jiddiy farqi mavjud. Barcha qishloq xo'jalik hayvonlari maydonning yuza birligida yashaydi (ya'ni bir qavat bo'lib), baliqlar va boshqa gidrobiontlar esa ma'lum hajmda

yashaydi (ya’ni bitta maydonda bir necha qavat bo‘lib). Demak yer yuzasining ma’lum maydon birligida yetishtirilgan baliqlar biomassasi chorvachilik ob’yektlari biomassasidan ancha yuqori bo‘ladi .



Quruqlik va suv ob’yektlarini yetishtirishdagi farqlar.

Akvakulturaning yana bir muhim afzalligi: sut emizuvchilar va qushlar issiqqonli hayvonlar va ular tanasida kechadigan bunday jadal moddalar almashinuvini ta’minalash uchun iste’mol qilgan ozuqasining ancha qismi sarflanadi. Baliq va akvakulturaning boshqa ob’yektlari sovuqqonli bo‘lib, ular tanasida moddalar almashinuvining doimiy tarzda jadal sodir bo‘lishini saqlab turish shart emas, shu jumladan tana haroratini ham. Shuning natijasida baliqlar tomonidan iste’mol qilinadigan ozuqa asosan ularning o’sishiga sarflanadi (ayniqsa voyaga yetmagan baliqlarda).

Quruqlikda hayvon tana zichligi havo zichligidan ancha yuqori bo‘lgan sharoitda, hayvon ozuqasining ancha qismi organizm sinchi bo‘lgan skelet va muskullarni hosil qilish va saqlab turish uchun sarflanadi. Baliq tana zichligi esa suv zichligiga yaqin bo‘lganligi uchun tana sinchi bo‘lgan mana shunday skelet va muskullarga ehtiyoj yo‘q va bu shu narsa ular go‘shtining sifatini yuqori darajada ekanligini ta’minalaydi.

Shunday qilib akvakulturani rivojlantiruvchi yutuqlar baliqlarning biologik xususiyatlariga asoslangan. Hozirgi paytda ushbu bilimlar ayni sharoitda yetishtiriladigan ob'yektlarni yo'naltirilgan tarzda tanlash imkoniyatini beradi va natijalarni yaxshilaydi. Akvakulturani rivojlantirish uchun baliqlarning ekologiyasi va biologiyasini bilish zarur hisoblanadi.

2.1. Baliqlar haqida qisqacha sistematik ma'lumot

Baliqlarga Eukariotlar domeni, Hayvonot dunyosi, Xordalilar tipi (Chordata), Umurtqalilar yoki Bosh skeletlilar kenja tipi, (Uertebrata, ili Croniata), Jag'og'izlilar bo'limi (Gnathostomata), Baliqlar katta sinfiga (Pisses) mansub hayvonlar kiradi. Baliqlar katta sinfi ikkita sinfnini o'z ichiga oladi – bular tog‘ayli baliqlar (Chondrichthyes) va suyakli baliqlar (Osteichthyes) sinflari. Hozirgi paytga kelib dunyo ixtiofaunasida 35 mingdan ko‘proq baliq turlari aniqlangan (2019 y) va har yili o‘rtacha 500 tagacha yangi turlar qayd qilinmoqda.

Baliqlar umurtqalilar ichida eng gullab-yashnayotgan guruh bo‘lib, turlituman sharoitlarda yashaydi: ya’ni okean va dengizlarda, daryo, soy va ko‘llarda (chuchuk suv va sho‘rligi 80% -- gacha bo‘lgan suvlarda), oqmas suvlarda va tez oquvchi suvlarda, tropik, mo‘tadil va qutb mintaqalarda, 6 km balandlikdagi tog‘ suvlardan to 11 km chuqurlikdagi okean suvlardan, harorat -2 do +40°C gacha bo‘lgan keng diapazonda, suv qa’rida, suv tubida, havoda davriy ravishda uchuvchi, quruqlikda o‘rmalovchi va sakrovchi turlari mavjud. Baliqlar turli-tuman sharoitlarda yashashidan kelib chiqib xilma-xil tana shakliga va a’zolar funksiyasiga ega hamda bu narsa akvakultura uchun ob’yekt tanlash imkoniyatini kengaytiradi. Deyarli har qanday sharoitli suv havzasi uchun yetishtiriladigan ob'yekt ni topish mumkin.

2.2. Baliqlar tuzilishining o‘ziga xos xususiyatlari

Baliqlar suv muhitida yashashga moslashgan, ularning tana shakli suyri va terisi shilimshiq modda ajratib uning suvdagi harakatini yengillashtiradi. Shilimshiq modda tanani suvga ishqalanishini kamaytirishdan tashqari bakteritsid xususiyatga ham ega bo‘lib, bu metabolizm mahsulotlarini ajratishda, yarasini tuzalishida, osmotik bosimni boshqarishda, qonni ivishida muhimdir. Ba’zi baliqlar shilimshig‘i zaharli hisoblanadi.

Baliq tanasi bosh (jabra qopqog‘ining orqa chetigacha), tana (anal


teshigigacha yoki anal suzgichining birinchi nurigacha) va dum qismlariga bo‘linadi.



4-rasm. Baliqning tashqi tuzilishi.

Baliq tana shakli ushbu turning yashash sharoitiga va hayot tarziga bog‘liq. Ochiq suv havzalarida yashovchi va uzoq masofalarga suzib boruvchi baliqlar tana shakli suyri shaklda bo‘ladi va *torpedosimon* (seldlar, akulalar, tunetslar, lososlar, ichki suv havzalarida – sudak, jerex, do‘ngpeshona) deb nomlanadi. Tez sakrovchi baliqlar tana shakli cho‘ziq, yelka va qorin suzgichlari dum suzgichiga yaqin joylashgan va bu tezlikni birdan oshirish uchun dum qismining kuchli bo‘lishini ta’minlaydi, bunday tana shakli nayzasimon deb ataladi. Bunday baliqlar uzoq migratsiyalarni amalga oshirmaydi va ularga odatda yirtqichlardan poyloqchi baliq, cho‘rtan, sayra, barrakuda kiradi. Ko‘pchilik baliqlar tez suza olmaydi, ularning shakli *yassi* bo‘lib, tanasi siqilgan va baland (agar yon tomondan siqilgan bo‘lsa – oqcha, karas, skalyariya) yoki *yassi* xuddi chalpakka o‘xshash (agar yelka tomondan siqilgan bo‘lsa - skat). Kambalasimonlar tanasi yon tomondan siqilgan lekin ular suv tubida yonboshi bilan yotadi va hattoki ko‘zлari tanasining bir tomonida joylashgan. Ilonsimon (ugor), lentasimon (seldsimon qirol) tana shakliga ega baliqlar sekin, lekin juda samarali suzadi. Sharsimon shaklli (kuzovka) va o‘ziga xos shaklga ega (dengiz otchasi) baliqlar ham bor. Ko‘pchilik baliqlar tanasi

turli shakllarni o‘zida mujassamlashtirgan (amur ilonboshida o‘qsimon va ugorsimon shakl, zog‘orada – siqilgan va torpedosimon shakl).




1. Торпедовидная
2. Стреловидная.
3. Лентовидная.
4. Угревидная
5. Плоская.
6. Шаровидная.

Baliqlar tana shakli.

Hayot tarzi va asosan oziqlanish xususiyatiga qarab baliqlarning boshi va og‘zining shakli turlicha bo‘ladi. Ozuqasini suv yuzasidan oluvchi baliqlarning og‘zi yuqori og‘iz (qilich baliq). Plankton bilan oziqlanuvchi baliqlar yoki ko‘pchilik yirtqich baliqlarning og‘zi tumshug‘ining oxirida (pelyad, do‘ngpeshona, sudak), bentos bilan oziqlanuvchi baliqlarda og‘iz pastki (karp, oqcha) lekin aynan karpda, oqchada va yana ba’zi baliqlarda og‘iz harakatchan bo‘ladi.

Suzgichlari. Baliqlarning *juft* (ko‘krak va qorin) va *toq* (elka, anal va dum) suzgichlari mavjud. Ba’zi baliqlarda yog‘simon suzgich ham bor (qattiq skeletsiz), bu losossimonlar, sigsimonlar va ba’zi laqqasimonlarda mavjud. Ba’zi o‘ta tez suzadigan baliqlarda qo‘srimcha kichik suzgich bor (elka va anal suzgichlar ortida), bu skumbriya, tunets va sayrada mavjud. Suzgichlar baliqni harakatlanishini ta’minlaydi: masalan dum suzgich burovchi vint rolida bo‘lib, harakatni stabillashtiradi, yelka va anal suzgichlar tana holatini suvda mustahkam

tutib turadi (ya'ni toj vazifasini bajaradi), ko'krak va qorin suzgichlari muvozanatni ushlashda, to'xtashda, harakatni boshqarishda ahamiyatli. Ko'pchilik baliqlarda yelka suzgichi bitta (losossimonlarda, karpsimonlarda), olabug'asimonlarda ikkita, treskasimonlarda uchta bo'ladi.



6-rasm. Turli baliqlarning og'iz shakllari.

Baliqlarning harakatlanishi. Baliqlarda uch xil harakatlanish usullari mavjud: suzish, o'rmalash va uchish. Eng keng tarqalgani suzish bo'lib, tanasini va dumini egish hisobiga amalga oshadi. Tanasini yon tomonga egish hisobiga quyidagi suzish turlari mavjud: *ugorsimon* (harakat paytida butun tana to'lqinsimon egiladi, bu juda samarali harakat turi bo'lib, suzish tezligi yuqori emas, lekin baliq kam energiya sarflaydi, masalan minoga, ugor, vyun), *skumbriyasimon* (suzishda dum katta ahamiyatga ega bo'lib, uning yordamida baliq suvdan itariladi va oldinga harakatlanadi, dumning hissasiga umumiylar harakatlantiruvchi kuchning 40% to'g'ri keladi, bularga skumbriya, losos, akula kiradi).

Baliqlar skeleti tana uchun tayanch, organlarni himoya qiluvchi, tana harakatini ta'minlovchi, ko'p jihatdan baliq tana shaklini va suvdagi holatini belgilab beruvchi bo'lib, muskullar bilan birgalikda harakatlanish tizimini hosil qiladi, bunda muskullarning qisqarishi hisobiga suyaklar harakatga keladi.

Baliqlarning ichki skeleti *o‘q skelet*, *bosh skeleti*, *suzgichlar skeleti*, *juft suzgichlarning kamar skeletiga* bo‘linadi. Tashqi skelet (agar bor bo‘lsa) doimo suyakli bo‘ladi, tog‘ayli baliqlarda u yo‘q (akula, skat). Eng murakkab tashqi skelet osetrsimon baliqlarda bo‘ladi. Boshqa suyakli baliqlarda u suyak tangachadan iborat.

Baliqlar muskul sistemasi: somatik yoki pariyetal (tana muskulaturasi) va visseral (ichki organlar muskulaturasi) qismlarga bo‘linadi. Somatik muskulatura ko‘ndalang-yo‘lli muskullardan, visseral muskulatura esa asosan silliq muskullardan iborat. Baliqlar muskulaturasi segmentlashgan bo‘lib, u ayniqsa tana qismida rivojlangan. Muskullar miomerlarga bo‘lingan, ularning tanani o‘ng va chap tomonlarida navbat bilan qisqarishi dumni egilishiga olib keladi hamda bu ko‘pchilik baliqlarning harakatlanishini ta’minlaydi. Baliqlar tana muskulaturasi rangi, tarkibi va funksiyasiga ko‘ra farq qiladi. Ularda muskul tolachasi bo‘lib, tolachalar oq (och rang), qizil (to‘q) va oraliq rangda bo‘ladi. Oq tolalarda aerob moddalar almashinushi yuz beradi va baliqlarning qisqa vaqtli sakrab harakatlanishini ta’minlaydi. Qizil tolachalarda anaerob moddalar almashinushi yuz beradi va ular uzoq muddatli o‘rtacha jadallikdagi harakatni ta’minlaydi.

Baliqlarning ovqat hazm qilish tizimiga og‘iz bo‘shlig‘i, xalqum, qizilo‘ngach, oshqozon va ichak kiradi. Ko‘pchilik baliqlarning og‘iz bo‘shlig‘idagi jag‘larda tishlar bo‘lib, plakoid tangachaning shakli o‘zgarishidan kelib chiqqan. Tishlar ildizga ega emas va to‘kilganlari o‘rniga yangilari chiqib turadi. Yaxlitboshlilar va ikki yoqlama nafas oluvchilarning tishlari butun umr davomida o‘sib boradi. Ko‘pchilik yirtqich bo‘lmagan baliqlarning og‘iz bo‘shlig‘ida tishlar bo‘lmaydi (karpsimonlarda). Turli taksonlarga kiruvchi baliqlarning tishlari nafaqat jag‘larda balki og‘iz bo‘shlig‘idagi boshqa suyaklarda ham va hattoki tilida ham bo‘lishi mumkin (baliqlarning o‘z muskuliga ega haqiqiy tillari yo‘q, uning vazifasini til osti yoyi, ya’ni kopula bajaradi).

Og‘iz bo‘shlig‘i xalqumga o‘tadi va uning devorlari tashqariga ochiluvchi jabra yoqlariga ega jabra yoriqlari bilan kesilgan. Jabra yoqlarining ichki tomonida jabra qilchalari joylashgan bo‘lib, ularning tuzilishi baliqning oziqlanish xarakteriga bog‘liq. Yirtqich baliqlarda jabra qilchalari kam miqdorda bo‘lib, ular

kalta va jabra yaproqlarini himoya qilish hamda ozuqani tutib qolish vazifasini bajaradi. Planktonxo‘rlarda jabra qilchalari ko‘p, uzun va ozuqa organizmlarni suzib qolish uchun xizmat qiladi.

Yirtqich baliqlar yuqori xalqum (jabra yoylarining yuqori elementida) va pastki xalqum (chala rivojlangan beshinchi jabra yoyida) tishlariga ega. Xalqum tishlari supacha shaklida bo‘lib, kichik tishchalar bilan qoplangan va o‘ljasini ushlab turish vazifasini bajaradi. Pastki xalqum tishlari karpsimonlarda kuchli rivojlangan. Ular xalqumining yuqori devorida qattiq tegirmon toshiga o‘xhash shoxsimon tuzilma mavjud bo‘lib, ozuqani maydalashda ishtirok etadi. Xalqum tishlari bir qatorli (oqcha, qizilko‘z), ikki qatorli (gustera, moy baliq) va uch qatorli (zog‘ora, mo‘ylov baliq) bo‘ladi. Xalqum tishlari har yili almashinib turadi.

Xalqum kalta qizilo‘ngachga o‘tadi. Ko‘pchilik baliqlarda qizilo‘ngach oshqozonga tutashadi. Oshqozonning tuzilishi va o‘lchami oziqlanish xarakteriga bog‘liq. Masalan, cho‘rtan baliq oshqozoni naysimon, olabug‘aniki ko‘r o‘samtali, ba’zi baliqlarniki lotincha V harfiga o‘xhash bukilgan (akula, skat, losos va boshqalar). Oshqozon ikki qismidan iborat bo‘lib, oldingi qismi kardial va keyingi qismi pilorik deb ataladi. Ba’zi baliq turlarida oshqozon mavjud emas (karpsimonlarda, ikki yoqlama nafas oluvchilarda, yaxlitboshlilarda). Ularda ozuqa qizilo‘ngachdan to‘g‘ri ichakka tushadi, ichak esa uchta bo‘limga bo‘linadi: oldingi, o‘rta va orqa.

Ichakning oldingi qismiga ikkita ovqat hazm qilish bezlarining yo‘llari ochiladi, bular – jigar va oshqozon osti bezi. Jigar o‘t suyuqligi ishlab chiqarib, ovqat tarkibidagi yog‘ni emulsiyalaydi va ichakning peristaltikasini kuchaytiradi. Jigarda yana zaharli moddalar zararsizlantiriladi, oqsillar va uglevodlar sintezini amalga oshiradi, glikogen, yog‘ va vitaminlar to‘planadi (akula, treskasimonlar).


Tog‘ayli va osetrsimon baliqlar alohidashgan oshqozon osti beziga ega. Ko‘pchilik baliqlarda ushbu bez mavjud emas, ularda oshqozon osti bezi to‘qimasi jigarda joylashgan (karpsimonlar), ba’zi baliqlarda esa u o‘t pufagi va uning yo‘lida, taloqda, ichak mezenteriyasida joylashgan bo‘ladi. Oshqozon osti bezi ichak bo‘shlig‘iga bir qator fermentlarni ishlab chiqaradi va ular yordamida yog‘lar, oqsillar va uglevodlar hazm bo‘ladi. Uning orolcha hujayralari (endokrin)

insulin gormonini ishlab chiqaradi va ushbu gormon qondagi qand miqdorini boshqaradi.

Baliqlarning nafas olishi. Baliqlar uchun ikki xil nafas olish turlari mavjud: suvda (jabra va terisi orqali) va havoda (terisi, suzgich pufagi, ichagi va jabra usti organi orqali) nafas olish. Shundan kelib chiqib baliqlarning nafas olish organi asosiy (jabralar) va qo'shimcha (boshqa barcha organlar) turlarga bo'linadi.

Baliq embrionida nafas olish embrion xaltasidagi va suzgich qanotlar burmalaridagi qon tomirli to'rlar orqali sodir bo'ladi, ba'zi baliqlarning lichinkalarida tashqi jabra – teri bo'rtmalari bo'lib, qon tomirlari bilan ta'minlangan bo'ladi (ikki yoqlama nafas oluvchilar, ko'p qanotlilar, vyunlar va boshqalar).

Voyaga yetgan baliqlarning asosiy nafas olish organi jabralar bo'lib, u yerda gazlar almashinushi sodir bo'ladi (kislородни qabul qilish va karbonat angidridni ajratish), jabralar yana suv-tuz almashinuvida qatnashadi, ammiak va mochevinani ajratadi. Suyakli baliqlarda to'rtta jabra yoylari va shuncha butun jabralar bo'ladi (orqadagi beshinchchi jabra yoyi jabra yaproqlariga ega emas). Har bir jabra ikkita yarim jabradan iborat, lekin yaxshi rivojlangan jabra qopqog'ining mavjudligi tufayli jabralararo to'siq butunlay qisqarib ketgan va jabra yaproqlari to'g'ridan-to'g'ri jabra yoylarida joylashgan, bu esa jabralarning nafas olish yuzasini oshiradi. Jabralarning asosini suyakdan tuzilgan jabra yoylari tashkil etadi va ularda uchburchak shaklidagi jabra yaproqlari joylashgan bo'ladi. Jabra yaproqlari ikkala tomonidan ham jabra yaproqchalari bilan qoplangan (yoki respirator burmalar bilan) va u yerda gaz almashinushi sodir bo'ladi. Suyakli baliqlar jabra orqali nafas olganda suv og'iz orqali xalqumga borib, jabra yaproqlari orqali o'tib qonga kislород beradi, qondan karbonat angidrid gazini olib jabra bo'shlig'i orqali tashqariga chiqib ketadi.



7-rasm. Suyakli baliqlar jabrasining tuzilishi (chizma)

Evolyutsiya jarayonida kislorod yetishmaydigan suv havzalarida baliqlarda qo'shimcha nafas olish a'zolari paydo bo'lgan. Teri orqali nafas olish deyarli barcha baliqlarda rivojlangan. Issiq suvli oqmas suvliklarda 20% atrofidagi kislorod baliqlarning terisi orqali kiradi, bazan esa bu ko'rsatkich 80% gacha ko'tariladi (karp, karas, lin, laqqa). Kislorod miqdori yuqori bo'lgan suv havzalarida teri orqali nafas olish 10% dan oshmaydi. Yosh baliqlar voyaga yetgan baliqlarga nisbatan teri orqali ko'proq nafas oladi.

Ba'zi baliq turlarida atmosfera havosidan jabra usti organi orqali nafas olish rivojlangan. Ularning ko'pchiligida xalqumning ustki qismida juft kovak kameralar (jabra usti bo'shlig'i) mavjud bo'lib, u yerda shilimshiq parda ko'plab burmalar hosil qilgan va bu burmalar kapillyar qon tomirlari bilan ta'minlangan (ilonbosh). O'rmalovchi baliqda shilimshiq parda burmalari labirintsimon egilgan suyak plastinkalar bilan ta'minlangan va u birinchi jabra yoyidan chiqib ketgan (o'rmalovchi baliq, petushka, gurami, makropoda). Afrika laqqasining jabra bo'shlig'idan toq daraxtsimon shoxlangan jabra usti organi o'tgan bo'lib, u jabraning ustida va orqasida joylashgan. Xaltasimon jabrali laqqalarda ko'r qopchalar bo'lib, jabra bo'shlig'idan boshlanib umurtqa bo'ylab cho'zilgan va dum qismigacha yetib borgan. Jabra usti organiga ega baliqlar atmosfera kislorodidan nafas olishga moslashgan va agar ular suv yuzasiga chiqib havodan nafas olish


imkoniyatiga ega bo‘lmasa, suv kislorodga to‘yingan bo‘lsa ham bo‘g‘ilib o‘ladi.

Ba’zi baliqlarda qo‘sishimcha ichak orqali nafas olish mavjud. Ichak ichki bo‘shlig‘ining bir qismi ovqat hazm qilish bezlariga ega emas va kapillyar qon tomirlarga boy hamda bu yerda gaz almashinushi sodir bo‘ladi. Og‘iz orqali yutilgan havo ichak orqali o‘tib anal teshigi orqali tashqariga chiqib ketadi (vyun balig‘ida) yoki qaytadan og‘iz orqali chiqib ketadi (tropik laqqalarda). Ba’zi tropik baliqlarda havodan nafas olish uchun oshqozon yoki oshqozonning havoga to‘la mahsus ko‘r o‘sintasidan foydalanadi.

Baliqlar qoni boshqa umurtqalilar qoni singari transport (oziq moddalar, kislorod, ayiruv mahsulotlari, ichki sekretsiya bezi mahsulotlari va boshqalar) va himoya (zararli moddalar va mikroorganizmlardan) funksiyalarini bajaradi. Qon miqdori to‘garak og‘izlilarda tana og‘irligining 4-5% ni, baliqlarda – 1,5 dan (skat) 7,3% gachani (stavrida) tashkil qiladi. Baliqlar qoni plazmadan (yoki qon suyuqligi) va shaklli elementlardan eritrotsitlar (qizil), leykotsitlar (oq) va trombotsitlardan (qon plastinkalari) iborat. Baliqlar qoni sut emizuvchilarga nisbatan murakkab morfologik tuzilishga ega ya’ni ularning qon o‘zanlarida shaklli elementlarning har bir rivojlanish fazasidagi turlari uchraydi, chunki qon hosil qiluvchi organlar bilan bir qatorda qon tomirlar ham qon hosil qilishda ishtirok etadi. Eritrotsitlar ellipssimon shaklda bo‘lib yadroga ega. Ularning soni baliq jinsiga, yoshiga, yashash sharoitiga bog‘liq hamda 90 ming/mm³ dan (akulada) 4 mln./mm³ (pelamida) gacha bo‘ladi. Eritrotsitlar tarkibida gemoglobin (nafas pigmenti) bo‘lib, kislorodni nafas olish organlaridan tananing barcha to‘qimalariga yetkazib beradi. Qondagi gemoglobin miqdori ularning harakatchanligiga bog‘liq ya’ni tez suzuvchi baliqlarda ular ko‘p bo‘ladi. Skatlarning qonidagi gemoglobin miqdori 0,8-4,5 g/%, akulalarda – 3,4-6,5 g/%, suyakli baliqlarda – 1,1-17,4 g/% bo‘ladi. Ko‘pchilik baliqlar qoni qizil rangda, ba’zi antarktika baliq turlarining qoni va jabrasi rangsiz, ular qonida eritrotsitlar deyarli yo‘q (muz baliqda). Leykotsitlar baliq organizmini zararli moddalardan va mikroorganizmlardan himoya qiladi. Ularning miqdori ko‘p va baliq turiga, jinsiga, fiziologik holatiga, kasallikning mavjudligiga bog‘liq. Yersh balig‘ida ularning miqdori 75 mingdan 325 ming/mm³ gachani (odamda 6-8 ming/mm³) tashkil etadi. Leykotsitlar

sonining ko‘p miqdorda bo‘lishi baliqlar qonining yuqori himoya qobiliyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi. Trombotsitlar nisbatan yirik bo‘lib yadroli hujayra, baliqlarda ularning soni ko‘p va qon ivishida ishtirok etadi. Shunday qilib baliqlar qoni quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega: eritrotsitlarda va trombotsitlarda yadro mavjud, eritrotsitlar va gemoglobinlar miqdori nisbatan kam, leykotsitlar va trombotsitlar miqdori ko‘p. Dastlabki ikkita belgi baliqlar qon aylanish tizimining primitivligini bildiradi, uchinchi xususiyat esa uning yuqori darajada ixtisoslashganini ko‘rsatadi.

Baliqlarning qon aylanish sistemasi yurak va qon tomirlar tizimini o‘z ichiga oladi. Baliqlar yuragi ikki kamerali (bo‘lmacha va qorincha) va o‘zida faqat venoz qon saqlaydi (ikki yoqlama nafas oluvchilardan tashqari).



8-rasm. Baliqlarning qon aylanish sistemasi.

Baliqlarning qon aylanish tizimi yopiq va unga arteriyalar (yurakdan qon olib keluvchi tomirlar), venalar (yurakka qon olib keluvchi tomirlar) kiradi. Organ va to‘qimalarda arteriyalar va venalar kapillyarlarga tarmoqlanib ketadi. Qon aylanish doirasi bitta (ikki yoqlama nafas oluvchilardan tashqari). Venoz qon yurakdan chiqib qorin aortasiga o‘tadi, undan esa to‘rtta olib keluvchi jabra arteriyalari orqali jabralarga keladi. Jabralarda qon oksidlangach arterial qonga aylanadi va to‘rtta olib chiquvchi jabra arteriyalari orqali yelka aortasiga o‘tib, miya

qopqog‘ining ostidan o‘tadi va old tomonida o‘zaro qo‘shilib boshda aylana hosil qiladi hamda undan boshning turli qismlariga qon tomirlari ketadi. Jabra bo‘limining ortida yelka aortasining ildizlari o‘zaro qo‘shilib yelka aortasini hosil qiladi va umurtqa pog‘onasi ostida tana bo‘ylab ketadi. Yelka aortasidan arteriyalar shoxlanib ichki organlar, muskullar va terini arterial qon bilan ta’minlaydi. Keyinchalik yelka aortasi umurtqa pog‘onasining dum bo‘limida gemal kanal orqali dum qismiga boradi va dum arteriyasi deb nomlanadi.

Barcha arteriyalar kapillyarlar to‘riga aylanadi va ular devori orqali qon bilan to‘qimalar o‘rtasida moddalar almashinushi sodir bo‘ladi. Qon kapillyarlardan vena qon tomirlariga yig‘iladi. Asosiy vena qon tomirlari bular oldingi va orqa kardinal venalar hisoblanadi. Bosh tomondan keladigan vena qonining bir qismi ya’ni boshning yuqori qismidan keluvchi qon oldingi kardinal venalarga, boshqa qismi esa, ya’ni boshning pastki qismidan keluvchi qon toq kovak venaga quyiladi, ko‘krak suzgichlardan keluvchi vena qoni o‘mrov osti venasiga quyiladi.

Baliqlarning ayiruv sistemasi organizmdan moddalar almashinushi mahsulotlarini ajratib, tashqi muhitga chiqarish va suv-tuz tarkibini ta’minlashdir. Asosiy ayiruv organlariga juft tana buyragi va ularning siyidik – chiqaruv kanallari kiradi. Ayiruv tizimiga bulardan tashqari qo‘sishimcha ayiruv organlari, ya’ni teri, jabra va ichaklar ham kiradi.

Tana buyragining asosiy qismini nefronlar tashkil etadi va ular o‘z navbatida malpigiyan tanachalaridan (boumen kapsulasida joylashgan kapillyar qon tomirli tugunchadan) va ayiruv kanalidan iborat. Siyidik (ayiruv) kanalchalari kapsuladan chiqib, yirikroq kanallarga birlashadi va siyidik kanallariga quyiladi. Buyraklar uchta bo‘limdan iborat: oldingi, o‘rta, orqa va ular turli baliqlarda turlicha shakllarda bo‘ladi. Barcha baliqlarda buyrakning oldingi qismi bosh buyrak deb ataladi. Ko‘pchilik baliqlarda chap va o‘ng buyraklarning ba’zi qismlari qo‘silib ketadi.

Moddalar almashinushi mahsulotlari qon bilan birgalikda buyraklarga olib kelinadi va u yerda qon tozalanadi. Qon buyrakka buyrak arteriyalari orqali kiradi, venoz qon esa dum bo‘limidan darvoza venalari orqali kiradi. Arterial qon buyrak arteriyalari orqali qon tomirli tugunchalarga keladi va u yerda filtrlanib birlamchi

siyidik hosil bo‘ladi. Qon tomirli tugunchalardan chiqqan qon tomirlar buyrak darvoza sistemasi bilan birgalikda ayiruv kanallarini o‘rab oladi va yig‘ilib orqa kardinal venalarni hosil qiladi. Ayiruv kanalchalarining o‘rtalarda qismida organizm uchun foydali bo‘lgan moddalar qayta so‘riladi (qand, vitaminlar, aminokislotalar, suv) va ikkilamchi yoki so‘nggi siyidik hosil bo‘ladi.

Tog‘ayli baliqlarning asosiy ayiruv mahsuloti mochevina, suyakli baliqlarda esa ammiak hisoblanadi (ammiak mochevinaga qaraganda zaharliroq). Bosh buyrakning chiqaruv yo‘li pronefrik kanal bo‘lib, tana buyragining rivojlanishida ikkita kanalga – volf va myuller kanallariga ajraladi. Tog‘ayli baliqlar urg‘ochisida myuller kanal ikra yo‘li vazifasini bajaradi, erkaklarida esa u reduksiyaga uchragan bo‘ladi. To‘garak og‘izlilar, suyakli baliqlar va tog‘ayli baliqlarning urg‘ochilarida volf kanal siyidik yo‘li vazifasini bajaradi.

Suyakli baliqlarda kloaka yo‘q (ikki yoqlama nafas oluvchilardan tashqari), ayiruv va jinsiy yo‘l butunlay ajragan. Siyidik kanali (volf kanal) buyrakdan chiqishda o‘zaro toq siyidik yo‘liga qo‘shiladi va qorin bo‘shlig‘i orqa qismida siyidik pufagini hosil qiladi. Siyidik pufagi anal teshigi orqasidagi siyidik teshigi orqali tashqariga ochiladi (ikki yoqlama nafas oluvchilarda kloakaga ochiladi).

Ayiruv mahsulotining tashqariga chiqarilishi baliqlarda suv-tuz almashinushi bilan kuchli tarzda bog‘liq. Dengiz va chuchuk suvda yashovchi baliqlarda bu jarayon turlichcha kechadi.

Chuchuk suv baliqlari gipotonik muhitda yashaydi (qon va to‘qima suyuqligining osmotik bosimi tashqi muhitnikidan yuqori bo‘ladi). Bunday sharoitda suv doimiy tarzda teri, jabra va ozuqa orqali organizmga kirib turadi. Natijada organizmda suvlanish sodir bo‘ladi. Baliqlar suvlanishdan saqlanish uchun buyraklari juda yaxshi filtrlash ishlarini olib boradi va natijada katta miqdordagi siyidikni tashqariga chiqarib tashlaydi (bir kunda 1 kg massa hisobiga 50–300 l??). Siyidik bilan chiqib ketgan tuz miqdori buyrak kanalchalarini orqali faol qayta reabsorbsiya hisobiga va jabra orqali suv bilan hamda bir qismi ovqat bilan birga qoplanadi.

Dengizlardagi suyakli baliqlar gipertonik muhitda yashaydi (ya’ni qon va to‘qima suyuqligining osmotik bosimi tashqi muhitnikidan past bo‘ladi) va

natijada suv organizmdan teri, jabra, siydirik va fekaliya orqali chiqib ketadi. Demak organizmda suvsizlanish sodir bo‘ladi. Baliqlar qurib qolmaslik uchun sho‘r suv ichib turishadi (1 kg massa uchun bir kunda 40 ml dan 200 ml) va bu suv ichakdan qonga so‘riladi. Ortiqcha tuz ovqat qoldig‘i bilan birga tashqariga chiqarib tashlanadi hamda jabra apparatining ajratuvchi hujayralari orqali ham chiqariladi. Dengiz suyakli baliqlarining buyraklarida tugunchalar soni kam bo‘ladi, ba’zi baliqlarda esa butunlay yo‘qoladi (dengiz ignasi, dengiz shaytoni). Shunday qilib buyraklar kam miqdordagi siydirikni ayiradi (bir kunda 1 kg massa hisobiga 5-20 ml).

O‘tkinchi baliqlar bir muhitdan ikkinchi muhitga o‘tishda osmoregulyatsiya usulini o‘zgartirishi mumkin: masalan dengiz muhitida xuddi dengiz baliqlari singari, chuchuk suvlarda esa xuddi chuchuk suv baliqlari singari. Suv-tuz almashinuviga suyakli baliqlarning mana shunday moslashishlari ularning sho‘r va chuchuk suvlarni keng o‘zlashtirishlariga olib keldi.

Baliqlarning ko‘payish sistemasi jinsiy bezlar (gonadalar; erkaklarida – urug‘don, urg‘ochilarida – ikradon) va chiqaruv yo‘llaridan iborat. Urug‘donlar urug‘ kanalchalar sistemasiidan iborat bo‘lib, ular umumiylar urug‘ yo‘liga quyiladi. Ikkala urug‘don urug‘ yo‘llari umumiylar jinsiy yoki siydirik-tanosil teshigi orqali tashqariga ochiladi. Ikradonlar o‘z bo‘shlig‘iga ega bo‘lib unda ikra tashuvchi plastinkalar osilib turadi. Ko‘pchilik suyakli baliqlarda ikradon qobig‘i kalta yo‘l – ikra yo‘li shaklida siydirik-tanosil sinusi tomonga davom etadi yoki alohida jinsiy teshikka ochiladi (yopiq tipdagisi ikradon). Ba’zi turlarda (losossimonlar, vyunsimonlar, ўapirovkalar, murensimonlar) ikra yo‘li yo‘q va ikra tana bo‘shlig‘iga tushib, jinsiy teshik orqali tashqariga chiqadi (ochiq tipdagisi ikradon).

Ko‘pchilik suyakli baliqlarda urug‘lanish tashqi, kam turlardagina ichki urug‘lanish sodir bo‘ladi. Ko‘pchilik suyakli baliqlar ayrim jinsli. Lekin tosh olabug‘asida va dengiz karasida germafroditizm aniqlangan: bunda har bir individ ham erkaklik ham urg‘ochilik jinsiy bezlariga ega va ular odatda navbat bilan yetiladi, bu narsa esa o‘z-o‘zini urug‘lantirish imkonini yo‘qqa chiqaradi. Ba’zi guban baliqlarida ikkala jinsiy bez ham parallel ishlaydi va bu ularning tez sur’atda erkaklikdan urg‘ochilikka va aksincha tarzda o‘zgarishiga olib keladi.

Baliqlarning nerv sistemasi organizmni tashqi muhit bilan bog‘laydi va ichki organlar faoliyatini boshqaradi. Baliqlarda u markaziy (bosh va orqa miya) va periferik (bosh va orqa miyadan chiquvchi nervlar) nerv sistemasiga bo‘linadi. Periferik nerv tizimi somatik (orqa miyadan chiqib ketuvchi nervlar bo‘lib, ko‘ndalang-yo‘lli muskulaturani innervatsiya qiladi va tananing sezuvchanligini ta’minlaydi) va vegetativ (bosh va orqa miyadan chiqib ketuvchi nervlardan tashkil topgan bo‘lib, ichki organlarni innervatsiya qiladi hamda simpatik va parasimpatik qismlarga bo‘linadi).

Baliqlar bosh miyasi oldingi miya, oraliq miya, o‘rta miya, miyacha va uzunchoq miyadan iborat.

Baliqlar oldingi miyasi hidni sezish markazi hisoblanadi (oldingi miya o‘simtasi) va to‘da bo‘lib harakatlanishni boshqaradi, ikkita yarim shardan va to‘liq bo‘lmagan to‘sqidan hamda bitta bo‘shliqdan iborat.

Oraliq miya birlamchi ko‘rish markazi bo‘lib xizmat qiladi, undan ko‘rish nervlari chiqib ketadi va voronkasi oldida xiazma (nervlar kesishuvi) hosil qiladi. Bundan tashqari u bilan bog‘langan miyaning barcha bo‘limlaridan keluvchi qo‘zg‘alishlarni o‘zgartirib beruvchi markazdir, gormonal (epifiz, gipofiz) faoliyati orqali metabolizmni boshqarishda ishtirok etadi. Oraliq miya uch qismga bo‘linadi: epitalamus (tepachani ustki qismi), talamus (o‘rta yoki tepacha qismi), gipotalamus (tepachani pastki qismi). *Epitalamus*: minogada bu yerda yorug‘likni sezuvchi organlar joylashgan; baliqlarda bu organ qisman reduksiyaga uchragan, qisman epifizga qo‘shilan. *Talamus* ko‘rvu do‘mboqlari bo‘lib, uning o‘lchami ko‘rish o‘tkirligi bilan bog‘liq. *Gipotalamus* (oraliq miyaning pastki qismi) voronkani o‘z ichiga oladi (kovak o‘simta), gipofiz (ichki sekretsiya bezi) va tomirli xaltachadan iborat bo‘lib, xaltachada bosh miya qorinchasini to‘ldirib turuvchi suyuqlik hosil bo‘ladi.

O‘rta miya keng asosga va ko‘rish bo‘lagiga ega bo‘lib ko‘rish markazi hisoblanadi, muskullar tarangligi va tana muvozanatini boshqaradi. O‘rta miyadan ko‘zni harakatga keltiruvchi nerv chiqib ketgan.

Miyacha nerv moddasidan iborat bo‘lib, suzish bilan bog‘liq harakat koordinatsiyasi uchun javob beradi, u ayniqsa tez suzuvchi baliqlarda yaxshi

rivojlangan (akula, tunets).

Uzunchoq miyadan bosh nervlarining katta qismi chiqib ketadi va ular nafas olish organlarini, muvozanat va eshitish, tuyg‘u, yon chiziq organining sezishi, yurak, ovqat hazm qilish sistemasini nervlaydi. Uzunchoq miyaning pastki qismi orqa miya bilan tutashadi.

Baliqlarda bosh miyadan 10 juft nervlar chiqib ketadi:

- I. Hidlov (oldingi miyadan).
- II. Ko‘ruv (oraliq miya tubidan).

III. Ko‘zni harakatga keltiruvchi nerv (o‘rta miya tubidan).

IV. G‘altak nerv (o‘rta miya tomidan), ko‘z muskullaridan birini innervatsiya qiladi.

Qolgan barcha nervlar uzunchoq miyadan chiqib ketadi.

V. Uchlik nerv jag‘muskullarini, bosh tepa qismining terisini, shilimshiq og‘iz bo‘shlig‘ini innervatsiya qiladi.

VI. Uzoqlashtiruvchi nerv ko‘z muskullaridan birini innervatsiya qiladi.

VII. Yuz nervi ko‘plab tarmoqlarga bo‘lingan bo‘lib, boshning ayrim qismlarini innervatsiya qiladi.

VIII. Eshituv nervi ichki quloqni innervatsiya qiladi.

IX. Til xalqum nervi xalqum shilimshiq pardasini, birinchi jabra yoyini innervatsiya qiladi.

X. Adashgan nerv (n. vagus) ko‘plab tarmoqlarga ega bo‘lib, jabra muskulaturasini, ichki organlarni va yon chiziqni innervatsiya qiladi.

Orqa miya umurtqa pog‘onasining umurtqalar yuqori yoylari hosil qilgan orqa miya kanalida joylashgan. Orqa miya markazida kanal o‘tgan (nevrotsel) bo‘lib, bosh miya qorinchasining davomi hisoblanadi. Orqa miyaning markaziy qismi kulrang moddadan, periferik qismi esa oq moddadan tashkil topgan. Orqa miya bo‘g‘imli tuzilishga ega, umurtqalar soniga teng bo‘lgan bo‘g‘imlarning har birini ikkala tomonidan nervlar chiqib ketgan. Orqa miya nerv tolalari orqali bosh miyaning turli bo‘limlari bilan bog‘langan va nerv impulslarining qo‘zg‘alishlarini o‘tkazib beradi hamda shartsiz harakat reflekslarining markazi hisoblanadi.

2.3. Baliqlar o'sishi

Baliqlar o'lchami turli xil bo'ladi. Masalan o'lkan baliqlardan kitsimon akulaning uzunligi 20 m dan og'irligi 15 t dan ortiq, gigant akulaning uzunligi 15 m gacha, og'irligi 4 t gacha, chuchuk suv belugasining uzunligi 4 m dan, og'irligi 1 t dan ortiq, Yevropa laqqasining uzunligi 5 m va og'irligi 300 kg gachani tashkil etadi. Shu bilan birga juda kichik baliqlar ham bor: Filippin orollarida tarqalgan buqa baliqlar 10-11 mm ni, Berg kaspiy buqa balig'i 31 mm gachani tashkil etadi. Dengiz ixtiofaunasida chuchuk suvdagilarga qaraganda baliqlar yirikroq o'lchamlarga ega bo'ladi.

Baliqlarning o'sishi – yillar davomida tana o'lchamlarining ortishidir. Baliqlar issiqonli hayvonlardan farqli ravishda butun umri davomida o'sadi (sut emizuvchilar va qushlarda jinsiy voyaga yetgandan so'ng o'sish deyarli to'xtaydi), lekin ularning o'sishi ya'ni bo'yining o'sish sur'ati jinsiy voyaga yetgandan so'ng sekinlashadi (ammo to'xtamaydi), tana og'irligi esa ko'pincha ortib boradi. Baliqlar populyatsiyasining o'sish sur'ati va shu bilan birga jinsiy voyaga yetish vaqt abiotik va biotik omillar, masalan gidrologik tartibot ta'sirida, ozuqa miqdori, avlodlar soni va boshqalar ta'sirida ham kuchli tarzda o'zgaradi.

Ko'pchilik baliqlarda erkaklari urg'ochilariga qaraganda sekinroq o'sadi.

Yil davomida baliqlarning o'sishi notejis bo'ladi. Eng tez o'sish sur'ati baliqlarning jadal oziqlanish davriga to'g'ri keladi va bu davr mo'tadil iqlim mintaqalarida yilning issiq davrlariga to'g'ri keladi. Gidrologik qish davrida baliqlarning o'sishi juda sekinlashadi yoki butunlay to'xtaydi.

Baliqlar o'sishiga turli omillarning ta'siri. Tashqi muhit omillari baliqlarning o'sishiga kuchli ta'sir etadi, bularga suvning harorati, yorug'lik, gaz moddalar miqdori (birinchi navbatda – kislorod), suv havzasasi aholisining zichligi, ozuqaning miqdori hamda uni egallanish darajasi va boshqalar kiradi.

Har bir baliq turi uchun *optimal harorat* va boshqa *abiotik omillar* xos bo'lib, bunda moddalar almashinuvi jadal kechadi va buning natijasida baliqlar tez o'sadi. Bundan tashqari ayni tur yashashi mumkin bo'lgan muhit omillarining yuqori va pastki chegaralari ham mavjud.

Baliqlarning o'sishi uchun muhim omillarga ozuqaning miqdori, uni

egallanish darajasi va oziqlanish sharoiti kiradi.

Bir turga kiruvchi lekin turli suv havzalarida yashovchi baliqlar yoki uning turli populyatsiyalarida va hattoki bir populyatsiyaga mansub turli avlodlarning o'sishi ko'pincha bir-biridan keskin farq qiladi. Bu holat iqlim sharoiti tufayli oziqlanish davriningfarq qilishiga, ozuqaning miqdori va sifatiga, populyatsiya tarkibidagi individlar soniga va alohida avlodlar soniga bog'liq. Misol uchun oqcha balig'i Yevropaning shimoliy qismida O'zbekiston dagiga qaraganda sekin o'sadi, chunki bu yerda oziqlanish davri uzoqroq davom etadi.

Baliqlar umrining davomiyligi turlicha. Masalan karptishlisimonlar turkumining ba'zi vakillari (notobranxiyalilar — *Nothobranchius*, afiosemionlar — *Aphyosemion*, tsinolebiyalar — *Cynolebias*) bor-yo'g'i bir necha oy yashaydi xolos va ular hayotining 2-3 oyida jinsiy voyaga yetadi. Yozning jazirama kunlarida suv havzasi qurib qoladi va baliqlar o'ladi, lekin ular qo'ygan ikralar yashovchanligini saqlab qoladi.

Ko'pchilik o'lchami uncha katta bo'limgan baliqlar ham qisqa yashash muddatiga ega. Anchous (hamsa), azov tyulkasi, uch ignali kolyushka va yana ko'plab baliqlar bor-yo'g'i 2-3 yil yashaydi xolos. Orol dengizi havzasining ichki suvliklaridagi baliqlardan qizilko'z baliq, qumbaliq va boshqa mayda baliqlar ham shuncha umr ko'radi. Tinch okeani losossimonlariga kiruvchi baliqlarning hayoti birinchi ko'payish davridan keyinoq tugaydi, masalan bukri baliqda bu 1-yoshda, keta va kijuchda 3 yoshda sodir bo'ladi. Uzoq yashovchilarga osetrsimonlarning ba'zi vakillari (beluga va kaluga) kiradi va ular 100 yilgacha yashaydi, cho'rtan, zog'ora, laqqa, paltuslar 30 yosh va undan ham ko'proq umr ko'rishadi.

Baliqlarning yosh guruhlari. Bir xil yoshdagи baliqlar to'plami yosh guruhlarini hosil qiladi. Baliqchilikda yosh guruhlarini to'g'ri ko'rsatish muhim hisoblanadi.

• *Bir yozgi baliqchalar (Segoletka)* – shu yil tug'ilgan va yozning ikkinchi yarmidagi baliq, ular «0» belgi bilan belgilanadi. Yozning birinchi yarmida ular chavoq (*malek*) deb nomlanadi.

• *Bir yillik baliq* – qishlab chiqqan segoletkalar, ular «1» belgisi bilan belgilanadi.

- *Ikki yozgi baliq* – ikkita vegetatsion davrni yashab o‘tan, ya’ni yozning ikkinchi yarmi yoki kuzgacha yashagan baliq, «1+» belgi bilan belgilanadi.

- *Ikki yillik* – ikki yozli baliqning qishdan chiqqan davri, ya’ni ikki yoshli, «2» belgi bilan belgilanadi.

- *Uch yozgi baliq* – ikki yillik baliqning yozni ikkinchi yarmidagi holati, «2+» belgi bilan belgilanadi.

- *Va hokazo.*

2.4. Baliqlarning ko‘payishi

Ko‘payish xususiyati – populyatsiyalarning yashashi uchun eng muhim xususiyatlardan biridir. Populyatsiyalarning ko‘payishi o‘zini qayta hosil qilishga maksimal darajada qaratilgan va bu bir qator moslashishlar orqali amalga oshadi: populyatsiya individlarining jinsiy voyaga yetish yoshi, ota-onalar baliqlarning o‘lchami va ularning yashash muddati, to‘dadagi jinslar nisbati, baliqlarning ko‘payish davrlari, mahsuldorlik, ikralar o‘lchami, naslga g‘amxo‘rlik qilish darajasi, reproduktiv faoliyat uchun energiya sarflash ko‘rsatkichi va boshqalar.

Baliqlarning moslashish xilma-xilligi juda yuqori va ko‘payish ekologiyasining barcha jihatlari bo‘yicha boshqa barcha hayvonot dunyosidan ancha ustun turadi.

Baliqlarning jinsiy voyaga yetishi – bu ikkita o‘zaro bog‘liq jarayon: *gametogenetz* (jinsiy hujayralarning rivojlanishi, urg‘ochilarda – oogenez, erkaklarda – spermatogenetz) va *gonadogenetz* (jinsiy bezlarning rivojlanishi).

Jinsiy hujayralar organizmning butun hayoti davomida reproduktiv jarayon tugagunga qadar rivojlanadi.

Jinsiy hujayralarning rivojlanishi jinsiy bezlarda – gonadalarda kechadi. Baliqlar gonadalarini rivojlanishi ketma-ket keluvchi davrlardan iborat bo‘lib, bu jarayon organizmning umumiy rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq holda kechadi. Ixtiologlar gonadalar rivojlanishini tavsiflovchi jinsiy voyaga yetish ko‘rsatkichi bo‘yicha davriylikni ishlatalishadi va bu davriylik turli jinslar uchun hamda turli sistematik guruhlar uchun alohida ishlab chiqilgan. Baliqlar o‘sishi bilan gonadalar o‘lchami ham kattalashib boradi va ayniqsa urg‘ochilarida tana bo‘shlig‘ining katta qismini egallay boshlaydi. Jinsiy voyaga yetgan urg‘ochi

baliqlarning gonadalari bevosita ko‘payishdan oldin tana bo‘shlig‘ining katta qismini egallagan bo‘ladi.

Organizm jinsiy voyaga yetish davri yaqinlashganda zahira jinsiy hujayralar shakllana boshlaydi (kichik o‘sish bosqichidagi ootsitlar), ularning bir qismi esa davriy ravishda (turli yillarda, turli porsiyalarda) rivojlanishni boshlaydi. Ya’ni alohida jinsiy hujayra birinchi reproduktiv bosqichdayoq rivojlanishi mumkin, boshqa yonidagisi esa baliq hayotining boshida birlamchi jinsiy hujayra shaklida rivojlanishni boshlab, keyingi gametogenezda yoki hayotining so‘nggi reproduktiv davrida rivojlanishini tugatishi mumkin.

1-JADVAL. URG‘OCHI BALIQLAR GONDALARINING JINSIY YETILISH KO‘RSATKICHI

<i>Yetilish bosqichlari</i>	<i>Gonadalarning morfologik xususiyatlari</i>
<i>I bosqich (JUVENIS)</i>	Gonadalar yupqa, shaffof tasma ko‘rinishida, jinsini qurollanmagan ko‘z bilan ajratib bo‘lmaydi
<i>II bosqich</i>	Gonadalar kuchsiz rivojlangan qon tomirlarga ega shaffof oynasimon tasma ko‘rinishida
<i>III bosqich</i>	Gonadalar kuchli rivojlangan, qurollanmagan ko‘z orqali turli o‘lchamdagи ikrachalar ko‘rinadi; yaxshi rivojlangan qon tomirlar va ularning ikradon bo‘ylab tarmoqlanishi mavjud
<i>IV bosqich</i>	Ikradon baliq qorin bo‘shlig‘ining katta qismini egallagan. Ikralar kichik tanachada zich joylashgan. Ushbu bosqich so‘ngida ikralardagi yadro qurollanmagan ko‘z orqali ko‘rinadi.
<i>V bosqich</i>	Ushbu ko‘payish mavsumida tashlanadigan ikralar yetilgan; baliq qorni bosilganda ikralar jinsiy-tanosil teshik orqali oson ajralib chiqadi
<i>VI bosqich</i>	Gonadalar bo‘sh, yumshoq, to‘q-qizg‘ish rangda.

Ba’zi baliqlarda jinsiy hujayralarning barchasi hayotida bir marta bir davrning o‘zida yetiladi (Uzoq sharq lososi, Yevropa ugri, ba’zi seldlar, azov va kaspiy buqa baliqlari, baykal golomyankasi va boshqalar) – bular *monociklik baliqlar* deyiladi.

Ko‘pchilik baliqlarda jinsiy hujayralar generatsiyasining rivojlanishi hayoti

davomida ko‘p martalab ya’ni har bir reproduktiv bosqichda sodir bo‘ladi (*polistiklik baliqlar*). Mo‘‘tadil iqlim mintaqasidagi ko‘pchilik baliqlarda reproduktiv bosqichlar vegetatsiya mavsumiga (ya’ni hayotining yillariga) bog‘liq holda kechadi. Bunday baliqlarga chuchuk va sho‘r suvlardagi ko‘pchilik baliqlar, jumladan Markaziy Osiyo suv havzalaridagi barcha baliqlar kiradi.

Baliqlar jinsiy usulda ko‘payadi, kam holatlarda ikra hujayraning urug‘lanmasdan ya’ni *partenogenetik* usulda ham ko‘payadi, lekin ko‘pchilik hollarda bunday rivojlanishdan hayotchan avlod hosil bo‘lmaydi. Ammo Issiqko‘l chebachogida partenogenetik ko‘payishdan hosil bo‘lgan avlod normal rivojlanib, voyaga yetgan individlari tashqi tomondan jinsiy usulda ko‘paygan avlodlardan farq qilmaydi.

Ko‘payishning yana bir shakli *ginogenez* (faqat urg‘ochi avlod tug‘ilish) bo‘lib, masalan Markaziy Osiyoda va G‘arbiy Sibirda kumush karas balig‘i populyatsiyasi deyarli hammasi urg‘ochilardan tashkil topgan. Ginogenezda yaqin turlarning (zog‘ora, oqcha, tillarang karas) spermatozoidi ikraga kirib uni rivojlanishiga turki beradi, lekin tom ma’nodagi urug‘lanish yuz bermaydi. Buning natijasida yangi avlod faqat urg‘ochilardan tashkil topadi. Ammo noqulay sharoitga ega suv havzalarida karas populyatsiyasida erkak individlar ko‘pchilikni tashkil qiladi.

Ratsionni meyorlash tamoyillari. Baliqlarning ozuqaviy moddalariga bo‘lgan ehtiyoji genetik jihatdan metabolizm darajasida tartibga solinadi. Kerakli miqdorda ozuqani iste’mol qilish chorvadorlar terminologiyasida ishtaha atamasi bilan umumlashtirilishi mumkin bo‘lgan shartli refleks aloqalarining butun bir majmui bilan tartibga solinadi. Ishtaxa oshqozon fermentlarining sekretsiyasini rag‘batlantiradi, ozuqa tarkibidagi ozuqalarni hazm qilish va o‘zlashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, ishtaxa qondagi oraliq metabolik mahsulotlarning tarkibiga, ularni hujayralar tomonidan o‘zlashtirish darajasiga, ozuqaning rangi va

hidiga, suvning harorati va gaz rejimiga, shuningdek, boshqa abiotik va biotik omillarga bog‘liq.

Ozuqa ratsioni – bu ozuqa tarkibi va miqdori bo‘lib, to‘yimlilik jihatidan belgilangan oziqlantirish me’yorlariga javob berishi kerak. Ratsionni aloxida ozuqa moddalarining oddiy yig‘indisi sifatida qabul qilib bo‘lmaydi, chunki bu yangi sifat va xususiyatlarni o‘zida mujassam qilgan kompleksdir. Agar ratsion baliqning energiya extiyojini, oqsil, yog‘lar va boshqa barcha ozuqaviy moddalarga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qondirsa, u muvozanatlangan (to‘la qiymatli) deb nomlanadi.

To‘la qiymatli oziqlantirish bu ozuqa sifati, ularning parxez xususiyatlari, moddalar nisbati va boshqa tasniflarni o‘z ichiga olgan juda keng tushunchadir. Shu munosabat bilan, ratsion strukturasi katta ahamiyatga ega, bu ozuqa tarkibiy qismlarining foiz nisbati bilan ifodalanadi. Ozuqaviy moddalarning zarur bo‘lgan nisbatlarini to‘g‘ri ta’minlash uchun ratsion strukturasi xal qiluvchi ahamiyatga ega. Yemlarning tarkibi va xususiyatlarini odatda uni sifati belgilaydi ya’ni – ozuqaviyligi qiymati, yeyilishi va hazm bo‘lishi orqali izoxlanadi.

Sutkalik ratsionda sutka davomida baliq talab qiladigan ozuqa miqdori ko‘rsatiladi. Bu vazn birligida yoki baliq massasining foizida ifodalanadi. Sutkalik ratsion bir martalik dozalarga bo‘linadi va baliqlarga ularning fiziologik ehtiyojlari va parvarishlash sharoitlarini hisobga olgan holda beriladi.

Yemning energetik qiymati bu uning tarkibidagi energiyaning umumiy miqdoridir. Ozuqaning energetik qiymati joullarda (J) xalqaro birliklar tizimiga (SI) muvofiq o‘lchanadi; $1 \text{ kal} = 4.19 \text{ J}$. Ozuqa yetishmasligi energiya etishmasligiga olib keladi, bu o‘z navbatida plastik va funksional metabolizm jarayonlarini to‘xtatadi. Agar ozuqalar oqsil va yog‘ miqdori, sifati jihatidan ozgina farq qilsa, ularning quruq moddalarida taxminan bir xil energiya mavjud.

Yalpi energiya (iste’mol qilingan ozuqa energiyasi) ozuqadagi barcha ozuqa moddalari bilan birga organizmga kiradigan barcha energiyani tavsiflaydi.

Hazm bo‘ladigan energiya (ozuqaning assimilyatsiya qilingan qismining energiyasi) najas energiyasidan tashqari **yalpi energiya** deb belgilanadi.

Metabolik almashinuv energiya (metabolizatsiya qilinishi mumkin bo‘lgan yoki fiziologik jihatdan foydali) - hazm bo‘ladigan energiya va najassiz sekretsiya

-oyquloqlar, buyraklar, tana yuzasi ajraladigan energiya o‘rtasidagi farq.

Sof energiya - bu ovqatni hazm qilish va assimilyatsiya qilishga sarflangan energiyadan tashqari metabolizm energiyasidir. U hayotni, jismoniy faoliyatni va o‘sish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash uchun ishlataladi.

O‘sish energiyasi (plastik metabolizm energiyasi) sof energiya va hayot, jismoniy faoliyatni saqlashga sarflanadigan energiya o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Generativ metabolism energiyasi - bu organizm tomonidan jinsiy tizimni shakllantirish va reproduktiv mahsulotlarning yetilishi uchun sarflanadigan energiya miqdori.

Ozuqa tarkibi baliqning hayoti va o‘sishi uchun zarur bo‘lgan ozuqa moddalarining to‘liq to‘plamini o‘z ichiga olishi kerak: oqsillar, yog‘lar, uglevodlar, minerallar va vitaminlar. Ratsionni tuzishda asosiy e’tibor baliqning asosiy ozuqaviy moddalarga bo‘lgan ozuqaviy ehtiyojlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, ushbu moddalarning xom ashyo tarkibidagi sifat va miqdoriy tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shuningdek ularning baliq organizmidagi o‘zaro ta’siri to‘g‘risida bilimlarga qaratiladi.

Oqsillar. Hayvonlarning oziqlanishining almashtirib bo‘lmaydigan asosiy tarkibiy qismi sifatida oqsilning ahamiyati yaxshi ma’lum. Tirik organizm to‘qimalarining tarkibiy asosi oqsillar bo‘lib to‘qimalarning o‘sishini va yangilanishini ta’minlaydi. Ular tirik materiyaning ishlashida, fiziologik jarayonlarni katalizlashda va tartibga solishda asosiy rol o‘ynaydi. Barcha fermentlar va bir qator gormonlar, masalan insulin, oqsil xususiyatiga ega. Kislorodni (gemoglobin), ozuqaviy moddalarni (qon zardobidagi oqsillarni) tashishda oqsillarning roli katta. Tananing immunitet tizimining tarkibiy qismi (antitanalar) bo‘lib, oqsillar himoya funksiyasini bajaradilar. Oqsillar va nuklein kislotalar orqali genetik ma’lumotlar almashinishi amalga oshiriladi.

Baliqlar oqsilga bo‘lgan yuqori talab bilan ajralib turadi, bu bilan umurtqali hayvonlarning extiyojidan ancha yuqori. Ushbu o‘ziga xos xususiyati birinchi marta sun’iy sharoitda baliq yetishtirish uchun ozuqa ratsionini tuzishda sezildi. Quruq granulalangan ozuqani sinovdan o‘tkazishda, ko‘plab tadqiqotchilar dastlab

xar xil yoshdagi xonbaliq va sulaymon baliq yirtqichligidan kelib chiqildi va ratsionida protein miqdori yuqori (40-60%) bo‘lishi kerakligini tasdiqladilar. Shu bilan bir qatorda ma’lum bo‘ldiki, karp kabi beozor baliq uchun ham, o‘sish potensialini imkoniyatini anglash uchun ozuqa tarkibidagi oqsilning miqdorini yuqori bo‘lishini talab qilar ekan: bir yozli baliqlarlar uchun – 40-50%, bir yilliklar uchun – 30-40%.

Oqsilga boy ozuqaga bo‘lgan ehtiyoj nafaqat bu kabi konkret baliqlar uchun xarakterli, balki ko‘pchilik baliq turlariga xos xususiyatdir. Baliqlarning o‘sishi birinchi navbatda oqsilga bo‘lgan ehtiyojni qondirish bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, yuqori proteinli ozuqaga morfofiziologik va biokimyoviy moslashishiga alohida e’tibor berib, oziqlanishning ushbu muhim jihatni haqida batafsilroq yoritiladi. Quyida keltirilgan oqsillarning biologik, morfofiziologik va biokimyoviy xususiyatlari oson xazm bo‘lishi, o‘zlashtiriladigan hayvonot oqsiliga moslashuvchanligidan dalolat beradi.

Almashtirib bo‘lmaydigan aminokislotalar. Oqsillarning ozuqaviy ahamiyati ularning aminokislotalar tarkibi bo‘yicha baholanadi. Barcha oqsillar 24 ta aminokislotalardan tashkil topgan bo‘ladi; Ulardan 10 tasi (arginin, gistidin, izoleysin, leysin, metionin, lizin, fenilalanin, treonin, triptofan va valin) muhim aminokislotalar guruhiba birlashtirilgan. Almashtirib bo‘lmaydigan (Essensial) aminokislotalar tanada sintez qilinmaydi, shuning uchun ularni ozuqa orqali ta’minlash kerak. Almashtiriladigan ikkita aminokislotalar (tsistin va tirozin) shartli ravishda almashmaydigan deb nomlanadi, chunki tsistin yetishmasligi bilan uni sintezi uchun muhim metionin sarf qilinadi, tirozin uchun esa fenilalanin sarf etiladi.

Ratsionda almashmaydigan aminokislotalarning yetishmasligi oqsil istemolini ko‘payishiga va natijada bir o‘sish birligi uchun ozuqa harajatlarining sezilarli darajada oshishiga olib keladi. Bundan tashqari, almashtirib bo‘lmaydigan aminokislotalardan faqat bittasi yetishmasligi boshqa barcha aminokislotalar va umuman oqsillardan foydalanish samaradorligini cheklaydi.

4.2. Yog‘lar va yog‘ kislotalari, uglevodlar

Yog‘lar yoki lipidlar barcha tirik hujayralarning tarkibiy qismidir va hayot jarayonlarida muhim rol o‘ynaydi. Biologik membranalarning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan lipidlar hujayralar o‘tkazuvchanligiga va ko‘plab fermentlarning faolligiga ta’sir qiladi, nerv impulslarini uzatishda, mushaklarning qisqarishida ishtirok etadi. Ozuqaviy moddalar sifatida lipidlar yuqori darajada konsentrangan energiya manbalari bo‘lib, hayotiy muhim birikmalar – muhim yog‘ kislotalar, yog‘da eriydigan vitaminlar va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Organizmda yog‘larning sintezi va parchalanish jarayoni doimiy ravishda sodir bo‘ladi: sintez – hujayralar tsitoplazmasida, parchalanishi – energiya chiqishi bilan mitoxondriyada sodir bo‘ladi.

Yog‘lar oddiy (lipidlar) va murakkab (lipoidlar) ga bo‘linadi. Oddiy yog‘larga molekulalari faqat yog‘ kislotalari (aldegidlar) va spirtlar qoldiqlaridan iborat bo‘lgan moddalar kiradi: triglitseridlar, mumlar va steridlar. Bular zahira lipidlardir, ular to‘qimalarning harakatchan tarkibiy qismidir, ularning to‘planish darjasи to‘g‘ridan-to‘g‘ri yog‘larga bog‘liq va tarkibi asosan ozuqa yog‘larining xususiyatlari bilan belgilanadi. Triglitseridlar tananing asosiy energiya zaxirasidir. Lipoidlar – bu lipid komplekslarini namoyon etib: oqsillar (lipoproteinlar), ortofosfor kislota (fosfolipidlar), shakar (glikolipidlar) va boshqalardan tashkil topgan. Ular strukturaviy va plazma lipidlari bo‘lib, ular barcha organizmlarning membranalari va protoplazmalarining bir qismidir, turlarning o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lib, tarkibi nisbatan doimiy va to‘yinganlikka bog‘liq emas. Fosfolipidlar hujayra membranalarining o‘tkazuvchanligini, mitoxondriyada fosforlanish jarayonini tartibga solishda muhim fiziologik rol o‘ynaydi; ichki muhitning barqarorligini va hujayralararo almashinuvni saqlab turish, tananing o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashishiga hissa qo‘shadi.

Baliqlarda issiq qonli hayvonlarga qaraganda lipid tarkibidagi to‘yinmagan yog‘ kislotalarning ulushi ancha yuqori, bu yashash muhitining nisbatan past harorati bilan bog‘liq. Har xil harorat va sho‘rlanish sharoitida yashovchi baliqlar turli xil polein kislotalarning nisbati bilan farq qiladi ω3: ω6. 5-6 juft bog‘lanishli linolenik qatordagi (ω3) yog‘ kislotalari miqdori dengiz baliqlarida chuchuk suv

baliqlariga qaraganda yuqori; chuchuk suvda sovuqsevar turlarda u issiqsevar turlarga qaraganda yuqori.

Yumshoq yog‘lar (tarkibida PTYOK miqdori yuqori) baliq tomonidan 90-95% ga so‘riladi. Qattiq yog‘lar biologik samaradorlikka ega emas va ular yomonroq so‘riladi – 60-70% ga (ozuqa ko‘p to‘yinmagan yog‘ kislotalar to‘plami bilan boyitilganda, qattiq yog‘larning hazm bo‘lishi oshadi).

Tananing yog‘ va oqsilga bo‘lgan talablari o‘zaro bog‘liq. Ma’lumki, yog‘lar energiya manbai sifatida oqsilni saqlovchi ta’sirga ega, shuning uchun sun’iy ozuqalar uchun retseptlar tuzishda ular oqsilni energiya sarfini minimallashtirishga, uni o‘sish va to‘qimalarni yangilash uchun saqlashga harakat qiladilar. Shubbasiz, energiya va plastik almashinuvda oqsil va yog‘dan foydalanish darajasi fiziologik va abiotik omillarga bog‘liq. Protein yetishmovchiligi bo‘lgan to‘qimalarda ko‘p miqdordagi yog‘ to‘planishi sistematik jihatdan turli organizmlarga xosdir, masalan, achitqi hamirturushda ozuqaviy muhitda azot yetishmasligi hujayraning "semirib ketishiga", ya’ni lipidlarning ortiqcha to‘planishiga olib keladi.

Lipidlarning oqsilni tejovchi roli turli baliq turlari uchun, shu jumladan kanal laqqasi, karp, kambala, dengiz karasi, atlantika paltusi va boshqalar uchun qayd etilgan. Bu holda, lipidlar uglevodlarga qaraganda, ayniqsa sovuqsevar baliqlarning ratsionida oqsilni tejovchi ta’sir ko‘rsatadi. Xonbaliqni sanoat usulida o‘sirishda ozuqadagi azotning yarmidan ko‘pi suvga ammoniy shaklida chiqariladi, shuning uchun yetkazib berilgan oqsilning yarmidan ko‘pi o‘sish uchun sarf etiladi va energiya manbai sifatida extiyoj qondiriladi.

Proteinga bo‘lgan ehtiyoj turli xil miqdordagi yog‘larni qo‘sishish orqali nazorat qilish mumkin. Yog‘ miqdori past bo‘lgan holda, xonbaliq ratsionida kamida 40-50% protein bo‘lishi kerak, ammo energiyaning asosiy manbasi lipidlar ishtirok etsa baliqning o‘sish sur’ati o‘zgartirmasdan 35% gacha tushirish mumkin. Xonbaliq ozuqalarining zamonaviy ishlab chiqaruvchilari oqsilning yetarlicha yuqori miqdorini saqlab, ishlab chiqarayotgan omuxta yemlarga 30% gacha yog‘ni kiritadilar, bu esa ozuqa moddalarining yaxshiroq so‘rilishiga olib keladi. Shu bilan birga, o‘sish uchun ozuqa harajatlari pasaytiradi va suvning najas bilan ifloslanishi kamayadi.

Masalan, atlantika sulaymon balig‘ining ratsionida yog‘ning 22% dan 30% gacha ko‘payishi bilan ammiakning chiqishi 35, fosforning 22, organik birikmalarning 23% ga kamayishi kuzatildi. Ratsiondagi protein darajasi 44,2% dan 38,2% gacha pasayganiga qaramay, baliqning o‘sish sur’ati oshdi va ozuqa harajatlari kamaydi.

Ammo shuni ta’kidlash kerakki, yog‘ning yuqori miqdori har doim ham baliq oziqlanishi fiziologiyasi nuqtai nazaridan oqlanmaydi, xususan, remont va ota ona to‘dalarini saqlovchilarga taalluqlidir. Organizmda ko‘p miqdordagi yog‘ to‘plantirmaydigan intensiv o‘sayotgan chavoqlar uchun eng maqbul ratsion, unda 1 g oqsil uchun taxminan 7 kkal energiya bo‘lishi. Ikki yoshli xonbaliqning intensiv o‘sishi uchun 1 g oqsil 10-11 kkal energiya va ehtimol undan ham ko‘proq bo‘lishi kerak. Bunday holda, baliqning yuqori o‘sish sur’ati va yog‘ miqdori normada to‘planishi mumkin. Katta yoshdagি baliqlarning ratsionida oqsil bilan ta’minlangan energiya ulushi 36-40% gacha, bir yozlilar uchun esa 55% dan kam bo‘lmasligi mumkin.

Optimal harorat doirasi ichida haroratning oshishi bilan energiya va plastik metabolizmning intensivligi oshadi; Shu bilan birga, o‘sish sur’ati plastik metabolizmning energiya almashinuvining tezligi energetik metabolizmning energiya almashinuvining tezligidan ustundir, shuning uchun harorat ko‘tarilishi bilan oqsillarga bo‘lgan ehtiyoj ortadi va energiyaga bo‘lgan extiyoj ozroq kuchayadi. Agar xonbaliq, 12 dan 16°C harorat oralig‘ida kam yog‘li ratsion bilan boqilsa, energiya extiyoji uchun oqsil sarfi ko‘payadi, bunga azotning suvga ajralib chiqishi kuzatsa bo‘ladi. Yog‘ oqsilni tejaydigan xususiyatga ega, organizmda azotni saqlab qoladi – va o‘sish tezligi kuchayadi. Harorat pasayganda, yog‘ miqdorini ko‘paytirish talab qilinmaydi.

Xonbaliq va sulaymon baliqlarda energiya sifatida uglevodlardan ko‘ra ko‘proq yog‘ni sarflashi ko‘pincha ularning yirtqich bo‘lgani bilan va uglevodlarni o‘zlashtirish imkoniyati cheklanganligiga bog‘liq. Ammo asosan sig kabi beozor baliqlar ham shunday xususiyatlarga ega. Ushbu baliq turlariga xos bo‘lgan narsa – yashash joylarining past harorati. Ular sovuqsevar turlarga tegishlidir va bu baliqlarning ozuqasida asosiy energiya manbalari oqsil va yog‘lar ekanligi bilan

izohlanadi.

Taqqoslash uchun, issiqsevar baliqlarni ko‘rib chiqaylik, ular orasida beozor (karp) va yirtqichlari ham bor (kanal laqqasi va boshqalar).

Xonbaliqdan farqli o‘laroq, karp tarkibida umuman yog‘ tutmagan ratsionda uzoq vaqt (bir necha oy) yashashi mumkin va o‘sish sur’atlaridan biroz orqada qoladi. Bunday hollarda xonbaliq tez orada shok holatini boshdan kechiradi.

Karp uchun ratsionga yog‘ qo‘sishning ta’siri faqat 22°C va undan yuqori haroratdan namoyon bo‘ladi. Karp ozuqasiga har xil turdag'i yog‘larning qo‘silishi faqat ozgina (losos bilan solishtirganda) o‘sishini tezlashtiradi va ko‘pincha vazn ortishi bilan aniq bog‘liqlikni keltirib chiqarmaydi. Issiqsevar baliq yetishtirish sharoitida og‘irligi 40-350 g bo‘lgan karpning intensiv o‘sishi uchun 5% ga yaqin yog‘, va oqsil darajasi 30-35% tashkil etadi. Katta karp uchun 30-35% protein miqdorida yog‘ning maqbul miqdori 6-7% ni tashkil qiladi.

Issiqsevar kanal laqqasi uchun optimal harorat (27-30°C) sharoitida yog‘ miqdori 10% gacha bo‘lganda juda yuqori o‘sish sur’ati ko‘rsatadi.

Yog‘larning oksidlanishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun yem ishlab chiqarish jarayonida unga antioksidantlar qo‘siladi, ular orasida eng ko‘p santoxin, diludin va ionol ishlatiladi. Omuxta yemlar salqin, xavo almashinadigan joyda saqlanishi kerak.

Uglevodlar. Tabiiy baliq ozuqasi uglevodlarga boy emas va ko‘pchilik baliq ularning ratsionidagi yuqori miqdorda bo‘lishiga moslashmagan. Energetik ehtiyojlari asosan protein va lipidlar tomonidan qondiriladi. Baliq ozuqasida ma’lum miqdordagi uglevodlarni iste’mol qilishi mumkin, ammo turli turlarda bu qobiliyat turlicha. Oziqlanish qiymatiga asoslangan uglevodlar ikkita katta guruhga bo‘linadi: qiyin va oson gidrolizlanadigan birikmalar.

Birinchi guruhga o‘simliklar va hayvonlar to‘qimalarining hujayra devorlarining bir qismi bo‘lgan himoya va yordamchi funksiyalarni bajaradigan uglevodlar kiradi. Bular poli- va geterosaxaridlarni o‘z ichiga olgan turli murakkab komplekslardir, ularga o‘simlikdagi asosiy birikma tolalar va hayvonlarda xitin (hasharotlar va qisqichbaqasimonlar). Ko‘pgina hayvonlarda bu tolali qattiq tuzilishini buzadigan o‘z fermentlari ega emas. Uning ajralishi hayvonlarning

oshqozon-ichak traktida yashaydigan mikrofloraning fermentlari tomonidan amalga oshiriladi, bu ayniqsa kavsh qaytaruvchi hayvonlarda alohida ajralib turadi.

Baliqdagi uglevodlarning hazm bo‘lishi ularning tuzilishiga bog‘liq. Oddiy shakar – monosaxaridlar (glyukoza, galaktoza va boshqalar) xonbaliq, golets, karp, oq osyotr va boshqa baliqlar tomonidan 99% gacha o‘zlashtiriladi. Disaxaridlar (saxaroza va fruktoza) uchun bu ko‘rsatkich turli turlarda 52-73% oralig‘ida o‘zgaradi, laktoza xonbaliq 60% gacha, osyotrlarda 36% gacha o‘zlashtiriladi. Polisaxaridlar shakarga qaraganda kuchsizroq parchalanadi va so‘riladi.

Kraxmal, zaxira moddasi bo‘lib, ko‘pincha o‘simlik tarkibidagi uglevodlarning asosiy qismini tashkil qiladi va ushbu tarkibiy qismlarning ozuqada ishlatilish darajasi uning parchalanishi va so‘rilish tezligiga bog‘liq. Kraxmalning hazm bo‘lishi sezilarli darajada farq qilishi mumkin; masalan, osyotrdan kraxmalning hazm bo‘lishi 36% dan oshmaydi, xonbaliqda, kartoshka kraxmalining o‘zlashtirilishi 5% dan oshmaydi, bug‘doy kraxmali 60% gacha, harorat ($110-120^{\circ}\text{C}$) bilan yuqori ishlov berilganda 86-90% gacha, ekstruziyalanganda esa – 96% o‘zlashtiriladi.

Shunday qilib, harorat omili baliqlardagi uglevodlar va yog‘lar metabolizmining xarakterini belgilaydi. $10-15^{\circ}\text{C}$ dan yuqori haroratlarda ozuqa uglevodlari yaxshi so‘riladi va utilizatsiya qilinadi, energiya almashinuvida ishtirok etadi va ularning ortiqcha miqdori lipidlarga aylanadi va to‘qimalarda, shu jumladan jigarda to‘planadi. Pastroq haroratda u energiya almashinuvida oqsillar alohida ahamiyatga ega, ulardan glyukoneogenez natijasida glikogenning hosil bo‘lishi bilan izoxlanadi. Bu jarayon glikogen jigarda to‘planib qolganligidan dalolat beradi, ammo uning past haroratlarda lipidlarga aylanishi sekinlashadi.

Yuqori harorat issiqsevar baliqlarga uglevodlarni yanada samarali assimilyatsiya qilish uchun sharoit yaratadi, xonbaliq, sig, lososdan farqli o‘laroq, optimal haroratning yuqori chegarasi $12-16^{\circ}\text{C}$ dan oshmaydi. Ko‘p miqdorda uglevodlarni ozuqa bilan uzoq muddatli iste’mol qilish ham ushbu turlar moslashishga olib kelmaydi.

Losos ratsionidagi kraxmalning ko‘pligi qondagi qand miqdorini ko‘taradi. Shu bilan birga, ozuqaning qisqa hazm qilish trakti orqali o‘tishi tezlashadi, bu

ozuqa moddalarining so‘rilishiga salbiy ta’sir qiladi. Ilgari, bu insulinning zaif sekretsiyasi va natijada qonda glyukoza miqdorini tartibga solish mumkin emasligi, shuningdek, losos baliqlarida glyukokinaza fermenti yo‘qligi bilan izohlangan. Keyinchalik bu faraz rad etildi. Jigarda uglevodlarning konversiyasini katalizlovchi fermentlarning kashf qilinishi bilan birga xonbaliqda hazm bo‘lishi va polisaxaridlarni assimilyatsiya qilish qobiliyati ularning parchalash darajasiga bog‘liq ekanligi aniqlandi: kuchli dekstrinatsiyaga uchragan kraxmal barcha baliq turlari tomonidan yaxshi hazm qilinadi.

Yosh losos balig‘i uchun boshlang‘ich omuxta yemdagি uglevodlarning maksimal miqdori 20-25% ni, kattalar uchun 30-35% ni tashkil qiladi (tolalar 5-6% dan oshmaydi). Karp va kanal laqqasi uchun ko‘proq uglevodlarga ruxsat beriladi. Ozuqadagi uglevod losos baliqlari tomonidan o‘rtacha 40% gacha o‘zlashtiriladi, deb qilingan. Gidrolizlanadigan uglevodlar karp tomonidan 17 dan 84% gacha o‘zlashtiradi, shuningdek eng yaxshi donli ekin uglevodlari hazm qilinadi. Xom tolalar kompleksi losossimonlar tomonidan deyarli hazm qilinmaydi, karp esa tolali kunjara va shrot yoki jmixlarni 26-52% gacha o‘zlashtiradi

4.3. Vitaminlar, suvda eriydigan vitaminlar, yog‘da eriydigan vitaminlar

Vitaminlar tirik hujayrada yuzaga keladigan va metabolizmni tartibga solishda ishtirok etadigan, asosan ferment tizimidagi o‘ziga xos oqsillar bilan birikib, hayotiy muxim bo‘lgan turli strukturali organik moddalardir. Ozuqada vitaminlar miqdorining yetarli darajada bo‘lishi baliqning normal rivojlanishi, o‘sishi va ko‘payishi uchun zarur, stress va kasalliklarga yuqori chidamlilikni namoyon etadi. Ko‘pgina vitaminlar baliq organizmida sintez qilinmaydi va ularni ozuqa bilan ta’minalash kerak. Vitaminlar ozuqaning asosiy tarkibiy qismlari bilan birga kiradi, ammo ularning asosiy manbai ozuqa tarkibiga kiritiladigan vitamin premikslaridir. Ozuqada u yoki bu vitamin yetishmasligi, baliq vitamin yetishmasligini rivojlantiradi; amaliyotda ko‘proq uchraydigani vitamin yetarli bo‘lmaganda, gipovitaminoz (5-jadval). Ko‘p miqdorda (me’yordan bir necha baravar yuqori) vitaminlarni uzoq muddat davomida ozuqa bilan kiritilishi

gipervitaminozga olib keladi.

5-jadval

Baliqlardagi vitaminlar yetishmovchiligidagi yuzaga keladigan belgilar

Vitaminlar	Tanqislik belgilari
A (retinol)	Qon ketish, anemiya, gemoglobinning, eritrotsitlar soni va rang ko‘rsatkichi pasayishi, jigar indeksining pasayishi. Ko‘rish qobiliyatini buzilish, tana rangining oqarishi, jabra qopqog‘ini deformatsiyasi. Tana bo‘shlig‘ida suyuqlikning to‘planishi, shishish.
D ₂ Xolekalsiy ferol	Raxit. Kalsiy gomeostazining buzilishi – suyak matritsasida suvning ko‘payishi, mineral moddalar va organik tarkibining pasayishi.
E Tokoferol	Yog‘ va tseroid jigar degeneratsiyasi, anemiya, gemoliz (turli o‘lchamdagisi va yetilmagan eritrotsitlar). Tana bo‘shlig‘ida suyuqlikning to‘planishi, siqilish, mushak distrofiyasi.
K ₃ Vikasol	Qon ivishining sekinlashishi, eritrotsitlar hajmining pasayishi, yengil anemiya. Jigar indeksining pasayishi. Teri ichiga qon ketishi.
C Аскорбиновая кислота	Umurtqa egriligi (lordoz, skolyoz), oyquloq qoplamlarining deformatsiyasi, terida, jigarda, buyraklarda, ichaklarda, mushaklarda qon ketishi. Ko‘zlardagi buzilgan kollogen gistoCtrukturasi anemiyasi, suzgichlarda, yaralar yomon davolanishi, past gematokrit.
B ₁ Tiamin	Haddan tashqari asabiy lashish, konvulsiyalar, beqarorlik, muvozanatni yo‘qotish, oyquloq qopqog‘ini va suzgichlar qiyshayishi, tez nafas olish, terining qizishi, teriga qon ketish. Rangning qorayishi. Mushak atrofiyasi, shish. Eritropoezni buzilishish, jigarni oqarishi
B ₂ Riboflavin	Harakatlarni muvofiqlashtirish buzilishi, qorin bo‘shlig‘ining pigmentatsiyasi. Jarrohlik va jarohatlarning nekrozi, ko‘zlardagi

	qon, shox pardanining shaffofligi, anemiya.
B ₃ Пантотеновая кислота	Juda yuqori va tez o'lim, oyquloqlarning ochilib qolishi, oyquloq epiteliyasining o'sib ketishi, oyquloqlarning shishishi, ularning yopishishi, xolsizlanish va g'ayritabiiy harakatlar, yog'li jigar, anemiya.
B ₄ Холин	Yuqori darajada o'lim, jigarning yog'lanishi, uning kattalashishi, buyraklar va ichaklarda qon ketish, anemiya, qorin xavo yig'ilishi. Ko'zlarning shishishi, tana rangining oqarishi

Yog'da eriydigan vitaminlar (A, D, E va K) ozuqa bilan ta'minlanishi kerak, ammo ularning ba'zilari (A va D) hayvonlarning organizmida provitaminlardan sintez qilinishi mumkin. Ozuqaga kiritilgan yog'larning oksidlanishi ushbu guruh vitaminlarining parchalanishini ta'minlaydi. Shuning uchun, tarkibida yog' miqdori yuqori bo'lgan ozuqa ishlab chiqarishda ularning xavfsizligi uchun ularga sintetik yoki tabiiy antioksidantlar kiritiladi. Yog'da eriydigan vitaminlar baliq organizmida (jigarda) to'planishi mumkin, bu haddan tashqari dozaning ortishi tufayli gipervitaminozning rivojlanishiga olib keladi.

A vitamini (retinol) oqsillar va minerallar almashinuvida ishtirok etadi, skelet shakllanishiga, serpushtligiga, ko'rish qobiliyatiga ta'sir qiladi, epiteliyning normal holatini ta'minlaydigan tabiiy antioksidantdir. A vitamini faqat hayvonlar organizmida sintezlanadi, o'simliklarda uning o'tmishdoshi – karotinoidlar mavjud; ulardan eng keng tarqalgani β -karotin. Baliqlar hayot davomida A provitamini manbasi bo'lgan suv umurtqasiz hayvonlarida mavjud ksantofildan (astaksantin, kantaksantin, zeaksantin) foydalanadi.

A vitamini va karotinning so'riliши ingichka ichakda safro ishtirokida yuzaga keladi, bu ularning emulsifikatsiyasini ta'minlaydi. Organizmda A vitaminining asosiy zaxirasi jigardir, uning tarkibidagi darajasi tanadagi A vitaminini yetkazib berish ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Retinol yetishmasligi belgilari 5-jadvalda keltirilgan.

A vitamini va karotinning biologik faolligi halqaro birliklarda (HB) yoki retinol ekvivalentlarida o'chanadi. A vitamini 1 HB 0,3 mkg retinol biologik

aktivligiga to‘g‘ri keladi yoki 0,344 mkg retinilatsetatga teng (retinol efiri va sirkakislotsasi). Turli baliq turlari uchun A vitaminiga bo‘lgan ehtiyoj 1000-20000 IU / kg quruq ozuqa hisobida oralig‘ida o‘zgaradi (6-jadval).

A vitaminining yaxshi manbai baliq yog‘idir – 200-500 ming HB/kg. A vitamini preparatlari 100-500 ming HB faollikka ega bo‘lgan yog‘ konsentrati shaklida yoki granulalar yoki kukunli massa shaklida chiqariladi. A vitamini havo kislороди va quyosh nuri ta’sirida tezda oksidlanadi; o‘zgaruvchan valentli og‘ir metallar (temir, mis) bilan aloqa qilganda lipid peroksidlanish mahsulotlari ishtirokida parchalanadi. Omuxta yem sanoatida, odatda vitaminli premikslar tayyorlash uchun, nozik donalardan tashkil topgan kukun shaklida retinolning zarralari va uni oksidlanishdan saqlaydigan jelatin kapsulasi bilan o‘ralgan bo‘ladi. Omuxta yemni saqlash jarayonida lipid oksidlanish mahsulotlari retinolning biologik faol shakllarini parchalanishga olib keladi. Masalan, 3 va 5 oy davomida baliq uni (50%) yuqori bo‘lgan xonbaliq ozuqalarini saqlash davrida A vitaminining parchalanishi mos ravishda 75 va 83% ni tashkil qiladi. Karp yemlari bilan taqqoslaganda, dastlabki 3 oy davomida baliq uni kam (5-20%) bo‘lgan yemlarda A vitaminini deyarli parchalanmagan. E va C vitaminlari bu tabiiy antioksidantlar bo‘lib, bu lipidlarning saqlanishiga va shuning uchun A vitaminining saqlanishiga hissa qo‘shadi, A vitaminining tez parchalanishini oldini olish uchun ozuqani qorong‘i joyda, past haroratda (8-9°C) plastik xalta emas, qog‘oz qoplarda saqlash kerak.

D vitamini – bu kalsiferollar deb nomlangan moddalar guruhiga kirib, ular orasida D₂ (ergalsiyferol) va D₃ (xoletkalsiferol) amaliy ahamiyatga ega. Hayvonlar va o‘simliklar to‘qimalarida fiziologik nofaol D provitaminlari mavjud bo‘lib, ular faqat ultrabinafsha nurlari ta’sirida faollashadi. Vitamin D ichakda kalsiy va fosforning so‘rilishini rag‘batlantiradi, qonda ularning miqdorini saqlaydi, qondan suyak to‘qimalariga o‘tishni faollashtiradi, skeletning minerallanishiga bevosita ta’sir qiladi. Bundan tashqari, kalsiyferol magniyning so‘rilishini yaxshilaydi. Uning ta’sirini ko‘rsatkichi qondagi gidroksidi fosfataza darajasining oshishi hisoblanadi.

D vitaminining yetishmasligi mushak va suyak to‘qimalarida patologik

o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. D vitamini yetishmasligi bilan kalsiy va fosforga ehtiyoj oshadi. D vitaminining haddan tashqari dozasidan qo‘rmaslik kerak, chunki gipervitaminoz belgilari faqat me’yordan katta dozalarda oshib ketadigan yuz beradi.

D vitaminlarining faolligi HB da ham o‘lchanadi. D vitaminiga har xil turdag'i baliqlarning talabi 500-3000 HB/kg ozuqani tashkil etadi (6-jadvalga qarang).

Baliq yog‘i D vitaminining yaxshi manbaidir. Uni ishlatganda, saqlash muddati va yog‘ tarkibidagi vitamin miqdoriga e’tibor beriladi. Agar yem tarkibida oksidlangan yog‘lar, suyak bo‘lagi, bo‘r, mikro elementlarning sulfat tuzlari bo‘lsa, unda 1 oy ichida baliq yog‘idagi D vitamini butunlay parchalanib ketadi. Ozuqa sanoatida D₃ premiks (jelatinli yoki jelatin-shakar-kraxmal bazasida turg‘unlashgan kukun shaklida ishlatiladi, bu uni oksidlanishdan saqlaydi).

E vitamini bu tokoferollar guruhiга mansub bo‘lib, ular orasida maksimal fiziologik faollikka ega bo‘lgan tokoferol amaliy ahamiyatga ega. Vitamin E hujayra membranalarini barqarorlashtiradi, selen saqlagan oqsillarni oksidlanishdan himoya qiladi, to‘yinmagan yog‘ kislotalari, vitaminlar va boshqa moddalarning o‘z-o‘zini oksidlanishini susaytiradi, gonadalarning rivojlanishi va funksiyalarini tartibga soladi, antitanalar hosil bo‘lishini rag‘batlantiradi, organizmni ozuqa tarkibidagi oksidlangan yog‘larning toksik ta’siridan himoya qiladi. E vitaminining ta’siri selen va oltingugurt o‘z ichiga olgan aminokislalar - metionin, tsistin bilan o‘zaro bog‘liq. Birgalikda ishlatilganda antioksidant ta’siri kuchayadi va ularning qisman almashinushi extimoli ortadi. E vitamini va boshqa antioksidantlar – A va C vitaminlari, karotinoidlar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjud. E vitaminining antioksidantlik xossalari nafaqat tirik organizmda namoyon bo‘ladi: u ozuqadagi yog‘larning oksidlanishini susaytiradi va baliq tanasiga kirganda mushaklarda to‘planib qoladi, bu esa bunday baliq filesi xar xil saqlash usullarida oksidlanishga turg‘unligi yanada yaxshilanadi.

K vitamini (filoxinon va menanxinon) vitaminlar guruhini birlashtiradi, tabiiy birikmalari odatda amalda qo‘llanilmaydi. Sanoat maqsadlarida K₃ - vikasol, suvda eriydigan kukun keng qo‘llaniladi.

K vitamini hujayrali nafas olishda ishtirok etadi, jigarda u qon ivishi uchun

zarur bo‘lgan oqsillarni shakllantirishda katalizator rolini o‘ynaydi. Baliqlarda qon ivishida ishtirok etadigan plazma oqsillari – protrombin va tromboplastin sintezi uchun K vitaminiga ehtiyoj bor. Issiq qonli hayvonlarda K vitaminiga bo‘lgan ehtiyoj mikrofloraning sintetik faolligi bilan ta’minlanadi, baliqlar ushbu vitaminga to‘liq muhtoj. Uning ozuqada yetishmovchiligi qon ivishining sekinlashishi, to‘qimalarda qon ketishi, gematokritning pasayishi bilan namoyon bo‘ladi, ammo odatda baliqlarning o‘sish sur’ati va saqlanib qolishiga ta’sir qilmaydi (5-jadval). K vitaminining tarkibi milligrammda o‘lchanadi. K vitaminiga ehtiyoj baliq turiga qarab ozuqa hisobida 3-20 mg / kg oralig‘ida o‘zgaradi (6-jadvalga qarang).

Suvda eriydigan vitaminlar

Suvda eriydigan vitaminlar tarkibiga B guruhi vitaminlari, C va H vitaminlari kiradi. Ularning asosiy ahamiyati ularning oraliq metabolizmga ta’siri qilishidadir. Suvda eriydigan vitaminlar, yog‘da eriydigan vitaminlardan farqli o‘laroq, tanada to‘planish qobiliyatiga ega emas va shuning uchun uni ozuqa bilan ta’minalash kerak.

B vitaminlari (10 dan ortiq vitaminlar) asosan o‘simliklar, bakteriyalar, hamirturush achitqilar tomonidan sintez qilinadi va oqsil, yog‘ va uglevod almashinuvining turli reaksiyalarini katalizlaydigan asosiy fermentlarning tarkibiy qismidir.

B₁ vitamini (tiamin) tanada erkin tiamin va uning fosforli efirlari shaklida mavjud bo‘ladi. Odatda turli xil organlar va to‘qimalarda B vitaminlari umumiy miqdorining 60-80% ni tashkil etadi. Asosiy shakli tiamin difosfat (TDF yoki kokarboksilaza). TDF uglevodlar almashinuvining asosiy reaksiyalarida – oksidlovchi dekarboksilatsiyada, trikarboksilik kislota aylanishida va karbongidrat oksidlanishining pentoza fosfat yo‘llarida ishtirok etadigan uchta eng muhim fermentning kofermenti bo‘lib xizmat qiladi.

B₁ vitamin balansining buzilishi asab tizimini glyukozadan samarali foydalanish qobiliyatidan mahrum qiladi va shu bilan birga asab to‘qimalariga zaharli ta’sir ko‘rsatadigan oraliq metabolik mahsulotlarni (pirouzum va sut kislotalari) to‘planishiga imkon yaratadi. B vitaminlari yetishmayotgan baliqlarda muvofiqlashtirish buziladi va ozuqa iste’moli kamayadi. Ushbu hodisalar

ko‘pincha yirtqich baliqlarni yetishtirishda kuzatiladi. Ozuqa hamirturushi tiaminning yaxshi manbai hisoblanadi.

B₂ vitamini (riboflavin) degidrogenatsiya reaksiyalarini amalga oshiradi, flavin fermentlarining tarkibiy qismi hisoblanadi. Riboflavin uglevod almashinuvida ishtirok etadi, jigarda glikogen hosil bo‘lishiga yordam beradi. Bu umuman protein almashinuvi bilan bog‘liq. Yem tarkibidagi oqsil miqdori yuqori bo‘lsa, riboflavinga bo‘lgan ehtiyoj ortadi (masalan, B vitaminlari yo‘qligida triptofan tanada so‘rilmaydi).

Yangi go‘sht un mahsulotlardan tayyorlangan pastasimon xonbaliq ratsionida riboflavin yetarli mavjud, ammo quruq granulalangan omuxta yemida V₂ vitamin qo‘silishi kerak. Riboflavinning ortiqcha miqdori xavfli emas, chunki u tezda tanadan chiqariladi. Riboflavinning yaxshi manbai bu turli xil substratlarda olingan yem hamirturushidir.

B₃ vitamini (pantoten kislota) hujayra almashinuvida katta ahamiyatga ega. Odatda V₃ vitaminlari tuzlar shaklida, kislorodga nisbatan bardoshli va premikslar tarkibiga qo‘sish shish orqali qo‘llaniladi. Yuqori haroratlarda tezda yomonlashadi. Pantotenik kislota yetishmovchiligi vitamin yetishmasligining eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. Yem hamirturushida 60-80 mg / kg vitamin B mavjud.

B₄ vitamini (xolin) tanadagi yog‘ amashinuvini amalga oshirish uchun zarurdir. Xolin hujayra tuzilmalariga fosfolipidlarning (letsitin) ajralmas qismi sifatida kiradi va metillanish reaksiyalarida metil guruhlarini ta’minlaydi. Gidroxlorid tuzi, xolin-xolinxlорidi amaliy ahamiyatga ega. Ushbu modda atmosfera isishi va kislorod bilan oksidlanishiga chidamli, shuning uchun mahsus choralarни talab qilmaydi. Xolin xlорidining 70% eritmasi ishlab chiqariladi, u premikslarga qo‘siladi.

B₅ vitamini (nikotin kislota) insulin ta’sirini faollashtiradi, natijada glikogen metabolizmi va shakarni iste’mol qilish yaxshilanadi. Nikotinamid qonda xolesterin miqdoriga ta’sir qiladi va suv-tuz metabolizmini normallashtiradi. Boshqa vitaminlar orasida u atrof-muhit omillariga eng yuqori qarshiligi bilan ajralib turadi. B₅ vitaminining manbai bu non va pivo ishlab chiqarishda ishlatiladigan hamirturushi, bug‘doy kepagi, shu bilan birga baliq ozuqasiga

sintetik nikotin kislota qo'shiladi.

Vitamin B₆ (piridoksin) protein almashinuvida, xususan, aminokislotalarning transaminatsiyasi, dekarboksillanishi va metillanishida faol ishtirok etadi. Piridoksin almashmaydigan yog' kislotalarini o'zlashtirilishini yaxshilaydigan yog' almashinuvida ishtirok etadi. Baliqni sun'iy sharoitda yetishtirishda ozuqa tarkibidagi oqsil miqdori oshishi bilan piridoksinga bo'lgan ehtiyoj keskin oshadi. B₆ vitaminining maksimal miqdori baliqlarning intensiv o'sishi davrida talab qilinadi. Piridoksin granulalangan yem tarkibiga premiks tarkibidagi miqdori bilan qo'shiladi.

Vitamin N (B₇ biotin) bu karboksil reaksiyalarni katalizlaydigan, lipidlar, aminokislolar, uglevodlar va nuklein kislotalarning biosintezida ishtirok etadigan fermentlarning tarkibiy qismiga kiradi. N vitaminining yetishmasligi baliqlarning o'sishiga to'sqinlik qiluvchi ta'sir ko'rsatadi, ko'kimtir shilimshiq paydo bo'lib, mushak atrofiyasi, ichakning shikastlanishiga va hatto o'limga olib keladi. 1 kg baliq uni tarkibida 0,3-0,5 mg N vitamini mavjud. Yem hamirturushi bu vitaminga ayniqsa boy (1,0-1,2 mg/kg).

B₈ vitamini (inozitol) tirik to'qimalarning tarkibiy qismidir. Lipotrop funksiyaga ega. Fosfolipidlarning tarkibiy qismi bo'lgan inozitol xolin bilan birgalikda lipid metabolizmini tartibga solishda ishtirok etadi, jigarning yog' degeneratsiyasini oldini oladi va jigardan ortiqcha yog'larni olib tashlashga yordam beradi.

Vitamin B₉ (foliy kislotasi) gemoglobin sintezini va eritrotsitlarning o'sishini rag'batlantiradi, oqsillarning sintezini katalizlaydi va xolin metabolizmida ishtirok etadi. Folik kislota yetishmovchiligi baliqlarning o'sishini sekinlashtiradi va ularning o'limini oshiradi. Vitamin B₉ losos baliqlari ozuqasi tarkibiga qo'shilishi shart. B₉ vitaminining omuxta yem tarkibida bir muncha ortiqcha bo'lishi foydali hisoblanadi, chunki ozuqada bu organizmning xolinga bo'lgan ehtiyojini kamaytiradi va jiga yig'arning to'planishini oldini oladi.

Vitamin B₁₂ (tsianokobalamin) foliy kislotasi bilan birgalikda gemoglobin sintezida ishtirok etadi, xolin va metionin bilan birgalikda lipotrop ta'sir ko'rsatadi. Sianokobalamin nuklein kislotalarni sintez qilishda, yog', uglevodlar va

aminokislotalar metabolizmida ishtirok etadi. B₁₂ vitaminlari ozuqa tarkibida yetishmasligi baliq o'sishini sekinlashtiradi, ozuqa iste'molini, qondagi gemoglobin miqdorini kamaytiradi va eritrotsitlarga halokatli ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, quruq granulali ozuqa va premikslar tarkibiga kiritiladi.

C vitamini (askorbin kislotasi) metabolik reaksiyalarda, xususan, oksidlanish qaytarilish jarayonlarida faol ishtirok etadi, antioksidant xususiyatlarga ega. C vitamini kortikosteroid gormonlar sinteziga, kollagen hosil bo'lishiga yordam beradi, asab tizimining normal faoliyatini ta'minlaydi, uglevod metabolizmiga ta'sir qiladi va baliqdagi protein metabolizmining individual bosqichlarini nazorat qiladi.

C vitamini yetishmasligining xarakterli belgilari: kollagen hosil bo'lishi jarayonini izdan chiqishi natijasida umurtqa pog'onasi qiyshayishi (lordoz, skolioz); ichki organlar, ko'zlar va terida qon ketish; gemoglobinning pasayishi, qizil qon tanachalari soni, oyquloq qoplamarining deformatsiyasi (qisqarishi), suzgichlar eroziyasi, ishtahaning pasayishi, o'sish sur'ati va boshqalar.

Shuni ta'kidlash kerakki, askorbin kislotasi suvda eriydigan boshqa vitaminlar orasida ayniqsa beqaror. Shunday qilib, C vitamini yorug'lik, kislород, harorat ko'tarilishi ta'sirida, shuningdek donador ozuqa tayyorlashda osonlikcha parchalanib ketadi. Ekstruziya yo'li bilan ozuqa ishlab chiqarishda askorbin kislotasi ayniqsa parchalanishga moyil bo'ladi.

4.4. Quruq ozuqa, tayyor mahsulot tayyorlash mexanizmi va mashinalari

Baliq omuxta yemini ishlab chiqarish liniyası. Ushbu ishlab chiqarish liniyasining asosiy protseduralari - xom ashyni maydalash, aralashtirish, ekstrudirlash, quritish va qadoqlash. Baliq ozuqasining tarkibiy qismlari hayvon va o'simlik xom ashylaridan iborat. Hayvon ozuqa xom ashylariga baliq unlari, go'sht, suyak unlari, qon unlari, krill unlari va boshqalar kiradi. O'simlik ashynosiga soya uni, bug'doy uni, guruch uni, kungaboqar uni va boshqalar kiradi.

Ishlab chiqarish liniyası quyidagilardan iborat: ozuqa xom ashynosini maydalagich → aralashtirgich → ekstruder → quritgich → avtomatik tortish va qadoqlash mashinasi

Ozuqa xom ashynosini maydalagich.



Hayvonlarning turli turdag'i va yoshdagiguruhlari uchun dag'alem-xashak donli ozuqa, jo'xori so'tasi , jmix va shrotlarni, pichan va qarag'ay ignalaridanva boshqa ashylarni maydalabvitaminli qorishma tayyorlash uchun uchun mo'ljallangan.

KD-2 ishlab chiqarish quvvati, 800-3000kg/ soat.

Pichan, somon uchun, 800kg/soat,donli yem-xashak uchun, 3000kg/soat. Jo'xoridoni uchun maydalashda unumdorlik, kg / soat 3000.Jmix va shrot uchun, 3000 kg/ soat,o'rnatilgan quvvat , kVt 30. Umumiyl o'lchamlari va vazni- Uzunlik, 2450mm, eni, 1700 mm Balandligi, 2800 mm,og'irligi, 940kg.

Don (bug'doy, arpa, makkajo'xori, no'xat va boshqalar) va don bo'limgan (jmix, shrot, o't uni, chig'anoq va boshqalar) ozuqa tarkibiy qismlarini maydalash uchun mo'ljallangan. Afzalliklari: maydalagich o'qlarga bolg'alar bilan yasalgan; rotorni qo'zg'atmasdan bolg'alarni tezda almashtirish imkoniyati mavjud; maydalagich korpusining har ikki tomonida ham maydalash kamerasiga erkin kirish va setkasini tez almashtirishni ta'minlovchi qopqoqlar mavjud; qabul qiluvchi bunkerga o'rnatilgan magnit ajratgich metall aralashmalarning maydalash kamerasiga kirishini oldini oladi;

Texnik tavsiyalar ADK-10 ADK-5 ADK-8 ishlab chiqarish quvvati, 8000-10000, 3000-5000, 6000-8000 kg / soat, O'rnatilgan quvvat, kVt 30; 18,5; 30 Bolg'alar soni, 96, 64, 96 dona.O'zgartiriladigan elaklarning (setkalarning) teshik diametri, 3.2-12 mm, Umumiyl o'lchamlari va og'irligi Uzunlik, 1840; 1314; 1800 mm, kengligi, 800; 1070; 1040 mm, balandligi, 1200 1603 1260 mm, og'irligi, 1370, 667, 800 kg



yemining

osilgan



Somonni kesuvchi. Shaxsiy xo'jaliklarda chorva mollarini semirish uchun somon va boshqa qo'pol poyali em-xashaklarni kesish uchun mo'ljallangan. Konstruksiya ikkita pichoqni almashtirish orqali

ozuqani kesish uzunligini sozlash imkoniyatini beradi.

Tasnifi:

SR-1-60 Ishlab chiqarish quvvati 60-100 kg / soat, Kesuvchi barabanning aylanish tezligi, 40-60 ob / min; Umumiy o'lchamlari va vazni: Uzunligi, 1280 mm Kengligi, 650 mm Balandligi, 1030 mm Og'irligi, 100kg.

Sochma yemlarni aralashtirish uchun aralashtirgichlar SSK 1,2 - 4,4 aralashtirgichlari ishlab chiqarish quvvati 0,5 - 4 t / soat bo'lgan ozuqa yemini ishlab chiqarishda yagona tizim konfiguratsiyasida markaziy o'rinni egallaydi.

Uskunalar ozuqa tayyorlashda quruq maydalangan don tarkibiy qismlarni va har xil qo'shimchalarning yaxlit aralashmasini olishga mo'ljallangan.

Aralashtirgichning ishslash prinsipi: komponentlarni aralashtirgichga to'ldirish shnek yordamida amalga oshiriladi: qo'lda – bunker orqali; maydalagich orqali pnevmatik – egiluvchan shlang yordamida. Tarkibiga qarab ozuqaning bir porsiyasini aralashtirish vaqt 10 ... 20 minut.

Bir xil yaxlit aralashmani olish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

-tarkibi jihatidan nisbiy og'irligiga qarabkichik va katta massasiga qarab navbat bilan to'ldiring;

-quritilgan o'tlar bilan ozuqa tayyorlashda avval quritilgan materialni, so'ngra ingrediyentlarni qo'shing.

Tayyor aralashmani tushirish uchun ozuqa aravachasini tushirish kanalidan chiqish ostiga joylashtirladi yoki shnekni qo'yish, aralashtirgich qo'zg'atuvchisini faollashtirish, chiqarish mexanizmi qo'lini "ochish" holatiga o'tkazish va ozuqaning bir porsiyasi olayotganda uni shu holatda ushlab turish kerak.

Komponentlarni to'liq sifatli aralashtirish ekstruziya samaradorligini kafolatlashi va ozuqa sifatini oshirishi mumkin.

Gorizontal aralashtirgich. Quruq, yopishqoq va ho'l ingrediyentlarni aralashtirish uchun gorizontal aralashtirgich. 1 ta porsiya uchun mikser unumdorligi 0,12; 0,24; 0,4; 0,8 tonna. Aralash siklining davomiyligi 3-5 minut. Yuk tushirish muddati 2-4 minut. Bu 1 soat ichida 3 dan 6 tagacha porsiyalarini tayyorlashga imkon beradi. Keyin ingrediyentlarni aralashtirgichga yuklash vaqtini hisobga olgan holda bir soatda kamida 280; 400; 800; 1500; 2500 kg aralashtirgich

modeliga qarab aralashma tayyorlash mumkin. Aralashtirgich 95-98% aralashmaning gomogenligini ta'minlaydi. Suyuq tarkibiy qismlarni 15% gacha kiritish mumkin. Bir o'qli mikserlar modifikatsiyasining energiya sarfi 1.1; 1,5; 4; 7,5; 11 kVt.

Imkoniyatlar. 1. Yog'och uni, omuxta yem va ozuqa aralashmalarini olish uchun foydalaniladi

2. Yopishqoq, quruq va nam komponentlarni aralashtirish uchun foydalaniladi

3. Aralashtirishning yuqori bir xilligi (masalan, oqsil qo'shimchalari –OVMQ va boshqalar) aralashmalarini olishda foydalaniladi.

4. Somon, un, ziravorlar, pichan va boshqa aralashtirish qiyin bo'lgan tarkibiy qismlarni aralashtirish.

5. Yem tegirmonlari granulalangan liniyalarining tarkibida foydalanish mumkin.

O'ziga xos xususiyatlar

1. Aralashtirishning sifati yuqoriligi 2. Suyuqliklarni kiritish imkoniyati 3. Quruq, yopishqoq, nam komponentlarni aralashtirish 4. OVMQ qo'shimchalarini ishlab chiqarishda premiksning 0,5-1,5% konsentratsiyasidan foydalanish mumkin 5. Mahsulot chiqarib to'kish usuli 6. Istalgan xonada foydalanish imkoniyati 7. Turg'unlik uchun mahkamlash shart emas 8. Tez yig'ish va demontaj qilish 9. Ish uchun faqat 1 ishchi kerak.

Komplekt tarkibi 1. Kurakli aralashtirgich 2. Foydalanish bo'yicha qo'llanma 3. Kafolat belgisi bo'lgan kupon.

Ishlash tavsifi: Bo'sh aralashtirgich ishga tushiriladi. Barcha komponentlar, shu jumladan nam, yopishqoq va suyuqliklar, aralashtirgichga yuklanadi. Komponentlar 3-5 daqiqa davomida aralashtiriladi. Chiqarish qopqog'i ochiladi. Aralashtirgich valining mahsus konstruktsiyasi tufayli aralashma bo'shatiladi.

GRANULATORLAR. Kepak, yog'och qirindisi, o't unidan, shuningdek iste'molchining ehtiyojidan, boshqa xom ashyodan granulalar olish uchun mo'ljallangan. To'liq komplektda reduktor, presslash moslamasi, aralashtirgich, taymer (chastota regulyatori bilan) mavjud. Omuxta yem granulyatsiyasining afzalliklari: granulyatsiya omuxta yem ishlab chiqarishning birlik harajatlarini 1,3-

1,5 baravar kamaytirishga imkon beradi; granulalash paytida, saqlash va tashish paytida omuxta yem yo‘qotilishi kamayadi; granulyatsiya ozuqaning uzoq vaqt davomida xavfsizligini ta’minlaydi; granulyatsiyadan so‘ng olingan aralash ozuqa yuqori zichlikka ega, bo‘lib oshqozonning cheklangan hajmiga ko‘proq ozuqa moddalari joylashtiriladi; kraxmal ko‘proq gidrolizlanadigan shaklga o‘tadi - dekstrinlar, bu ozuqalaridan to‘liqroq foydalanishga imkon beradi; toksin ishlab chiqaradigan mog‘or koloniyalarining 95% gacha yo‘q qilinadi; yog‘ aralash ozuqa yuzasida bir tekis taqsimlanadi va bu uning yaxshi hazm bo‘lishiga yordam beradi. Granulyatorlarning afzalliklari: texnik xizmat ko‘rsatish qulayligi; granulalar ishlab chiqarish uchun qo‘srimcha uskunalar talab qilinmaydi; diametri 2,5 mm ga teng bo‘lgan teshiklari bo‘lgan matriksalardan foydalanib, yorma o‘xshash granulalar olish mumkin; mavjud yem chiqarish liniyalarga qo‘sish sharoitida granulyatorlarning ta’mirlash mumkin. DG-1 va DG-3K modifikatsiyalari granulyatorlarida elektr dvigatelning momenti tasma yordamida qo‘zg‘alib asosiy o‘qga uzatiladi. Tasma qo‘zg‘alishi barqaror ishlashni, yuqori ishlashni, shovqinni past darajasini, shuningdek ishlash va texnik xizmat ko‘rsatishda qulaylikni ta’minlaydi.



Granulalangan ozuqa yuqori ozuqaviy qiymati tufayli baliqchilik uchun istiqbolli mahsulot hisoblanadi. Har bir granulada baliq yoki qush uchun zarur

bo‘lgan to‘liq moddalar to‘plami mavjud. Birinchidan, baliq faqat eng mazali ingrediyentlarni tanlay olmaydi va butun granulalani iste’mol qiladi. Ikkinchidan, u oziqlanish uchun ozgina energiya sarflaydi, ozuqani yaxshilab chaynash imkoniga ega, natijada u tanaga mukammal singib ketadi. Granula ozuqa ishlab chiqarish jarayonida dezinfeksiya qilinadi, u yaxshi saqlanadi va tashiladi, mexanik va pnevmatik tizimlar bilan oziqlantirish uchun qulaydir.


Granulyatorning matritsasi - bu qurilmaning asosiy elementlaridan biri, granulyatsiya paytida ozuqaviy massa bosim ostida o‘tadigan ko‘plab teshiklari bo‘lgan po‘lat qismi.

Omuxta yem ishlab chiqaradigan granulyatorlar turlari

Granulyatorlar asosiy xususiyatlarga ko‘ra ikkita bo‘linadi:

Yassi matritsali granulyator - silindrsimon press kamerasining pastki qismida yassi disk-matritsa mavjud bo‘lgan apparat.

Halqa matritsali granulyator - tezkor aylanadigan halqa-matritsa shaklida ishlab chiqarilgan sanoat uskunalari. Bunday qurilmalarda ozuqa aralashmasi teshiklardan surilib, aylanuvchi matritsa va press valiklari orasidagi siqib, ish kamerasi ichiga o‘rnataladi.



Maishiy texnika - uy sharoitida - xo‘jaliklarida, mini fabrikalarda ishlataladi. Odatda bu soatiga 200 kg dan ortiq bo‘lmagan quvvatga ega yassi matritsali apparat.

Sanoat yem granulyatori - bu soatiga 500 kg dan ko‘p ishlab chiqaradigan, takomillashtirilgan ishlashga mo‘ljallangan press granulyator. Sanoat liniyasi uchun ozuqa granulyatori sifatida, odatda, halqa-matritsali apparat tanlanadi - bu yuqori unumdorlikka ega ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan eng ishonchli variant. Yassi matritsali sanoat press granulyatorlari ham mavjud, eng keng foydalanim kelinayotgani AmandusKahl firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan.

Press granulyatorining ishlash prinsipi

Ishlash prinsipi modelga qarab farq qiladi.

Maishiy yassi matritsali granulyator quyidagi asosiy qismlardan iborat

1. Xom ashylarni qabul qilish bunkeri – qo‘lda yoki shnekli konveyer yordamida yuklanadi.
2. Diskli matritsasi – ko‘plab teshikchalar prinsipiga muvofiq joylashtirilgan teshiklari bo‘lgan disk.
3. Matritsa ruliklari matritsaning o‘rtasiga o‘qga o‘rnataladi. O‘q press roliklari bilan bir vaqtning o‘zida aylanadi, ular massani ixchamlashtiradi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ularning ostidagi matritsa teshiklariga yo‘naltiradi.
4. Kesuvchi pichog‘i - tashqi tomondan diskning pastki qismida joylashgan va kerakli uzunlikni olish uchun teshiklardan chiqib ketadigan granulalarni ma’lum vaqt oralig‘ida kesib tashlaydi.
5. Elektr dvigatel.
6. Mahsulotni tushirish uchun trubkasi.



Bunday qurilmalarning bajarilishining ikkita asosiy turi mavjud: roliklar yoki matritsaning o‘zi o‘q atrofida aylanadi.

Birinchi holda, roliklar o‘q atrofida aylanib, materialni har bir teshikka yo‘naltiradi.

Ikkinci holda, kamerada 2 dumalab aylanadigan roliklar statik ravishda o‘rnataladi va matritsaning aylanib roliklarni ham aylantiradi va materialni bo‘sish teshiklarga yo‘naltiradi.

Granulalar tashqaridan siqib chiqariladi va pichoq bilan ma'lum vaqt oralig'ida kesiladi. Sanoat presslaridan farqli o'laroq, uy sharoitida ishlatiladigan granulyatorlar aralashmani yuqori haroratgacha qizdirmaydi, shuning uchun granulalar mahsus kolonnada sovutishni talab qilmaydi. Shuning uchun ular zichligi past va saqlash muddati qisqaroq. Bunday mahsulot odatda fermerlar tomonidan ularni o'z xo'jaliklarida tezda ishlatish yoki qo'shnilarga ozuqa bilan ta'minlash uchun tayyorlanadi.

Bir soat davomida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi diskning diametriga va butun qurilmaning quvvatiga bog'liq.

Ilg‘or texnologiyalar, ekstruziya, ekspander

Reja:

- 1. Baliq yemi ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash**
- 2. Ekstruder, ekspander texnologiyasi ishlab chiqarish liniyalarining samaradorligi**

Progressiv texnologiyalar

